

**Muassislar:**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi

1982-yildan chiqa boshlagan.

**Tahrir hay'ati:**

Sirojiddin SAYYID  
Alisher SA'DULLAYEV  
Minhojiddin MIRZO  
Iqbol MIRZO  
Nodir JONUZOQ  
G'ayrat MAJID  
O'razboy ABDURAHMONOV  
Kengesboy KARIMOV  
Abatbay DANİYAROV  
Shuhrat SIROJIDDINOV  
Bahodir KARIMOV  
Sobir O'NAR  
Ilhom TO'XTASINOV  
Farrux JABBOROV

**Bosh muharrir:**

Faxriddin HAYIT

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Nurilla ChORI

**Mas'ul kotib:**

Sa'dullo QURONOV

**Mas'ul muharrir:**

G'iyosiddin O'NAROV

**Adabiy muharrir:**

Husan MAQSUD

**Muharrirlar:**

Abdurauf ZOKIROV  
Dilnoza RUSTAMOVA

**Manzilimiz:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi binosi.  
Indeks 100066

E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz

Veb sayt: www.yoshlikjurnali.uz

Tel.: (0371) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: D. RUSTAMOVA



3

**Millatparvar avlod  
kamol topadi**

5

**Axtamquli**  
Ko'zlarim oftobida  
quvnaydi baxt...



8

**Isajon Sulton**  
To'linoy xayollari



24

**Ra'no Ibrohimova**  
So'z qudrati...




58

**Asliddin  
Almardon**Mantipaz  
va birodarlar

27

**Abduqayum  
Yo'ldoshev**Adabiyot dunyoni  
o'zgartira oladi

40

**Luqmon  
Bo'rixon**Adabiyot tirikchilik  
emas, tiriklik  
manbai


Mashhura Abdurayimova  
Muxlisa Abdullajonova  
Mashhura Botirova  
Nargiza Matqurbonova

50

52

**Muhammad  
Rahmon**Pantomimo uchun  
syujet

44

**Dilrabo  
Mingboyeva**Yuvib oling  
xayolingizni!

56

**Abduvali  
Qutbiddin**Ichikdim.  
Sog'indim seni,  
shekilli

54

**Qutlibeka  
Rahimboyeva**  
Quvonch**Asror Mo'min**Bitta-bitta so'zdan yaralar  
doston

46



# MILLATPARVAR AVLOD KAMOL TOPADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi va muzeyni borib ko'rdi.

O'zbek romanchiligining asoschisi, vatanparvar adib Abdulla Qodiriy xotirasiga ehtirom ko'rsatish, milliy adabiyotimiz rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini ulug'lash maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan poytaxtimizning Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i oldida ijod maktabi va muzey barpo etildi. Boqqa kiraverishda buyuk yozuvchi haykali o'rnatildi.

Davlat rahbari mazkur haykalning ochilish marosimida ishtirok etib, uning poyiga gul qo'ydi.

Maktab Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3 dekabrda farmoyishi bilan tashkil etilgan bo'lib o'zbek tili va adabiyotini, badiiy ijod sirlarini chuqur o'rgatishga ixtisoslashgan.

O'tgan o'quv yilida maktabning 5, 6, 7 va 8-sinflariga ijodiy imtihonlar va test sinovlari asosida 121 nafar o'quvchi saralab olindi.

Prezident bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. O'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

– Abdulla Qodiriy ijod maktabida o'qiyotgan bu bolalar

yangi O'zbekiston kelajagining bunyodkorlaridir. Barcha umumta'lim maktablari ushbu o'quv dargohidan ma'naviyatni, ma'rifatni o'rganishi lozim. Chunki bu yerda tahsil olayotgan bolalar nafaqat ma'naviyatli, balki o'z vatanini yurakdan sevuvchi iste'dod egalari. Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilganmiz, – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, bu yil Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligi keng nishonlandi. Bunday tadbirlar adib nomi qo'yilgan ijod maktabida o'zgacha shukuh bilan o'tdi.

– Bu maktabda millatparvar, o'zligini anglagan avlod kamol topishiga ishonaman, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'iga kiraverishda adib muzeyi barpo etildi. Mazkur binoga "Turon" kutubxonasi ham joylashtirildi.



Bu nafaqat yetuk ajdodimizning vorislari, balki adabiyot, ma'naviyat va ma'rifat ahlini, butun xalqimizni quvontirdi.

Davlat rahbari muzey va kutubxonadagi sharoitlarni ham ko'zdan kechirdi.

Prezident shu yerda yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunos olimlar, yosh ijodkorlar bilan muloqot qildi.





### Axtamquli

1964-yili tug'ilgan.

O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi  
qoshidagi Oliy adabiyot kursini  
tugatgan.

"Bodomginam", "Qarochiqda  
asraganimsan", "Bahorimdan kechikkan  
gul", "Qirq g'azal" she'riy to'plamlari,  
"Ibratli hayot", "Baxt izlagan odam"  
biografik qissalari, "Tog'lar ham qariydi"  
hikoyalari to'plami nashr etilgan.

\*\*\*

Iztirob joy topmagan pok xonadirsan, Oqsaroy,  
Yer yuzida bebaho ostonadirsan, Oqsaroy.

Yashnagan tengsiz chaman poyinda  
gul sochgay mudom,  
Ezgulik dunyosida afsonadirsan, Oqsaroy.

Oq gilam to'qib kezar tunlar sening yo'lingda Oy,  
Yurtimizda benazir koshonadirsan, Oqsaroy.

Yam-yashil Kesh shahrida orolanib turgan suluv,  
Ishqimizning bog'ida parvonadirsan, Oqsaroy.

Gullagay sog'intirib Sohibqironning izlari,  
Ko'zlarim ummonida durdonadirsan, Oqsaroy.

Baytlarim har bandini guldasta aylay sen uchun,  
Ko'ngli tog' Axtamquliga onadirsan, Oqsaroy.

## Ko'zlarim oftobida quvnaydi baxt

\*\*\*

Jon dilimning kosasida qon edi,  
Gohi shodon, gohida giryon edi.

Daftarimni qoralab chiqqan hayot  
Qismatimda bitmagan doston edi.

Unga jonim deb qilurman iltifot,  
Jonni jonga bog'lagan jonon edi.

Tushsa dil qo'rg'oniga pinhona g'am,  
Baytlarim boshdan oyoq paykon edi.

O'tiribman cho'qqilar poyonida,  
Lahzalar ko'z ilg'amas mehmon edi.

Sarg'ayib ko'nglimga yo'l ovlaydi kuz,  
Mehnatimning hosili armon edi.

Ko'hna charx boshimda tegirmonini  
Yurgizib qo'yganda ham vayron edi.

Jon erur shaydoyi Haq Axtamquli,  
Tan aning gulzorida hayron edi.



\* \* \*

Tilim qalbmning uyg'oq sozi bo'ldi,  
Yonib yozganlarimdan rozi bo'ldi.

Yuraklar orziqib kutgan zamonda,  
Sevinchim andalib ovozi bo'ldi.

Nechun ko'nglimni shudgor aylading, kuz?!  
Qo'limda ayriliq qog'ozi bo'ldi.

Muhabbat ahlining koshonasida,  
Yig'ilgan baytlarim parvozi bo'ldi.

Hayotim o'tdi o'tlig' so'z ichinda,  
Agar o't olmasam norozi bo'ldi.

Bu dunyo men kabi devonaroqdir,  
Davr dodimga yetmas qozi bo'ldi.

Tikib Axtamquli jonimni Haqqa,  
Xayolimda yurakning nozi bo'ldi.

\* \* \*

Gulimdan gul tilab gulzorga bordim,  
Keyin dalloli yo'q bozorga bordim.

Dilimni sinchi bulbullar sinashdi,  
Yurak torim uzilgach, torga bordim.

Quvonchimni xazonzorga qadoqlab,  
Bahordan ko'z uzolmay qorga bordim.

Balogardon bo'lolmay bir baloga,  
Uning holin so'rab bekorga bordim.

Yarar bir parcha yer qolgan kunimga,  
Nechun poyoni yo'q shudgorga bordim?

Hayot o'chirmasin deb xotiramni,  
Bobom yo'l topmagan qo'yg'orga bordim.

Uzib Axtamquli ko'nglimni ishqdan,  
Rahmsiz baxti kuygan yorga bordim.

## To'polon daryoning to'g'oni

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan quruvchi  
Abdug'ani aka Sanginovga

Sizni ko'rdim "Taxti mir"\*ning yonida,  
To'polon daryosining to'g'onida.

Yashnatar ko'ngil uyin Yo'l boshchimiz  
Orzularning eng baland osmonida.

Bog'lanib dunyo bilan daryolarim,  
Nur sohib turgay hayot qo'rg'onida.

Izlarim gullaydi xarsanglar aro,  
Dardlarim kuygay yurak dovonida.

Ko'zlarim oftobida quvnaydi baxt,  
Lahzalarning bebaho har onida.


Bunda mangu ko'ksi tog' bir el yashar,  
Oy chiqib ko'ngil yozar ayvonida.

Cho'qqilar imlaydi otamdek bo'lib,  
Chorlagay pinhona dil oshyoniga.

Tog'larim ochgay yurak darvozasin,  
She'rlarim shaylansa Sharg'un\* koniga.

Qirda gullab-yashnagay afsona bog',  
Yetmagay umrim aning poyoniga.

Dilni sog'inch suv qilar Axtamquli,  
Tashnalab kezgan umr karvoniga.



\* **Taxti mir** – qadimda hozirgi to'g'on yonida  
amirning qo'rg'oni bo'lgan.

\* **Sharg'un** – ko'mir koni.

\* \* \*

*Buyuk Imom Buxoriy ilmidan afsona bo'lgan yurt,  
Aziz-u avliyolarga suyuq ostona bo'lgan yurt.*

*Adolat mulkini bunyod etib Sohibqirondek zot,  
Muqaddas Oqsaroylar kaftida nurxona bo'lgan yurt.*

*Xiyonat zarbidan nogoh qiyomat charxi aylansa,  
Zamonlar zulmidan xo'rlik ko'rib vayrona bo'lgan yurt.*

*Azal qonimda bordirkim, jahongirlar bo'lar paydo,  
Samarqanddan sado berdi, Humo parvona bo'lgan yurt.*

*Ulug' minbarda Yurtboshim elim deb iftixor aylar,  
Quyosh-u oy tun-u kun yonida hamxona bo'lgan yurt.*

*Jahon ahli Vatan nomin desam tinchlikni anglaydi,  
Sochib har bir giyohga nur, gul-u gulxona bo'lgan yurt.*

*Mening qalbimda quvnaydi sevinchim, sirli dostonim,  
Yonar Axtamquli birlan quyoshga ona bo'lgan yurt.*

---

\* \* \*

*Yurak to'fonida g'arqi jahon bo'ldimmi, bilmasman,  
Daraxtlar kaftidan uchgan xazon bo'ldimmi, bilmasman.*

*Hilol ko'k toqida oshiq dilimni qiymalab ketdi,  
Falak yulduzlariga imtihon bo'ldimmi, bilmasman.*

*Halovat izlagan qalbimni qog'ozlarga sovurdim,  
Kamondan otilib ketgan fig'on bo'ldimmi, bilmasman.*

*Tizilgan baytlarim yo'l olsa oshiqlar makoniga,  
Kuyib dil yozmaganlarga ziyon bo'ldimmi, bilmasman.*

*Tutib charx ostida boshimni tog'lardan saboq oldim,  
Qalamni qaqshatib goho yomon bo'ldimmi, bilmasman.*

*Nechun oy shu'lasida dardlarimni maydalaysan, dil?!  
Hayot xirmoniga tushgan somon bo'ldimmi, bilmasman.*

*Quyosh domonidan ushlab mudom yuksakka intildim,  
U kun Axtamquli erdim, dovon bo'ldimmi, bilmasman.*



Isajon Sultonning “To‘linoy xayollari” o‘zlikni, millatni tanish yo‘lidagi muhim urinishlardan biridir. Bu xil tanishning har qanday shakli, ko‘rinishlarini faqat qutlash kerak. Yo‘q, xato, deyish, tan olmaslik, inkor boriga munkir kelishdir.

Avval birovni tanib ham o‘zingni tanitishning mumkin. Shunday ekan, o‘zingga eltuvchi yo‘llarning barchasi adashtirmaydi. U masofani uzoq qilishi mumkin, baribir so‘nggi manzilga borsa, to‘g‘ri yo‘llar qabatida turadi. Manzil sari yo‘nalgan hamma yo‘llar yaxshidir.

**Shomirza TURDIMOV,**  
filologiya fanlari doktori

# Isajon

## SULTON

1967-yilning 6 aprelida Farg‘ona viloyatining Rishton tumanidagi Avazboy qishlog‘ida tug‘ilgan.

U 1985–1990-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti (ilgarigi ToshDU) ning jurnalistika fakultetida tahsil olgan.

Yozuvchining “Munojot” (1990), “Oydinbuloq” (1995), “Boqiy darbadar” (2011), “Ozod” (2013), “Bog‘i Eram” (2015), “Tanlangan asarlar” (2 jildlik), “Genetik” (2017), “Hazrati Xizr izidan” (2018), “Bilga xoqon” (2019) nomli kitoblari chop etildi. Shuningdek, kitoblari

Turkiya (“İrem Bağı”, 2015) va AQShda (“The Eternal Wanderer”, 2019) nashr qilingan. Bir qancha hikoyalari xalqaro tanlovlarda sovrinli o‘rinlarga loyiq ko‘rildi.

Asarlari ingliz, nemis, rus va turk tillariga tarjima qilinib, AQSh, Rossiya, Turkiya va Moldova adabiy nashrlarida chop etildi.

Isajon Sulton Javoharlar Neruning “Hindiston” asarining shoh Boburga bag‘ishlangan qismini, Ryunoske Akutagava, Yasunari Kavabata, Dino Bussatti, Umar Sayfiddin kabi adiblarning asarlarini o‘zbek tiliga o‘giran.

2014-yil “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan taqdirlangan.



# TO'LIQ XAYOLLARI

(Turkiy xalqlarning xayoliy yaratilari kitobi)

Aslida, bu – Oy haqida emas, balki yer yuzida oyday balqqan turkiylar haqidagi bitiklardir. Oyni bunday sevadigan ulus dunyoda bo'lmasa kerak. Ko'ziga ne xush ko'rinsa, oyga olib borib taqaydi. Bo'z bolasi uni suyganiga qiyos qilsa, keksasi "Yetkazganingga shukur" deb yuziga fotiha tortadi.

– Qara-chi, qulunim, Oy chiqibdimi?

– Yo'q, chiqmabdi.

– Iya, nega chiqmadi ekan?

Shoshma, sen o'zing kimsan, desangiz, men ham shu diyorning quyoshi-yu oyi ostida ulg'aygan, unga bog'liq ishlarni o'rganib yurgan bir tarixchisiman. Eh-he, dunyoda tarixchi kammi? Har kimning o'z aytar so'zi bor, hatto oddiy bir qush ham kunchiqar-u kunbotarda Tangri taologa nola qilib olamni buzadi. Adiblari-yu olimlari oyday shu elning har so'zi, har hikoyatini bir xazina deb bilib, u yashagan davrlarni, kishilarini, yaxshi-yomon farzandlarini kitoblarga muhrlamoqdalar. Men esa uning xayollarini ham qadrlidi deb bilib, qo'limdan kelganicha bitib qo'yaveray dedim-da. Ey alp el, ey bek el! Shu tunda, nigoh yetmas olislarga uzangan bag'ringda minglab qishloqlaring horg'in mudramoqda. Yo'q-yo'q, qishloq uxlamidi? Uyqusi sergak qariyalar hovlilarning kiraverishidagi hujralarga ko'chib o'tishgan, nima tiq etsa bilishadi. Qo'riqchi kuchuklar samoda kezayotgan Oyga qarab o'y surishadi. Shuningdek, yana bir qancha mavjudotlar ham borki, ayni shunday tunlarda o'zlari yashiringan puchmoqlardan asta-sekin chiqib kelishadi. Ularga biron qadr-qiyamat bermadi, yaratilish onlarida qanday bo'lsa, shundayligicha qolib ketaverishdi. Elning o'zi kabi, yumushlarini qo'ldan kelguncha bajarib yuraverishdi. Shularni asarga tirkab qo'yay dedim, toki unutilib ketishmasin, toki el xizmatida yurgan u haqir mavjudotlar ham qadr topishsin, dedim.

\* \* \*

Uzun qish kechalarining tungi osmonida yuzida dog'i bilan Oymomo kezinadi. Tevarakka qish sukunati cho'mgan, qor bosgan ariqdagi suv zaif jildiraydi. Sovuq tovushlarni ham yutib yuboradi. Og'ildagi mol-qo'ylar uyg'oq, xabar olay deb kirsangiz, ko'zlari moviy yiltirab, bir nimani tinmay kavshayotganini ko'rasiz. Orasida oq echki bo'lsa-ya? Yo'q, hammayoq tinch, shekilli... Yumushlarimiz bitdi, kechki taom yeyildi, so'ngaklar kuchuklarga berildi. U yoq-bu yoqdan so'zlashib o'tirish vaqti keldi.

O'choqda o't chirsillab yonadi. Tafti hammaga tanish, havoda qizg'ish-ko'kish uchqunchalar o'z-o'zidan paydo bo'lib so'nmoqda. Olov ichidagi ho'l novda uchidan vishillab bug' chiqyapti.

– Eshitingizmi, kimlardir Oyni zabt etishganmish?

– Iya, Oy bizniki emasmidi?

– Xo'sh, bolalar, nimalardan so'zlaylik? Kulgilisidanmi, yo qo'rqinchlisidanmi?

– Qo'rqinchlisidan!

– Ha, mayli, quloq soling. Shu qishloqda...

Ke-etdi! Oy chiqqan kechalarda poyonsiz hududlarda bir o'zi tentirab yuradigan, kishilarni yo'ldan ozdirib ketadigan qo'rqinchli yaratilqlar haqidagi bir-biriga o'xshamaydigan hikoyatlarni bolalar quloq qoqmay eshitishadi.

Qish tunlari uzun. Oymomo yanada havolab ketadi.

– Ota-a, – deydi eng kichkina bolacha. – Tishim qichishyapti.

– Hah, seni tishingdan aylanay, – deb kuladi ota. – Qani, yur-chi.

Tungi rivoyatlardan so'ng kichkintoy tugul, kattalar ham tashqariga chiqishga qo'rqishadi. Ha-da, soyalar aro har xil sharpalar paydo bo'lishi yoki qishloq chetidan alvasti, oziqchi, qora kishi bildirmay kirib kelishi mumkin.

Tashqarida qor uzra tikkaygan butalar qorayib ko'rinadi.

– Qiblaga qarab choptirma, gunoh bo'ladi, – deydi o'g'liga nariroqdan qarab turgan ota.

Bu manzara ming yillardan buyon shu tarzda takrorlanib keladi. Hozir ham allaqaysi qishloqlarda bolalar shunday hikoyatlarni tinglab o'tirishgan bo'lsa bordir. Bolalar hikoyatlari deysiz-u, tuyqusdan ularning sirayam bolalarga xos emasligini, yer yuziga yoyilib ketgan turli-tuman turkiy uluslarning har qishlog'ida og'izdan og'izga o'tib, shu el bilan

yashab kelayotganini o'ylab qolasiz. Ular barcha zamonlardagi barcha qishloqlarning doimiy fuqarolariday tuyula boshlaydi.

– Tapaqishloqqa Alvasti kelibdi.

– Burni qiyshiq, tishi so'yoq, labi do'rdoq emish.

Turli-tuman shunday hikoyatlarni ulab, bir mantiq zanjiriga tizib chiqsangiz, har qishloq, har qasabaning kitoblar-u risolalardan to'lig'icha o'rin ololmagan o'z rivoyatlari ko'z o'ngingizda jonlanadi.

### 1-QISM. MILLIY YARATIQLAR

#### *Alvasti*

Aytdim-ku, minglab bolakaylar o't tegrasida o'tirib, ko'zlarini katta-katta ochib tinglagan qishloq rivoyatlaridan so'zlaymiz, deb. Ertak-u matallarning qahramonlari qachonlardir yoshini yashab, oshini oshab, dunyodan o'tib ketgan, bular esa mavjudligiga mutlaqo ishoniladigan, qishloqlar tegrasida bugun ham yashab yurgan, sira o'lmaydigan mavjudotlardir. Alvasti deganimiz maxluq bir qancha ming yillar avval sharqda Kunchiqar mamlakatigacha, g'arbda Buyuk Suvlargacha, janubda Hind eligacha hamda shimolda turkiylarning ona shahri Xonbaliq-u Tangribaliqqacha yastangan so'ngsiz hududlarda hayot kechirgan, boshqa xalqlar "Ot minuvchilar" deb nomlashgan dovyurak turkiylar bilan yonma-yon yashab kelmoqda.

U mahallarning sha'n-shukuhini deyarli unutib qo'ygan kishilarga "ot minuvchilar"ning fe'l-u ruhiyati, albatta, qiziq bo'lsa kerak. Ularning uchqur tasavvuri tevarak-atrofini jonlantirib, tabiat hodisalari-yu unsurlarni o'z turmushiga keltirib taqab qo'yishadi. Tunda mayin yog'du sochgan Oy xayolni o'g'irlyaydi, oyday balqsin deya farzandlariga Oydin, Oygul, Oysuluv, Oysanam, Oynisa, Oybek, Oyparcha, Oyposhsha, Oyboldoq, kunday porlasin deya Kunxo'ja, Kunmurod, Kunnazar, Kunberdi, Kunazim degan ismlar qo'yishadi. Sochi oqargan momolarini Oymomo, qaddi kamonday egilgan bobolarini Oydada deb atashadi. To'fon, bo'ron,

yomg'ir, bulut, chaqmoq, shamol kabilar ham ular diqqatidan chetda qolmaydi, bular ham ism bo'lib kishilar taqdiriga muhrlanadi.

G'ayritabiiy ravishda harakatlanadigan hamda ulus nazdida eng dahshatli qilmishni sodir etadigan qo'rqinchli mavjudotlarni ham ular o'zlari o'ylab topishadi. Har yili qo'nalg'isini o'zgartiradigan, qishlov yerlarida qishni o'tkazib, so'ng yaylovlariga ketaveradigan xalqlar uchun ulkan, bahaybat, qudratli yaratiqlar keraksiz edi. Bebosh bolalarini tarbiyalash uchun ular Alvastini yaratib olishadi.

U oyli yoki oysiz, shamol to'nkalarni ko'chirguday bo'lib esgan tunlarda tanho kezgan kishilarga, uyda yolg'iz qoldirilgan bolalarga, tug'ayotgan xotinlarga ko'rinadi, deyishadi. Xoh Farg'ona vodiysining so'lim qishloqlarida, xoh Xorazmning, xoh qadimiy G'uzor davlatidan yodgor kengliklar-u ota yurtning qutlug' qopqasi – Boysunning temir darvozasigacha – kishilar ko'cha-ko'yda o'ynab, hayallab ketgan bolalarni:

– Kech kirganda ko'chada yurma! Baring uy-uyingga bor! – deb koyib berishadi. – Alvasti chiqadigan vaqt bo'ldi-ya!

Bolalarcha tasavvur qishloq chetidagi zovur ichida baqaqurilloqlar avjga chiqqan, oy yog'dusi elangan tunda qishloq ko'chalariga ko'zini olaytirganicha pildirab kirib kelayotgan pakana, ko'zlari olazarak bir kampirni hosil qiladi. Oqshom cho'kdi. Hammayoq tinchib, olislarning tovushlari eshitila boshladi. Kecha sarinligi mayin nafas

bilan vujudga kirib, yoyilib huzur beradi. O'sha huzur va alvasti qo'rquvi aro yalang oyoqlarga mayda toshlar botsa-da, og'riq sezmasdan, xira sariq chiroqlari yonib turgan uylariga o'qday chopgan bolakaylarni ham jonlantiradi. Yana, qo'rquv hosil qilgan hayajon va xavf-xatardan qutulgandagi huzurni ham aytib o'tish kerak. Barcha bolakaylarga g'alaba nashidasini hadya etgan ham aslida mana shu mavjudot.

Besh ming yil avval u alamzada erkak qiyofasida, so'ngroq esa esa bukchaygan, makkor, yovuz kampir ko'rinishida namoyon bo'lgan. Qaddi egik, sochi uzun, ko'zlari olaygan u mavjudot zovurlarning tublarida, qamishlar o'sgan joylarning yon-verida o'ziga suvsarga o'xshab uy qurib yasharmish. Makoni qarovsiz, iflos joylar bo'lsa-da, bu o'rindagi "iflos" tushunchasi aslida toza tabiatni ifoda qiladi. Qurigan xas-xashak yoki suvga tushib chiriy boshlagan shox-shabba bizning nazdimizda shunday ko'rinsa-da, tabiat nazdida tozadir. Alvasti o'sha yerlarda yashaydi, biroq qo'nalg'asini tez-tez o'zgartirib turadi.

Uning eng mudhish qilmishi – kishilarni aqldan ozdirishi-yu xotinlarni tug'mas qilib qo'yishidir. Shu sababli yosh bolalar tunda yolg'iz tashqariga chiqarilmaydi, ikkiqat xotinning oy-kuni yaqinlashgani sayin yaqinlari yonidan ketishmaydi, qarindosh-urug'idan boshqa hech kim kiritilmaydi.

Qachonlardir bir bilimli kishiga ro'para kelgani haqida rivoyatlar bor. Bilimli kishi ko'zlari chaqchaygan, ichi yomonlik bilan to'la bukri kampirdan so'raydi:

- Yorug' olamda qilar ishing ne?
- Tug'ayotgan xotinlarni poylab yuraman.

Qilar ishim – odamlarni aqldan ozdirish-u xotinlarni tug'mas qilish.

– U holda, kishilar sendan ziyon ko'rmasligi uchun nima qilishlari kerakligini o'zlariga aytasan!

– Mendan birov shubhalansa, betimga ko'zgu tutishsin. O'zimni ko'zguda ko'rsam, qo'rqqanimdan yetti chaqirimga qochib ketaman, o'sha joyga qaytib oyoq bosmayman...

Shu sababli qo'nalg'alarning qo'noq

kutiladigan xonalarida, o'tovlarda har doim mis yo shisha ko'zgu osilib turgan. Alvasti oynani ko'rsa, qaramay iloji yo'q edi. Qayda bir nima yilt etsa, oynamikin deb alanglardi. Odamlarga o'xsharmikinman, kimligimni birov bilib qolmasmikim degan ilinjda o'z aksini ko'rishni istardi. O'zini ko'rgach esa juda qo'rqardi.

Gohida oynatosh yoki suv betida o'z aksini ko'rib, uni qo'lga tushgan narsa bilan urganini ham aytishadi.

Oradan ancha yillar o'tgach, olamga islom dini yoyildi. Qiziq ish ro'y berdi: alvasti endi sochlari yoyiq qiyofada emas, ro'mol o'rgan holda ko'rina boshladi. Ya'ni keyingi ming yillikda Alvastining Tangri taoloni taniganiga shohid bo'lamiz. U davr rivoyatlari uning Tangri va payg'ambari ismi aytilganida tiraqaylab qochganidan, xayoliy yaratilarning Olamlar Yaratuvchisiga bo'ysunganidan xabar beradi.

Yana aytishadiki, xotin kishiga erkak, erkak kishiga xotin bo'lib ko'rinarmish. Kun kechirish qiyinlashgan kezlarda Chotqol etaklarida bir ovchiga duch kelib, "senga xotin bo'lay" deb yolvorgan. "Qo'limdan ko'p narsa keladi, sira kamchilik ko'rmasdan yashaysan. Ammo shu shart bilanki, uxlayotganimda yuzimga qaramaysan". Ovchi rozi bo'lib, uni uyiga olib keladi. Haqiqatan ham, shundan keyin to'kis yashay boshlaydi. Alvasti xotin uyni saranjom-sarishta tutadi, ovqatlar pishirib, nonlar yopadi. Ammo bir kuni tunda ovchi shartni buzib, sham yorug'ida qarasa, xotin emas, alvasti ekan.

Alvasti o'z qiyofasida o'rmidan sakrab turib, sochlarini yulib-yulib ho'ng-ho'ng yig'laydi.

– Qarama, demaganmidim? Endi men nima qilaman?

Ovchi bolaligida alvastining jonini qanday olish kerakligini eshitib olgan ekan. Shuningdek, mehr-u muhabbatga zor yashab o'tgan xotinlar keyinchalik alvastiga aylanib ketishini ham bilarkan. Chap qo'ltig'i ostidan yuragini sug'urib olgach, alvasti jahannamga jo'naydi, deb hikoya qiladi Chotqol asotirlari.

Kishilar e'tiqodi ming yildan buyon alvastini tamug'ga, ya'ni do'zaxga yo'llab keladi. Mantiqan to'g'ri, ya'ni qilmish – qidirmish. Biroq

jamoaviy ong alvastiga nima uchun bu mudhish yumushni yuklab qo'yganiga lol qolasiz.

Kishilar to'p bo'lib yashagan u zamonlarda urushlar, ocharchiliklar, qulliklar, majruhlik yoki o'lim xavfi emas, aynan aqldan ozish hamda xotinlarning tug'mas bo'lib qolishi eng qo'rqinchli sanalgani-chi? Tog'dan tushib kelgan yo'lbars yoki dashtdan kelib qolgan bo'ri galasi kimnidir g'ajib ketgani, kimdir otdan yo toshdan yiqilib o'lgani, yana kimlardir turli kasallig-u dardlar tufayli jon taslim qilgani qo'rqinchli emas, balki hayotning odatiy falokatlar deb qaralsa, kishilarning o'zlari yaratib olgan xayoliy maxluqlar onga hamda avlodga zug'um qilishi ajab.

Shunday bo'lsa-da, yillar o'ta-o'ta, qadimgi turkiylar va chinlarning shafqatsiz urushlariga guvoh bo'lgan u yaratiq chivindan zaif holga keldi. Alvasti benihoya ayanchli, umrini yashab bo'lgan kekxa, ilviragan kampir qiyofasida qolib ketaverdi. Dunyoga islom dini yoyilgach, o'zicha ro'mol o'rab, shahodat keltirgan u mavjudotning yangi asrlar bag'rida boshqa evrilishi sodir bo'lmadi, uning so'nggi zuhuroti yo tabiat to'laqonli hukm yuritadigan ovloq qishloqlar bag'rida, yo olis o'tmishda qolib ketdi. Tobora kamroq ko'rinish bera boshladi va nihoyat, yosh bolalarni qo'rqitadigan, yolg'iz kishilargagina duch kelib, beo'xshovligi bilan aqldan ozdiradigan keraksiz yaratiqqa aylanib ketdi.

### *Qorabosti*

Bunisi yana-da g'aroyib. Uyquda yotgan kishilarni bildirmay kelib bosadigan, jonini qiynaydigan ko'zga ko'rinmas xayolot u.

– Uyqu oldidan bet-qo'lingni yuvib, kalima qaytarib yotmasang, qorabosti keladi.

– Notoza yerlardan yurma, iflos joyni bosma, chap tomoningga yoki chalganchasiga uxlab qolma!

Qorabosti hamma yerda bor. U yaratiq o'zbek qishloqlaridagina emas, qirg'iz ovullari-yu qozoq o'tovlari, tatar, yoqut, saxa, tuva yerlarida ham kezadi. Muzliklar orasidan o'tib keladi. Sovuq izillatgan tunlarda cho'g' miltiragan qo'nalgalarga kirib bir qur razm soladi. Qilar

ishi ne ekanini aytdik: kimki kalima qaytarmay uyquga yotsa, ustiga kelib o'tirib oladi. U kishi nafas olishga qiynaladi, qorabosti kelib bosganini bilsa-da, o'zini sira o'nglab ololmaydi.

Nihoyat, u asta-sekin yig'ishtirilib qaygadir yo'qolgach, ko'zlarini katta-katta ochib, chuqur-chuqur nafas olib yonidagini uyg'otadi:

– Hoy, muzday suv ber menga.

– Ha, nima bo'ldi?

– Bir nima kelib bosdi meni.

– Qorabostidir-da. O'zingdan ko'r, aytilganlarni qilmabsan.

Go'yo bunday ishlar har kuni ro'y beradiganday. Misol uchun, yosh bolasiga aytadiki, tashqariga suyak tashlab qo'y, kuchuk kelib yeb ketsin. Birozdan so'ng haqiqatan ham shunday bo'lgach, "Ha-a, yaxshi" deb qo'yishadi. Qorabosti haqida ham shunday gapirishadi. Go'yo u har yerda hozir-u nozir, qishloqning kunda-shundasiday.

Bu ishni izohlashga mantiq o'zida. Ba'zi uluslarda uni Qora-qura deb atashadi. Yana bir qiyofasini esa Xibiliq deydilar. Barcha turkiy elatlarni qo'yavering, axir, birgina o'zbek elidagi qishloqlar sanog'i o'n mingdan oshiq emasmi? Tipratikan yemish izlab ovga chiqadi, o'tlarni qimirlatib timirskilanib yuradi. Katakda tovuqlar mudraydi. Ha, tun yoyilib, tog'-u toshlar, dasht-u dalalarga yaslandi. Ko'kka Oymomo chiqdi. Shular bilan bir qatorda, soyalar orasida, jar-o'ngirlar bag'rida kishilar xayolotining mahsuli bo'lmish o'sha yaratiq ham daydib kezinayotganga o'xshaydi. O'h-ho', o'n mingdan ziyod qishloq, hazilakam gapmi? Tosh-tuproq yo'llarda, tunda sokin oqayotgan suvlar bag'rida, qamish-u qo'g'alar orasida ular bir necha ming yildan buyon yashab kelishmoqda. Olamlar Parvardigori har jon egasiga o'z rizqini berdi hamda vazifa yukladi. Ajab, ularning rizqi ne, vazifasi nima?

### *Oziqchi*

Bu mavjudot, taxminimcha, bundan ikki ming yil avval chin tarixchilari "Dovon" deb atagan so'lim Farg'onaning men tug'ilib o'sgan hududlarida uchrasa kerak, deb o'ylab yursam,



olim Shomirza Turdimov “U Samarqandning Qo’shtamg’alisida ham bor, faqat oti Oziqchi emas, Aziqchi” deb aytdi. Yana, bolqorlarda ham bor bo’lib, uni Azitqi yoki Aziqti deb nomlashgan ekan.

“Ozmoq, azmoq” – juda qadimgi so’zlar.

Qo’shtamg’ali esa juda eski urug’, ikki ming yil avval ham bor edi. Turkiy va islomiy manbalarda qitoy, xitoy, qoraxitoy deb atalgan. U uchta katta qo’lga bo’lingan: kanjig’ali, qo’shtamg’ali va o’tarchi. Ajdodlarimiz oy havolagan tunda ot minib, dashtdan keladigan shoqolni poylab aylanib yurgan mahallarda qamishlar-u do’nglar ortida Oziqchi ham qora ko’zlarini yiltillatib, otliqlarni kuzatib o’tirgan bo’lsa-chi?

– Yuqoridan keladigan dasht yo’lida Oziqchi bor!

Yuqoridan kelaverishdagi dasht yo’lida nimalar borligini bolalar yaxshi bilishadi. Yo’lning bir cheti qumloq, ustida kurmak, salom-alik, semizo’t ungan, orasidan kichkina tiniq jilg’a oqib o’tadi. Tubida oq, targ’il, qora tusli toshchalari ko’rinib turadi. Narisida chuqur zovur, chetida yantoq, quyirog’ida qamish-u qo’g’a o’sgan. U yer ninachi-yu chigirtkalar makoni. Yana juda tez chopadigan qizilbosh chumolilar, kulrang kaltakesaklar hamda yosh bir ilon ham bor.

Oy nurlari elanib, olis-olislargacha yoyilgan siyrak yog’du tumani hosil qiladi. Boyqush sharpasiz uchib o’tadi, atrof turfa hasharot saslariga ko’miladi. Benihoya ko’p tovush paydo bo’ladi, mana shu tungi hayot sasleri aro daydiydi Oziqchi.

Hovlilarda, o’choqda kechki taom pishmoqda. O’tin chirsillaydi. Bolalar Oziqchi hikoyasini qo’rquvdan ko’zlari katta-katta bo’lib eshitishadi.

Oziqchining yuzi yo’q. Uzun qora to’n kiyib, teskari qarab turadi. Boraversangiz, tanish kimgadir o’xshaydi. “Falonchimikin” deb yaqin borganingizda sizga qaraydi. O’sha qarashida aqlingizdan ozasiz.

Uzun qora to’n, eski belbog’... Ko’rinishi insonga o’xshasa, istiqomati qayda, ne yeb, ne ichadi? Bola-chaqasi, uyi-joyi qayda?

Gohida qishloqqa to’qaydan shoqol tushib

keladi, shunday kezlarda yigit-yalang qishloq tegrasini bir qur aylanib chiqishadi. O’shalardan biri yuzlari muzlab qaytib keladi:

– Ha, nima bo’ldi?

– Do’ng ortida bir nima bor, shekilli...

– Oziqchi bo’lmasin?

Ha, elning yigitlari qurollarini olib shoqol iziga tushishdi. Oziqchi puchmoqda qo’rqapisa biqinib o’tirganini tasavvur qilsa bo’ladi. Barchani vahimaga soladigan u yaratiqqa ne bo’ldi? Kishilar to’planib, xatarga qarshi chiqishdi. Oziqchiga ish qoldimi? Uning qilar ishi tamomila boshqa, el-yurt tinch mahallarda kishilarni qo’rqitishi kerak.

Xayol yanada olisga yetaklaydi. Tiyiqsiz tasavvur Oziqchini jonlantiradi. Tunda tevarak g’alati bir tarzda tinchib ketadi. Ekinlar, daraxtlar orasida shitirlar eshitiladi. U – tunda yemish izlab chiqqan mushuk yo ilon sasi. O’sha makonlarda, qishloq chetida qarovsiz chakalaklar orasida, kunduzi bolalar suron ko’tarib o’ynagan, oqshom chog’i kimsasiz bo’lib qolgan hududlarni Oziqchi kezadi.

– Men shu el tufayli borman, – deydi u.

– Meni odamlar o’zlari atay yaratib olishgan.

– Qilar ishim odamlarni qo’rqitish, xolos.

Opketib yeb qo’yadi, deyishlari yolg’on. O’t yoqishni bilmasam, odamlar kabi uy-joyim bo’lmasa... Qurigan og’ochlar-u butazorlar orasida kezaman, xolos. Qishlarda sovg’otaman, bahor yomg’irlarida shalabbo bo’laman, yozda sa’va iniga kirib o’tiraman...

Men qo’rquv hosil qilaman.

Ba’zi o’smirlar kap-katta er yetilishsa ham qo’rqishadi. Shunda suyunib, hayotimdan rozi bo’laman. Axir, el boshiga ne kunlar kelmadi. Chopqinlar, qirg’inlar, yo’qsulliklar-u qashshoqliklar orasidan o’ta keldi bu el. Yaxshi kunida-yu yomon kunida doimo yonidaman. Yonida bo’lmasam ham qayga borardim? Mabodo shuncha kishi qishloqni tashlab o’zga yoqlarga ko’chib ketishsa, bir o’zim qolarmidim? Yo ortidan ergashar, yo yo’q bo’lib ketarmidim?

Rivoyatlarga ko’ra, u benihoya nodon, chumchuqnidek miyasida farosatdan asar ham yo’q, tunda duch kelsangiz-u qo’rqmasangiz,

aqlsizligi bois bo'lmag'ur bir tarzda ishshayib turganini ko'rasiz.

- Tangring kim?
- Bor, bor!
- Uying bormi?
- Yo'q, yo'q!
- Nima yeysan...
- Ho-ho!

Bular oddiy savollar, murakkabroqlariga o'tganingizda bunga yanada amin bo'lasiz:

- Yaralishingdan murod ne?

Javob bera olish uchun u ancha-muncha so'z bilishi kerak. Har holda, kishilar bilan turli mavzularda suhbatlashib o'tirgan bilimdon Oziqchini biron ko'rmagan chiqar?

Boshi uzib olingan chumchuqni qo'lida tutib ishshayadi.

– Shuni yesam, qornim to'yadi. Keyin biron o'ngirga kirib, maza qilib uxlayman.

- Qilar ishing faqat shumi?
- Bir hayvon bundan ortiq nima qilsin?
- Ayt-chi, kishilarni nega qo'rqitasan?
- Bilmadim. O'zlari qo'rqishadi... Men o'z

kunini zo'rg'a ko'rib yurgan bir yaratiq bo'lsam... Nechun bunday taqdir ila yaralganimni bilmayman. Gohida yerda o'rmalayotgan shilliqqurtga, toshbaqaga, yemish izlab chiqqan tipratikanga qarab o'ylayman: shular ne uchun yaratilgan bo'lsa, men ham o'shanday yaralдим. Siz qaldirg'ochga, musichaga, o'rgimchakka, chumoliga ma'ni berdingiz, odam bolalari ularni o'ldirmas bo'lishdi. Ilonni yaramas dedingiz – boshini yanchar bo'lishdi. Menga ne qiymat berasizki, yo aziz, yo xor bo'lay?

Ha, el unga qadr-qiymat bermadi.

Kishilar to'planib duolar qilinadigan, Tangri taolodan rizqlar so'raladigan marosimlarga yaqin yo'latmadi. O'z hududlarining qarovsiz maskanlarini, yovvoyi tabiat gurkiragan, kishilar boravermaydigan joylarni makon qilib berdi. Hatto dasturxon uvoqlarini qurt-u qushga, kuchuk-mushukka ilindi-yu, xunuk, qo'rqinchli u yaratiqqa sarqit ham bermadi. Uni benihoya bo'lmag'ur, eng bema'ni hayvondan battar qilib qo'ydi. Bir necha ming yildan buyon xalq yon-verida yashab kelayotgan shu xayol mahsuli

yaratilishidan ko'zlangan maqsadga mos yashab kelsa-da, ajr-u savobini ololmadi. Bir kuchukchalik, bir mushukchalik bo'lolmadi.

– Aslida, men to'p kishilardan qo'rqaman. Biron Tangri ismini aytsa, tiraqaylab qochaman...

– Ey insonlar, meni shunday yaratib oldingiz. Hukmingizga bo'ysundim, siz yashaydigan maskanlardan chetda, qamish-u qo'g'alar orasida kun ko'rib kelmoqdaman. Menga biron qadr-u qiymat berarmikinsiz?

Shunday kezinadi u oy shu'lasini va soyalar aro.

Qachonlardir bu hududlarga yov bostirib kelgan, deydilar. El sodda, o'roq-ketmonidan boshqa bir nimasi yo'q. Hukmdor uquvsiz, yengilishdan qo'rqib qochib ketgan, sodda yov qarshisida el qolavergan. Dushman yosh-u qarini baravar qilichdan o'tkazgan. O'sha mahal kech kuz edi, deydilar. Son-sanoqsiz qurbonlar, kuli ko'kka sovurilgan qishloq aro yolg'iz Oziqchi tentirarmish. Ho'ng-ho'ng yig'larmish

– Endi men nima qilaman, – dermish.

– Borim ham, yo'g'im ham shu el edi-ku, endi qayga boraman? – dermish.

Bu yaratiq ham minglab yillar davomida o'zgarmadi. Dunyoga so'nggi din tushirilganidan so'ng esa, salom nimaligini bilib oldi. Tangri dini olamdagi barcha yaratiqqlarga "Har bir jon o'limni totguvchidir" deb xabar berdi. Yer yuzida shuncha yildan beri yashab yurgan bu maxluq shundan so'ng hayot va mamot haqida o'ylarga tolganiga ishonish qiyin, biroq yillar o'tavergach va saodatmand inson bolalari xoh qiyin, xoh oson umr kechirib, vujudlarini yerda qoldirib, o'zlari ko'kka uchganini ko'ra-ko'ra, "Yozug'im toabad shu qora qo'ng'ir zamin uzra yashab, tuz-tuproqqa qo'shilib ketishmi?" deb tushkunlikka tushgan bo'lsa, ne ajab?

Nelarni o'yidan o'tkazgani noayon. Chunki u – yer yuzining bir chumolichalik bo'lolmagan yaratig'i, sho'rlik maxluqdir.

\* \* \*

Oziqchining yana bir qiyofasi haqida ham aytib o'tish joiz. Chunki u avvalgisidan ham g'aroyibroq.

Bunisi ko'zga sira ko'rinmaydi, so'zlamaydi, shaffof havo bilan birga kezinib yuradi.

Undan o'zga barcha yaratiq moddiy ko'rinishga ega hamda qilar ishi ozmi-ko'pmi mantiqqa mos. Oziqchining bu toifasining qilmishlarini esa biror-bir mantiq bilan izohlab bo'lmaydi.

"Avtobusda shahardan uyga qaytar edim, – deb hikoya qiladi bir kishi. – Soydan o'tganimizdami yo o'tmasimizdanmi... Kuppakunduz kuni, ulov to'la odam, biri uyqusirab, biri yonidagi sherigi bilan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashib ketayotgan edi. Oziqchi o'sha mahal mening aqlimni ozdirdi.

Ozdirishi qanaqa bo'lar ekan?

Shaharga kelayotganimda o'ng qo'lda katta bog', chaman gullagan edi. Qaytishda yo'lni tomosha qilib borarkanman, bir qarasam, o'ng tarafda yana o'sha olmozor turibdi.

"Iya, bog' bu tomonga o'tib qolibdimi?" deb o'ylayman-u, nimagadir xavotir olmayman. Hayot ko'zimga ajoyib ko'rina boshladi. Havo benihoya yengillashib, nafas olgan sayin yayrayman. Dov-daraxt qanday chiroyli gullabdi! Yana bir bekatdan keyin tushib qolishim kerak edi, tushish qayda deng? Ketaversam-ketaversam... Oldimda odamlar o'tirishibdi, ular ko'zimga nihoyatda keraksiz mayda-chuydalarni gaplashishayotganday tuyuladi. Gaplashsa gaplashavermaydimi, menga nima? Go'yo yoqimli, mayin bir havo meni o'z bag'riga olib, bu yerdan yuqoriga ko'tarib qo'yganday, ularga o'zga joydan, yuksakdan qarayotgandayman. Qulog'imda emas, miyamning ichida nihoyatda yengil musiqa chalina boshladi, umrim bino bo'lib bunaqa ajoyib musiqani eshitmaganman. Orasida childirma sadosi, tanbur navosiyam bor. Musiqa meni yanada yengillashtirganday, hozir bulutlarga qarab uchib ketadigandayman.

"Qarasang-chi, hayot qanday ajoyib! Biz bilan yuraqol, orom-u lazzat nimaligini bil. Bir kun kelib yorni yordan, do'stni do'stdan ayiradigan ajal yetib kelmaguncha mazza qilib yashasang-chi" deb qutqu soladi u musiqa.

Uning qanotida qancha vaqt uchganimni bilmayman, bir mahal u tuyg'ular ketib, musiqa tinib, meni yerga, kishilar orasiga olib tushdi. Odamlarni shunchalar yaqindan ko'ryapmankil!

Izlar, izlar... Birining qo'li tilinib-tilinib ketibdi, har holda, kechagina makkajo'xori o'rgan bo'lsa kerak. Yana biri ketmon chopgan, kafti qavarib chiqibdi, ostiga oqarib suv yig'ilibdi. Qo'llar, yuzlar bir nimalardan tushkun-tushkun hikoya qilardi. Oldda ikki yosh qizaloq, ularning kaftchalari ham qadoq. Suv tashishgan, shekilli, paqir sim tutqichining izlari qolibdi...

Ularga qarab o'z-o'zimdanda ho'ng-ho'ng yig'layman, deng. Ko'zimdan yoshim duvillab oqib ketyapti. E voh! Bu sho'rlıklar hayotga kelib nima ko'rishdi? Qarang, o'z manzillariga borishmoqda-yu, yana tirikchilik tashvishlaridan gurunglashishmoqda. Anavi ikki kishi bolalik onlaridan so'zlashib borishayotir. Bechoralar, yashab o'tilgan umrning eng sha'n-shukuhli, ajoyib davrini bolaligi deb o'ylashgani, g'am-tashvish nimaligi bilinmagan o'sha bir necha yilni hali-hanuzgacha eslab yurishgani-chi? Tobora o'sib-ulg'aygan zehn, hayot lazzati-yu oromi nimaligini idrok etayotgan ong, mehr-u muhabbat degan benihoya ulkan qadr-qimmat... Axir siz bu yorug' olamda eng shirin, eng chiroyli hayot kechirishga arzimaysizmi? Inson umri qanchalar bebaho, qarang, u qanaqa maydachuyda ishlarga sarflanib ketmoqda?

Ey mening sodda, ishonuvchan elim, degim kelardi.

Jonim senga qurbon bo'lsin, kimlar seni bu holga tushirdi? Xonlar taxtiga loyiq ko'rkli el eding-ku, seni bunchalar talagan, yer bilan bitta qilib yanchgan kim? Sen to'yga deb yig'ib-terib, qon yutib ter to'kar ekansan, shu ozgina rizqingni ham qiyib, yeb-semirgan, bu ham yetmaganday, ustingdan mazaxlab kulgan kim?

Esini taniganidan buyon qora mehnatdan boshi chiqmagan, qo'llari tilingan, yuzlari quyosh-u shamollarda qoraygan shu kishilar jonimga shunchalar aziz tuyulardiki, barini quchoqlab bag'rimga bosgim, bisotimdagi eng shirin so'zlarimni aytgim kelib, beshbattar yig'lar edim.

Shundan so'ng qancha vaqt o'tdi, bilmayman. Ongimni qoplab turgan u tuman asta-sekin yig'ishtirilayotganini, tevarak oddiylashayotganini, hushim o'zimga

qaytayotganini sezdim. Atrof tussiz bo'lib qoldi, hislar g'oyib bo'ldi. Un olishim kerakligi esimga tushdi, yo'lda do'konga bosh suqib, bir qop un olaman deb niyat qilgan edim. Kishilar ne ro'y berganini bilishmas, hanuz o'sha-o'sha, qovog'i soliq haydovchi bo'yniga ro'mol tashlab olib, o'z xayollari bilan avtobusni boshqarib borardi.

– Kapaqishloq! Kapaqishloqda kim tushadi?

– Men...

Tushib, tut soyasiga o'tdim. Daladan issiq hovur jimirlab ko'tarilar, yuz-ko'ziga ro'mol o'rab olgan uch-to'rtta xotin egilib chopiq qilardi.

Soyada sal o'zimga kelgach... bu ishni Oziqchi qilganini anglab qoldim.

E tavba! Ongni shunaqa o'zgartirib qo'yar ekan-da? Hozirgiga yuragimni qoplab kelgan qayg'u shunchalar haqqoniy ediki, esimda aniq-tiniq turardi. Qaytib duch kelib qolmasin, ko'zga ko'rinmas qanotini boshim uzra yoymasin deya, kalima qaytara-qaytara o'z yo'limga ketdim...

Oziqchi hikoyasi shundan iborat. Yana kimgadir ro'para bo'lgan, kimnidir chalg'itgan, ko'ziga dunyoni boshqacha ko'rsatgan bo'lsa bordir. Shundan buyon necha yil o'tdi, qaytib duch kelmadi. Duch kelsa ham... nima o'zgarardi, bor-yo'g'i ongimmi? Hayotni boshqacha ko'rsatadigan u Oziqchi o'sha ketganicha badar ketgan bo'lsa, ehtimol.

Goho hayiqaman ham. Jilvalariga mahliyo bo'lib ketaverganimda-chi? Qay bir tarzda shuurimga surilib-bostirib kirib, keyin yig'ishtirilib chiqib ketganiga shukur. Chiqmaganida-chi? O'sha holimda qolib ketganimda-chi?

Bilmadim. Savollarim mo'l mening. Biroq ularni tilimga keltirgani cho'chiyman. Cho'chishdan ham ko'ra, ongimda bino qilganlari bor-yo'g'i xayol-ku, hayot butunlay boshqa, necha yillardan beri shunday davom etmoqda, kishilar tug'ilmoqda, o'sib-unib, oila-turmush dengiziga sho'ng'ishmoqda... kimlardir u dengizdan chiqolmay cho'kib ketmoqda... chiqa olganlar esa yoshini yashab, oshini oshab, hayot degan sohildan mamot degan qirg'oqqa eson-omon yetib olgani uchun shukur qilib dunyodan ko'z yumishmoqda. Oziqchi esa, o'zigagina ma'lum

afsuni ila bir nimalarni ko'rsatib, qaylardidir o'sha holicha kezinib yurgan bo'lsa bordir...

## Yuho

Samarqandlik olim Erkin Musurmonov o'z tadqiqotlarida elimiz bag'rida yashab kelayotgan yana bir mavjudot – Yuhodan xabar beradi. Unga ko'ra Yuho – ajdarhoga aylanmagan ulkan ilondir.

U chiroyli qizga aylanib, dastlab uchragan erkakka erga tegadi va asta-sekin uning qonini so'rib oladi, oqibatda quvvatdan qolgan er vafot etadi.

Yarim tunda Yuho chanqog'ini qondirish uchun daryoga sudralib borib suv ichgan, shu sababli uni fosh etish uchun tuzli taomlar yedirishgan. Kindikning va qo'ltiq chuqurchasining bo'lmasligi Yuhoning o'ziga xos belgilari sanalgan. Uni faqat olovda yoqib o'ldirish, kulidan ayrim kasalliklarni tuzatishda foydalanish mumkin, deb o'ylashgan.

Xorazm elida Yuhoni go'zal qizga aylanuvchi suv mavjudoti sifatida talqin qilishgan. Yuho erga tegayotganida bo'lg'usi juftiga ancha-muncha shart qo'ygan, masalan, soch tarayotganida qaramaslik (chunki boshini qo'lga olganini ko'rib qolishi mumkin); yelkasini silamaslik (odam terisi o'rnida ilon terisi borligini bilib qolishi mumkin). Uni suv yo'q joydagina o'ldirsa bo'ladi, agar vaqtida yo'q qilinmasa, Yuho erini yeb qo'yadi.

Ya'ni ba'zi xayoliy yaratilqlar farosatsizroq erkaklarga xotin bo'lib olishni orzulashi xalqona rivoyatlardan o'rin olgani ajab. Kim bilsin, fe'li nobop ayrim xotinlar nega o'sha yaratilqlar nomi bilan atalar ekan? Abdurahmon mo'ylov degan barzangi bir kishi bor edi, xotinini "Alvasti" deb chaqirardi, umrining oxirigacha shunday o'tdi. Nima bo'lganida ham, rivoyatlarning aynan mana shu jihatida haqqoniy hayot uchqunlari chaq nab turadi. Yuhoning yana bir qiyofasi suv parisidir, biroq u yarmi baliq, yarmi odam shaklidagi maxluqdan farq qiladi, u – yosh yigitlarni maftunkor ovozi bilan chorlab, suvga cho'ktirib yuboradigan chiroyli qizdir.

Shu o'rinda kuyinchak singil hikoyatini keltirib o'tishning fursati. Chunki bu voqea aynan Yuhoga aloqador.



### *Kuyinchak singil hikoyati*

Xorazm elida bir oila yashardi. Vaqt-soati kelib ota-ona dunyodan o'tib ketgach, ulardan bir qancha zuryod qoldi.

Ular uch og'a-uni, uch singil ekanlar. Shular orasida bir singil o'zgacha emish. Boshqalari o'z holicha, mehirsizroq bo'lib, o'sha singil hammaga mehribon ekan. Vaqt-soati yetib, akalari ro'zg'or qilishibdi, singil ham bir odamga erga tegibdi. O'rtancha aka bir qizga ko'ngil qo'yib uylanibdi, biroq u qiz Yuho bo'lib chiqibdi.

Qosh-qarog'i qop-qora, ko'zi ola, beti sutday oq, qora sochi beliga tushadigan ajoyib nozanin emish. Aka unga shunchalar mahliyo bo'libdiki, hamma narsani esdan chiqarib yuboribdi, hech nimaga qaramay qo'yibdi.

Bir kuni singil og'asidan xabar olgani kelib qarasa, og'a Yuhoning sochlarini tarab o'tirgan emish.

Buni ko'rib singilning ko'zlaridan yoshi duvillab to'kilib, Yuhoga debdi:

– Hoy sen alvasti! Bek og'am bor edi, uni nima qilding?

– Hoy qoshi-ko'zi yomon megajin, alp og'ajonimni kimga aylantirib qo'yding?

– Elga bosh bo'ladigan, yurt so'raydigan xon og'am, xoqon og'am bor edi, oldingdagi bu kishi kim?

– Shoh og'am, sulton og'am qani mening?

Og'a yelkasini qisib javdirab turarmish, xolos.

Shunda dovyurak singil aytibdi:

“Otajonimning yodgori og'ajonim! Bu alvasti sizning aql-u hushingizni o'g'irlab olibdi. Butun sulolamizni yer bilan bitta qilibdi. Aql-hushingizni yig'ing! Xotin yo'lda, farzand belda, jigarlaringizni, elingizni qaydan topasiz?”

Shunday deb devorda osig'liq qilichni olib, bir urishda Yuhoning boshini tanidan judo qilibdi.

Yuho esa kesilgan boshini qo'ltig'iga qisib “Hah sanimi” deb javrana-javrana daryoga qarab chopib ketibdi...

Kim bilsin... Tuproqdan yaralgan odam bolasini suvga g'arq qiladigan, majoziy ma'nosiga qarasangiz, hali aqli kirmagan bo'z yigitchalarni nodonlik ummoniga g'arq qilib yuboradigan u

nozanin endilikda daryo bo'yidagi qishloqlarning kishilari uzoq qish kechalarida bolalarga so'ylab beradigan to'qima rivoyatlardagina ahyon-ahyonda paydo bo'ladi, xolos.

### *Temirtirnoq*

Bu jonzot O'sh hamda Andijonning tog'li hududlarida uchraydi. Rum diyorining Bigadich tog'larida Temirqiynoq degan mavjudot yashashini aytadilar, u yana bir vahimali yaratiq – Tepako'zning singlisi emish. Markaziy Osiyoda uni erkak kishi deb bilishadi. Tanasi temir bilan qoplangan, suvdan benihoya qo'rqadigan u maxluqning yashash joyi tog'lardagi kichik g'orlar ekan.

Kimligini bilib olish uchun unga pichoq uchida bir bo'lak go'sht uzatish kerak. Tabiatida hayvonlik borligi uchun darhol chang soladi. Zotan, kishilar oldiga uni ochlik yetaklab kelmadimi? Chang solganida timog'i pichoq damiga tegib, temir tinalganday sas yo jarang chiqadi.

U surbet ko'zlarini yiltillatib, tap tortmay yolg'on gapiraveradi. Tasavvur qiling, bola-chaqa davrasida, uyda o'tiribsiz. Kimdir chaqirib keldi. Temirtirnoq – yolg'onchi, har qanday yolg'onni kiprik qoqmay so'zlashi, kimningdir qiyofasiga kirib kelishi ham mumkin.

– Falonchi-i! Ho'-o' Falonchi!

– Ho'-o'!

To'ningizni yelkaga tashlab, chaqirganning istiqboliga chiqdingiz. Qarasangiz, o'z do'stingiz ekan. Biroq oy shu'lasida ko'zi boshqacha yiltirayapti. Gapiryapti-yu, so'zlarimga ishoniyaptimi-yo'qmi deb qing'ayib sinchkov nazar ham solyapti.

– Shu, juda zarur bo'lib qoldi, do'stim.

Qo'ylaringdan bittasini menga bersang...

– Shu mahalda qo'y nimaga zaril bo'lib qoldi?

– Onamning tobi qochdi, davolashga pul kerak. Sotib, dori-darmon olsam degandim.

– Onangni boya ko'rdim, paqirda suv tashib yuruvdi-ku?

– Kasal ekan-u, hech kimga bildirmay yurarkan. Boya chaqirib “Bolam, shunaqa-shunaqa dardim bor, do'xtirga ko'rsatmasang bo'lmaydi”, deb yig'ladi...

Shunaqa... Gapiradi-qaraydi. Gapiradi-razm soladi...

Shundan so'ng "Qorning ham ochdir, kel, mana buni yeb olaqol" deb pichoq uchida pishgan et bo'lagini uzatasiz. Temirtirnoq et qarshisida o'zini tutolmaydi, qanchalar aqlli bo'lmasin, changal soladi va...

– Jarang-g!!!

– La havla valaquvata! Og'zingga pichoq, ketingga qalampir!

Taxminan mana shunday.

Bironta afsonaviy jonzot o'zining fosh bo'lishini yoqtirmaydi. Temirtirnoq ham hiylasi fosh bo'lgach jazavaga tushadi, titrab-qaqshaydi, ovozining boricha baqirib so'kinib, qochib ketadi. Uni odamlardan so'kinishi farqlab turadi, juda bo'lmag'ur so'zlar bilan, og'zi tinmasdan so'kinadi, deydilar. Tez yuguradi, sira charchamaydi. Temirtirnoqni o'ldirishning iloji yo'q, chunki butun badani jez bilan qoplangan.

Bu esa uning yaratilish tarixi sari yetaklaydi.

Tangritog' etaklaridagi turkiylar qush-hayvon ovlab hayot kechirishar edi.

Temir endigina kashf etilgan, kishilar uning olovda erishini bilib olishib, tog' etagidagi zilziladan so'ng hosil bo'lgan katta yoriqdan temirtoshlarni tashib kelishar, olovda eritib, turli asbob-anjomlar yasashardi. Ilk qilich-qalqon, nayza, o'q, sovut o'sha mahalda yasaldi.

Temirtirnoq taxminan o'sha kezlar paydo bo'lgan bo'lsa ajabmas. Oddiy kishilar tasavvuri mabodo Ko'k Tangrisi temirniki yaratibdi, usti temir bilan qoplangan yana nimanidir yaratgandir deya, tog' o'ngirlarida sanqib yuradigan, kishilarga ziyon-zahmat keltiradigan, odamga o'xshash, biroq xom et yeydigan bir maxluqni o'ylab topib, o'sha maskanlarga "joylab" qo'ygani ehtimolga yaqin.

Biroq Tangri bergan bir ne'matning ziddi o'laroq yaratilgan u yaratiq ham zamonlar osha, garchi shu kunlarga qadar yashab kelayotgan bo'lsa-da, o'zining qo'rqinchliligini tugal yo'qotib bo'lgan.

Aytishlaricha, Oloy tizmalari etagida hanuz yashab kelarmish. Chunki xalq tasavvuri uni yo'qlikka jo'natmadi. Shunchaki, yaratishga

yaratdi-yu, unutilib qo'yaqoldi. Shunday bo'lsa-da, ajali yetgan chol kabi tinka-madori qurib, qarovsiz yovvoyi butalar o'sgan yonbag'irlarda tunda qush poloponlarini yo hayvon bolalarini yeb tirikchilik qilib yurgani ehtimol.

Aytadilarki, Aravon tog'lariga yaqin hududlarida yashaydigan bir tabib uni ko'ribdi. Changalzor orasida bo'shashib-zaiflashib, o'layotgan ekan.

Tirnoqlari sinib ketgan emish. Yuzini ajin qoplagan, qaddi bukik, zo'rg'a nafas olarmish. Vujudini qoplab turadigan temirni mustahkam tutib turish uchun u mo'l-ko'l et yeyishi kerak. Hozir esa, ko'p yillar och yuravergani uchun kuchdan qolgan, sovuti titilib, tullagan tovuqday bo'lib qolganmish.

Yoshi besh ming yillik yaratiqning o'limini ko'rish ayanchli bo'libdi.

– Meni o'ldiraqol, – deb shivirlabdi Temirtirnoq ko'zlari olayib, tirnoqlarini yashirishga ham holi kelmay. – Hayotdan charchadim. Yer betida menga rizq qolmadi. O'ldiraqol.

U kishining Temirtirnoqqa rahmi kelibdi.

– Ayt-chi, kalima keltirib musulmon bo'lganmisan?

– Yo'q. Kalima nima?

– O'ldiraman-u, ammo bir shartim bor, – debdi u kishi. – Xudo joningni olmasidan avval kalima keltirasan.

Temirtirnoq rozi bo'lib kalima qaytargach, u kishi qilichini qinidan chiqarib, hayvonning zanglab, uvalanib ketgan ko'ksiga uribdi.

Aravon tog'larida, ba'zi butalar ostida hozir ham temir zangiga o'xshash tuproq ko'rinib qoladi. Aytadilarki, o'sha yerda yana bir Temirtirnoq kalima qaytarib o'lgan deydilar. U yaratiqni ko'pdan beri birov ko'rmadi. O'tgan asrlarning g'alati xayolotlariga qo'shilib o'tmishda qolib kelgan bo'lsa ajabmas.

\* \* \*

Qishloq o'ramlarida bulardan tashqari yana bir qancha maxluqlar bor, ularni o'sha hududlarning odamlari yaxshi bilishadi. Shoir Rahimjon Rahmat qilich ko'targan qora kishi

haqida aytib bergan edi. U kim? Nega qilich ko'tarib yuradi? Nega dasht aro kezgan? Ismi-chi, ne uning?

Yo'l ustida, buzilib ketgan eski machit ichida sham yoqib bazm-u jamshid qilib o'tiradigan begona kishilar, tashlandiq masjidida yolg'iz yuradigan oq uloqcha-chi?

Yozuvchi Nurilla Chori Qashqadaryoda poda qaytgan mahal sigir yoki buzoq qaytmasa, tunda izlagani chiqilishini, biroq echki qaytmasa, izlanmasligini aytadi. U yerning kishilari tungi dasht kengliklarida kishilarga ziyon-zahmat yetkazuvchi oq echki borligiga ishonishadi.

Ha, har bir qishloqning o'z xayoliy fuqarolari bor. Ular o'sha qishloqdan nari ketishmaydi, o'ralashib yuraverishadi.

– Bizning madaniyatimizning katta qismi qishloqlardadir, – deydi Rahimjon Rahmat. – Madaniyatlarni qishloqlar hosil qiladi hamda saqlab beradi. Insonlar to'p-to'p yashaydigan, barcha bir-birini taniydigan va qaysidir ma'noda ruhan yaqin, qavm-u qarindoshday bo'lib ketgan kishilar o'z hududlarida olis yulduzlarga, poyonsiz kengliklarga, tabiat hodisalariga, mavsumlar almashishlariga qarab, tasavvuri quvvatlanib, xayoli uchqurlashib nelarni o'ylashmagan deysiz? Shaharlar esa texnologiyalar-u yangiliklar, g'oyib bo'layotgan o'tmish, suronli bugun va tushunarsiz kelajak bir yerda qorishib ketgan, kishilarni bir xillikka yetaklaydigan vaqt parchalaridir.

### *Mesh*

Buni menga yozuvchi Bahodir Qobul so'zlab berdi. Uning qishlog'i Baxmalning O'smatida, Turkqishloq deyдилar. O'smatning jar ko'chasi quyiga inib ketgan, qor endigina eriy boshlaganida sovuq tushib, oyoq ostida qisirlab sinar, qarshimizdagi ulug'vor Oyqor ustimizga bosguday bo'lib turardi.

– Bizning qishloqda Mesh bor, – dedi Bahodir Qobul. – Qilgan yomonliklari haddan oshib ketgan kishilar oldidan chiqib keladi.

Mesh – ikkita to'rt-besh yashar takaning terisi iylanib, teng qilib bichilib, ichki tarafi bir-biriga qaratib tikilgan idish. Shunda u qorni

katta, ikki qo'li, ikki oyog'i bor ulkan bir nimaga aylanadi. To'rt kishi to'rt tomonidan ko'tarsayam bo'ladi, qo'l-oyog'idan tortib sudrasayam bo'ladi. Yungi deyarli to'kilib bo'lgani va ichida hamisha suyuqlik borligi uchun namchil yiltirab turadi.

Qishloqning Do'smat degan tishdo'xtiri insofsiz kishi edi.

Barzangi, O'smat Ota mozori yonidagi, qishloqning choyxonasiga tutash, yovuq xonasida uzzukun o'tirib, kelgan-u ketganning tishini qarsillatib olib tashlayverardi. Xizmat haqi kayfiyatiga qarab o'zgarib turardi, odamlarni atay qiynab, ko'proq pul olganiniyam aytishardi. To'ng, qo'rs kishi edi, titila boshlagan oq xalati tagidan yengsiz paxtalik nimcha kiyib olar, uni "ichkicha" deb atashardi. Bolalari-yu xotini tugul, ota-enasiyam uning fe'lidan zir titrashar, achchig'ini keltirmaslikka urinishardi. Hayot shu ekan-da. Shu bir nechta sho'rlikning umri Do'smatning ko'ngliga qaray-qaray o'tib borardi. Qirq yoshidan keyin Do'smat tarvaqaylab, kattakon qorin solib yubordi, xirsdan baquvvat, pishqirib-lapanglab yurardi.

Ana shu Do'smat tishdo'xtirning qilg'iliqlari ortavergach, nihoyat, oldidan mesh chiqqan, deyдилar.

Do'smat Oyqortog' tarafdagi bir oshnasining uyida bazmi jamshid qilib o'tirganida, oy havolab Oyqorning qorlarini yop-yorug' qilgan kezda Jarko'chaga mesh chiqib keldi.

Mesh bo'lgani uchun sasi chiqmasdan, ohista harakatlanardi. Jarko'cha tuprog'ini to'zg'ita-to'zg'ita, o'zining beso'naqayligidan horib-charchagan kabi, shalop etib ko'cha o'rtasiga yotib oldi.

Mesh faqat oy yorug'ida kashta tiksa bo'ladigan tunlarda chiqib keladi. Tun qorong'isida yurmaydi.

Do'smat oshnasinikidagi bazmdan ko'ngli to'lib, Jarko'cha bo'ylab uyiga qaytayotgani kez ko'cha o'rtasida uni kutib yotgan mesh o'rnidan qo'zg'aldi.

Havoni ichiga bir tortgan edi, shishib odam bo'yi bo'ldi. Yana bir shishgan edi, ikki odam bo'yi bo'lib qoldi. Ikki yonida ikki qo'li osilib turar, oyog'i tuproq orasida edi. Boshi yo'q,

o'rnida ikki takaning bir-biriga chatishtirib tikilgan bo'yni likillardi. Bo'yniga pishiq chilvir bog'langan, uzun u chilvirning bir uchi ko'ksida, o'zini-o'zi qamchilayotgandek biltanglardi.

Do'smatning nazarida avvaliga soya harakatlenganday bo'ldi, so'ng tushunarsiz bir nima ko'ryapman, deb o'yladi. G'alati maxluq edi-da mesh. Gapiray desa, boshi yo'q, ko'ray desa, ko'zi yo'q, biroq oy yorug'ida harakatlanishi undan ham g'alati.

Do'smat, nihoyat, qarshisida nima turganini anglab, yuzi bir tarafga tortilayotganini his qilib, turgan joyida serrayib qoldi.

Mesh bo'yni ikki yonga ayrilib, Do'smatga yaqinlashgani sayin shishaverdi. Bir yog'ini arang ko'tarib shalop etib o'zini tashlardi, so'ng ikkinchi tomonini ko'tarib, u yog'i ham shaloplab tushardi.

Do'smat yomon kishilarga mesh ko'rinishini bolaligidanoq eshitgan, ichida suyuqliq bilqillagan, ustida sharpalar yiltiragan shu narsaning hozir og'zi ochilib, o'ziga kiyilib olishini ham bilardi. Bilardi-yu esi og'ib, tili kalimaga kelmay g'oldirab, joyidan jilolmay turardi.

Yo'q, mesh beso'naqay ko'ringani bilan tez harakatlandi. Zumda o'zini yig'ishtirib, yana-da shishdi. Endi ikki odam bo'yi bo'lib qoldi. Bilqillagan tanasi va g'odayib biltanglayotgan bo'yni ilon og'ziday ochilib, ikki yonga ayrildi, so'ng yuqoridan quyiga, Do'smatga qarab enkayib tushdi, ulkan meshqorni shaloplab, kiyilib olishga chog'lana boshladi.

Qani undan bir nima so'rab bo'lsa?

Ayni chog'da qishloqning xo'rozlaridan biri dunyoni uyg'otgudek bo'lib, cho'zib-cho'zib birinchi marta qichqirdi.

Shu qichqirishda mesh dovdirab, allaqachon og'iz-burni qiyshayib qolgan Do'smatning qarshisida ikki qo'li salanglab kichraydi. Xo'rozning ikkinchi qichqirishida yana-da kichraydi, uchinchisida kuchukday bo'lib qoldi-da, ko'cha tuprog'i uzra supurgi iziday cho'ziq izlar qoldirib, butalar orasiga kirmoqchi edi, yo'lidan toyib, bilqillaganicha jarlikka dumalab ketdi.

Do'smat hanuz o'sha joyida turardi. G'alati u yaratiq Do'smat xayolida nelarni hosil qildi?

Do'smat bir oyga, bir mesh dumalab ketgan tarafga qo'lini cho'zdi. Nimadir demoqchi edi, bo'g'zidan g'alati g'oldirash chiqdi. Keyin og'zi-burnini ushlab ko'rdi, bu – Do'smat ongining so'nggi uchquni edi.

Xo'roz uchinchi kez qichqirdi-ku! Jarko'cha, unga qo'shilib yuksakka o'rlab ketgan boshqa ko'chalar-u jarliklar usti saharning qo'rg'oshin yorug'i bilan to'ldi. Oyqor tog'i viqor-la o'shshayib turardi. Xonadonlarda chiroqlar yondi, kuchuklar egalari uyqudan turganiga shodlanib, uzun-qisqa hura ketishdi. Qishloq uyg'ondi.

– Do'smatning og'zi qiyshayib qolibdi!"

– "Nima bo'ldi" deb so'rashsa, qornini

ko'rsatib, boshini chayqarmish.

– Nima bo'пти o'zi?

– Tunda kelayotganida, oldidan mesh chiqibdi, boshqa nima ham bo'lardi.

– Ha-a... – deb bosh liqillatib qo'yishardi kishilar. – Lekin to'g'ri ish bo'пти. O'zi, allaqachon ko'rinishi kerak edi.

Mesh Do'smat ongida nimalarni o'zgartirgani noayon, biroq Do'smat tishdo'xtir degan shaxsiyat o'sha kuni tamom bo'ldi.

"Tamom bo'ldi" deb bir nima sarflana-sarflana tugaganiga aytiladi. Do'smat degan shaxs o'rnida og'zi qiyshiq, gapiga tushunib bo'lmaydigan, o'sha mesh dumalab ketgan jarlik yoniga borgisi kelaveradigan, o'sa-o'sa yuksakka intilgan teraklar ostida, na'mataklar tubida meshni izlaydigan, ko'rinishi Do'smat-u, o'zi sirayam Do'smat bo'lmagan bir kishi qoldi.

– Mabodo bir sabab bilan qishloq bu yerdan ko'chib ketsa, mesh nima qiladi? – deb so'radim Bahodirdan.

– Bir mahallar qishloq uch marotaba tag-tugi bilan ko'chirib yuborilgan. Otam bundan qirq yil burun qishloqqa qaytib, eski uy-joylarini yana tiklagan, – dedi Bahodir, ishonch bilan. – Odamlar ham, mesh ham Turkqishloqda qolaveradi, hech qayoqqa ketmaydi. Bu – Enamning gapi...



## Qora soya

Bunisi yanada g'aroyib. Katta soyalar ichida bo'ladi, deyishadi.

Qishloq kishilarning inonchi shundayki, g'ayritabiiy yaratilgan kishilar turmushini kuzatib turishadi, haddan oshganlarni jazolashadi.

Qora soya faqat soya ichida bo'ladi. O'zi ham soyaday harakatlanishi mumkin, u holda boshqa soyalar orasida birdan boshqasiga o'ta oladi.

U nima qiladi?

Savol-so'roq qiladi, deydilar.

Qora soyaning savol-so'roqqa haqqi bormi?

Ha, u – mahalliy hakam. Kishilar aytishadiki, avvalgi zamonning qozilarini sotib olsa bo'lardi. Hozirgilarini-chi? Eh-he, kulgimni qistatmang... Qora soyani esa qanaqa qilib sotib olardingiz, axir, na nafs bor, na bola-chaqa g'ami. Biroq, qayerda yomonlik haddan oshsa yoki biror kishi xalqqa haddan ziyod zulm qila boshlasa, olachalpoq soyalar aro surila-surila yetib kelarmish. Balki, allaqachon yetib kelib, zolim yolg'iz qolishini kutayotgan chiqar?

– Kimlarga zulm qilding?

Shunday deb so'raydi qora soya.

Shulardan biri – ko'pning haqini yeb semirgan bir boyonni so'roq qilibdi. Nafsilamrini aytganda, boyonlarning tutumiga hayron qolmay ilojingiz yo'q. Kimki davlat orttira boshlasa, ayniqsa, u davlat kishilar haqini yeyish evaziga kelsa, uyi tevaragini baland, mustahkam devorlar bilan zog' o'tolmas qilib o'rab oladi. Zamonaviy qo'riqlash uskunalar deysizmi, baquvvat qo'riqchilar deysizmi... Bir nimadan qo'rqishi-ku tayin, shu bois mustahkam istehkomga yashirinadi. Biroq, hoy birodar, nega bunday qilyapsiz, deydigan kishi yo'q. Tegrangizdagilarning aksariyati kambag'al, yupun kishilar, ko'ryapsiz-ku, uylariyam ochiq-sochiq. Lekin o'sha qashshoq kishilar yuz-ko'zida allanechuk nur bor. Ha, beti tirishlarga to'la, kaftlari qadoq, usti yupun... ammo qalbining nurlanib turishiga qarasangiz-chi? Boyon aslida muhtasham qo'rg'onlar solib, o'zini chegaralaganidayoq soyaga yo'l ochgan bo'ladi, deyishadi.

Soya ana o'sha qavat-qavat devorlar orasidan o'tib, boyon qoshiga keladi.

– Zulming haddan oshdi, savol-so'roqqa tayyorlan!

Qora soya kelganida kishining oyoq-qo'li o'ziga bo'ysunmaydi. Go'yo ajal qarshisidagi kabi, mushukday yuvosh tortib turadi.

Uning otini aytishmaydi, "O'zi ko'rinmay eshik ochar" deb atashadi. Buning nimaligini bolalardan so'rasangiz, "shamol" deb javob berishadi. Bolalarning musaffo tasavvuri daraxt uchlarini chayqatib, ochiq yalanglarda g'uvillagan sas chiqarib esgan odatiy shamolni gavdalantirsa, o'zi ko'rinmay eshik ochuvchi – qora soyadir.

Ochiq eshikning u yog'i qop-qora qorong'ilik. O'sha zulmat ichidan turib so'raydi:

– Zulming haddan oshdi. Shuncha kishining haqini yeding, burnini qonatding. Nega unday qilding?

So'ng bittalab so'ray boshlaydi.

Boyon otasining cho'ntagidan pul o'g'irlayotganda qo'lga tushgan yosh boladay qo'llarini ikki yoniga osiltirib, istasa-istamasa, to'g'ri javob beraveradi.

– Guruchga tosh aralashtirib sotganman. Unga kepak qo'shib sotgan ham menman. Kishilarni aldab, pulini bermay yurganman. Do'konlarimdagi narx-navoni atay ko'targanman. Qo'ylarimni iligi ustidan teshib, havo berib damlab shishirib pullaganman...

Ke-etdi!

– Davlatim ko'paygani sayin kishilarni nazar-pisand qilmay, o'zim haqini yeganlar ustidan kulganman. G'arib, yupun kishilarni haqorat qilganman, zoti past deb mazaxlaganman...

Birovlarning mol-mulkini yeganini e'tirof qilganida tek turgan soya, mana shu yerga kelganida tez yaqinlashib, boyonning og'zi-burni aralash tarsaki tortib yuboradi. Yuzi qop-qora bo'lib qoladi. U endi ajabtovur atir sovunlar bilan yuvsa ham ketmaydi.

– O'tniki o'tga, suvniki suvga, – deydi soya. Ajab, zulm nima?

Yaxshilik-u ezgulik ne degan savolga yuzlab risolalarni taxlab tashlagan el shu savolga

kelganida miq etmaydi. Haqiqatan ham, nima u zulm? Zulm shuki, bir kishi bolam-chaqam deb holdan toyguncha mehnat qiladi, zolim esa u olishi kerak bo'lgan haqning o'ndan birini, ya'ni qorni arang to'yadigan qisminigina beradi, xolos. Haq-huquqini esa sira tanitmaydi, sen kim bo'psan, haqir bir chorakorsan, deydi. Bu hududda men ne desam, shu bo'ladi, sening chivinchalik qadr-qiyimating yo'q, deydi. O'zi dang'illama qal'alar quradi, sarvatlarini ko'z-ko'zlaydi, toki u hashamlarni ko'rgan mardum-u mazlumning nafasi yana-da ichiga tushib ketsin, yana-da bukchaysin, yana-da miq etmay ishlasin, ishlasin, ishlayversin...

Zolim-u mazlum haqida yana ancha so'zlasa bo'ladi. Dunyoda zulmi bilan nom chiqarganlar ozmunchami? Lekin bizning rivoyatimiz ular haqida emas, xayoliy mavjudotlar haqida.

– Oyoqorda faqat shumi? – deb so'radim Bahodirdan. – El yana shunga o'xshash yaratilarni yaratib olmaganmi?

– Bor-u qiziq emas-da, – deb javob qildi Bahodir. – O'zimiz bilgan ajina-yu alvastilar ho'-o' olisda, O'qotar tomonlarda kezib yuradi, deyдилar. Ularni yosh bolalar ham, katta kishilar ham ko'rishgan. Lekin birov hayiqadigan narsalar emas ular. Tasavvur qiling, – deb kulib yubordi u. – Agar O'qotar tomonda bir-ikki shunaqa mavjudot daragi chiqsa-yu ustiga tunda ko'rish uskunalari, mukammal qurollari-yu zirhlari bilan tezkor askarlar guruhi yetib borsa, ular qarshisida bor-yo'g'i odamning og'zi-burnini qiyshaytirib, esini o'g'iraydigan zaif maxluqotlar nima ham qila olishardi? To'g'risini aytsam, bolaligimdan beri unaqa gaplarni eshitmadim. Balki, bolalikning u maxluqlari Oyoqorning inson qadami yetmagan cho'qqilariga ketib qolishganmikin?..

### *Ko'z*

Bizning Avazboy qishlog'imizda, Karim novvoyning novvoyxonasi yonida bir buloq bo'lardi. Xuddi yerto'laga o'xshatib ustini yopib, kirish joyi qilib qo'yilgan, enkayib ichkari kirsangiz, uch-to'rt quloch joyda yer tubidan bilqillab issiq suv chiqib turganini ko'radingiz.

Buloq tubida ancha-muncha tanga-chaqalar yotardi. Suvi ichishga yaramaydi, yara-chaqani tuzatadi, derdilar.

Aytishlaricha, o'sha buloqda Ko'z bor emish.

– Qanaqa ko'z?

– Shunchaki, ko'zdaqa ko'z. Qo'l-oyog'i, tanagavdasi yo'q, ko'zning o'zi, xolos.

– Nimaning ko'zi? Odamnikimi, hayvonniki qushnikimi?

Bolalar buni eshitib buloqqa borgani cho'chishardi.

U vahimani o'z ko'zi bilan ko'rgan odamni eslolmayman. Lekin barcha bir ovozdan u buloq ichida ko'z suzib yurishini (yoki chiqib kelishini, yoxud bir joydan razm solib turishini) aytishardi. Qishloqlarning eng buzg'unchi jamoasi – bolalar jamoasidir. Charchash nimaligini bilmaydigan qiziquvchan u bolalarning bormagan joyi, chiqmagan tepaligi yo'q, qush polaponini daraxtdan chiyillatib olib tushgan ham, inida yotgan ilonni cho'p tiqib haydagan ham, zovurlarda in qurgan suvsarni yalintirgan ham shular. Bilsangiz, suvsar qo'rqsa, bolasini ko'rsatib yalinadi. Ana o'sha buzg'unchi bolalar yer ostidan qaynab chiqib turgan buloqqa bir nima tashlashmasin deya shunday vahimali narsa o'ylab topilgani haqiqatga yaqin bo'lsa, ajabmas. Biroq u falokat bolalardan emas, kattalarning o'zidan sodir bo'ldi: buloq ko'milib ketdi, katta-kichikning yara-chaqasiga davo bo'lsin degan niyatda uni qaytadan ochadigan odam topilmadi. Ko'z degan g'ayrioddiy xayolot ham u bilan birga yer ostiga ko'milib ketdi.

### *Olabo'ji*

Qadim turkiy ellarning juda ko'pchiligida uchraydigan ushbu yaratilarning yoshi o'n ming yildan kam bo'lmasa-da, "Olabo'ji nima" degan savolga javob bera oladigan hech kimsa topilmaydi.

– Qoch, Olabo'ji kelyapti!

– U qanaqa bo'ladi?

Mavjudotlar orasida shakl-u shamoyili noayon yana bir afsonaviy jonzot shudir. Uni hamma biladi, yosh bolalarni uning otini aytib qo'rqitishadi, bola tasavvuri muttasil o'zgarib

turadigan yoki turish-turmushi vahimadan iborat bo'lgan shaklsiz, ammo qo'rqinchli bir nimani onga ro'para qiladi.

Olabo'ji na so'zlaydi, na hamla qiladi. Mavjudligining o'ziyoq qo'rquv uyg'otadi.

O'g'uzlar "bo'ji" deb afsungarni aytishadi. Balki, ola-bula bir nimadir? Kishilar singari boshi, yelkasi, qo'l-oyog'i bordir? Yoki hayvonlarday tuyoqli, shoxli bir mavjudotdir?

Har holda kishilar tasavvuriga qarab betinim o'zgarib turadigan ushbu maxluqni ham turkiylarning ko'p ming yillik dastyori desa bo'ladi. Boshqalaridan farq qilib, u eng kichik yoshdagi bolakaylarni qo'rqitadigan xizmatkordir. Bu maxluq so'lim vodiydan qurg'oq vohalar dashtlarigacha, ikki ulug' daryo – Sayhun-u Jayhun oralig'idagi turli-tuman elatlargacha yaslanib ketgan katta-kichik qishloqlar tevaragida tentib-daydib yashab keladi. Betinim o'zgarayotgan insoniyat dunyosi uni o'zgartirgan emas – hanuz o'sha-o'sha, olabo'jidir. Tungi qamishzorlar orasidan, chakalaklar bag'rida, do'nglar ortida-yu oy nuri yetmagan o'ngirlardan turib o'zining azaliy yumushini ado etadi.

Shu o'rinda yana bir qiziq holat diqqatga sazovor: bu ajoyib xalq o'z xayoliy mavjudotlarini odamning yoshiga qarab yaratib olgan. Bobov, Olabo'ji yoki bo'ji kichik yoshdagi go'daklarning mavjudotlari bo'lsa, boshqalari katta yoshli kishilarga atalgan.

Eng qadimgi tarix juda g'aroyib ishlardan xabar beraveradi. Bu esa shu ajoyib, o'lmas xalqning tarixi ham juda olis ekanini ko'rsatadi. Asotirlar bir mahallar xunlar hayot kechirgan hududning shimoli-g'arbidagi qorong'i o'lkalarda kuchuk tanali, odam boshli itbaroqlar yashaganidan xabar beradi. Dovyurak qahramon O'g'uzxon ularga qarshi urush ochadi, biroq yengiladi. Urushda o'lgan askarlardan birining xotini to'lg'oq vaqti kelgan edi. Sho'rlik xotin katta bir daraxt kavagiga kirib ko'z yoradi. O'g'uzxon u go'dakka "Qipchoq" deb ism beradi. "Qipchoq" so'zi esa "og'och kavagi" degan ma'noni anglatadi.

Turkiy xalqlar samosida Anqo qushi uchib yuradi, ko'kka uchgan kishilarni ilk uch

osmongacha shu qush olib chiqadi. Qanoti ko'zga ko'rinmaydigan Bo'z tulpor kishnaydi. Tatarlar, mojarlar, oltoy turkiylari tarixiga qarasangiz, yanada g'aroyib bir mavjudotga duch kelasiz. U nihoyatda bahaybat, ostki dudog'i yer tubida, ust dudog'i esa samoga tutash. Ochqaganida osmon jismlarini yeya boshlaydi, shu sababli Oy yoki quyosh tutiladi.

Qayish Boldir degan qo'lsiz-oyoqsiz bir qariya esa yolg'iz yo'lga chiqqan kishilarni aldab, yelkasiga minib oladi. Shu jihati bilan xalq yelkasiga minib oladigan ayrim zolimlarga ham o'xshab ketadi.

Qirg'iz tog'larida Qayip Eran tentiraydi. Asl ma'nosi – g'oyib, ya'ni yo'qolgan eran bo'lib, tog'-toshlarda kavsh qaytaradigan hayvonlarni qo'riqlaydi.

Qoraqursoq esa Oltoy turkiylari hamda turkman elida eshak, it, to'ng'iz, echki qiyofasida qishloqlarga kirib keladi. Kechalari eshikni taqillatib, uy egasi taniydigan kishining ovozi bilan uni chaqiradi-da, qochib ketadi. Chaqiriqqa javoban tashqariga chiqqan kishi hech kimni ko'rmaydi, "Ha, Qoraqursoq kepti chog'i" deya, to'ning oldini ochib, pichog'ini yalang'ochlab qo'yadi, chunki Qoraqursoq o'tda toblangan temirdan qo'rqadi.

Turkiy ellarning har tog'-qirining, oqar suvlarining, o'rmonlarining o'z qo'riqchilari bor, ular yaxshi fe'lli bo'lib, adashganlarga yo'l ko'rsatishadi.

Munkir degan yana bir mavjudot undan ham qiziq – qo'rqinchli, hiylagar bu yaratiq ustiga bolalar choptirishidan qo'rqarmish.

Ko'kturk o'rmonlarida esa hali-hanuz Ashina o'q-yoyi bilan kezadi. U odam bolasi, biroq bo'rini emgan botir hisoblanadi.

Shularni o'ylasangiz, Tangritog' etaklaridan Oltoy, O'runq Oy, yoqut o'lkalaridan to bulg'or, mojar, yunon hamda rum tuproqlarigacha bo'lgan bepoyon hududlarda yashagan turkiylar tasavvurining jilvalariga hayron qolmay ilojingiz yo'q. Xalqlar yaratib olgan u turli-tuman yaratiqning xayrli ishi ham bor, bu haqda keyinroq to'xtalamiz.



# SO‘Z QUDRATI...

*(so‘z ustida ishlash)*

O‘zbek adabiyotining zabardast vakili Oybek har bir asarini yozishdan oldin uzoq tayyorgarlik ko‘rgan, mavzuni imkon qadar chuqur o‘rgangan. Ijodkorning “sahna ortidagi” bu mehnatlari, tayyorgarlik jarayonlari maxsus o‘rganish, tadqiqotlar uchun mavzu bo‘la oladi. Odatda, ijodkor tabiatiga, uning laboratoriyasiga, asarining yozilish jarayoniga oid chizgilarni kuzatishda qo‘lyozmalar muhim manba vazifasini o‘taydi.

Professor Zarifa Saidnosirovaning ta’kidlashicha, Oybek qog‘ozga tushirmoqchi bo‘lgan fikrlar dastavval uning miyasida obdan pishib yetiltirilgan, tugal holga kelganidan so‘nggina qog‘ozga tushirilgan. Bir tekis, ortiqcha o‘chirishsizlarsiz bitilgan adib qo‘lyozmalari, jumladan, “Quyosh qoraymas” romanining qo‘lyozmasi ham buning isbotidir.

Qo‘lyozmalardagi tuzatilgan o‘rinlar esa deyarli ijodiy xarakterga ega. “Quyosh qoraymas” romanining e‘lon qilingan nusxalari bilan qo‘lyozma nusxalari o‘rtasidagi farqlar Oybekning Mukammal asarlar to‘plami VIII jildidagi “Variantlar” qismida to‘liq berilgan.

Aslida, “Quyosh qoraymas” romanining qo‘lyozma nusxasi ham, matn nusxasi ham birdek mahorat bilan yaratilgan. Ba‘zan Oybek asarlarining qo‘lyozmasiga kiritilgan tuzatishlarga zarurat yo‘qdek ko‘rinadi. Ammo kuzatishlar romanga kiritilgan tuzatishlarning ko‘pchiligi Oybekning so‘zga o‘ta e‘tiborli ekanidan dalolat beradi.

Misol sifatida romandagi jang maydonida yuz bergan voqeani tasvirlovchi bir lavhani keltirishimiz mumkin. Roman qahramonlaridan biri muallim Hoshimjonning ukasi jangda halok bo‘ladi. Shu munosabat bilan Hoshimjonning halok bo‘lgan ukasini yerga qo‘yish daqiqalari yozuvchi tomonidan tasvirlanadi. Bu tasvir dastlabki variantda – Bektemir va muallim murdani ko‘tarib, chuqurdagi Asqar polvonga uzatadilar. Eng so‘nggi variantda esa Hoshimjon ukasini quchoqlab, yuzlaridan o‘pa-o‘pa yig‘laydi. Bektemir jasadni chuqurdagi Polvonga uzatarkan, “aka betoqat, o‘zi ham birga ko‘milishga tayyorday, ho‘ngrab yubordi”, degan jumla kiritiladi.

Bir qarashda, Hoshimjonning ukasini ko‘mish lahzalari dastlabki variantda ham yetarli darajada ta’sirli qilib tasvirlangandek. Lekin tuzatish kiritilgan variantda yozuvchi bir jumla

bilan jigaridan ayrilib, yurak-bag'ri ezilgan qahramonning holatini yaxshiroq berishga muvaffaq bo'lgan.

Hoshimjonning boshiga tushgan ayriliq bu uning shaxsiy, tor doiradagi musibati bo'lmay, balki butun tinchlikparvar el boshidan kechirayotgan musibat ekani, urush tufayli yaqinidan ayrilmagan xonadon qolmagani butun roman davomida satrlar qatidan anglashilib turadi.

Yana "Oyoqsiz, qo'lsiz qolsa ham mayli edi", "... Mabodo onam eshitsa, yuragi yoriladi-da", degan jumla kiritilgan romanning so'nggi variantiga. Bu esa kitobxonga so'z qudrati bilan qahramon boshiga tushgan musibatning nechog'lik og'irligini yetkazishga xizmat etgan.

Yana bir misol, og'ir jangdan keyin batalyondan

uzilib qolgan roman qahramonlari Asqar polvon bilan Ali tajang o'zlarini o'rmonga uradilar.

Qahramonlar o'rmon ichidan o'tib borishar ekan, qo'lyozma variantida Ali tajang "Atrofdagi daraxtlarga suqlanib qarab, ... Oh, oh, yog'ochlarning podsholari bular... qani endi, shulardan imorat solsang", – deydi. So'nggi variantda yozuvchi "qani bularni kesib, oynaday silliqlab, imorat qursang," deb o'zgartiradi.

Bir qarashda dastlabki variant ham yomon emaslik. Imoratbop daraxtlarni ko'rib xayoli qochgan qahramonning holati berilgan. Tuzatish kiritishdan maqsad qahramonning borliqni unutib xayoli qochishiga vaziyatning monelik qilishi. Shu sababli jumla adib tomonidan ixchamlashtirib beriladi.

"Quyosh qoraymas" romanining qo'lyozmasini kuzatishda davom etar ekanmiz, Oybek ijodiga xos bo'lgan yana bir chizgi haqida aytib o'tmoqchimiz. Adib arxivida "Quyosh qoraymas" romani uchun to'plangan materiallar ham saqlangan. Ular Mukammal asarlar to'plamining XVIII jildida "Materiallar" qismida berilgan.

Bu materiallarda romanning taxminiy mundarijasini tashkil etuvchi qaydlar bilan bir qatorda, jang maydonidagi vaziyatni yozuvchi nechog'lik sinchkovlik bilan o'rganganini ko'rsatuvchi o'rinlar ham bor. Masalan, maxsus dzot yasash, tanklarni qancha yaqinlikdan turib otish, broneboyshiklarni tizzadan turib otishi kabi detallar.

Romanning dastlabki va so'nggi varianti, unga to'plangan materiallarni solishtirish natijasida, asarning ko'p o'rinlari butunlay o'zgartirilgani, ayrim joylari esa umuman kiritilmaganini ko'rsatadi. Umuman, bu kuzatishlar yozuvchining xom materialga asoslanib yaxlit badiiy asar yaratishidagi ijodiy jarayonlari haqida to'liq ma'lumot beradi.

Qo'lyozmalarni o'rganish adib ijodida uning uchun ikkinchi darajali masalaning bo'lmaganini ko'rsatadi. U hatto qahramonlarining nomiga ham o'ta e'tibor bilan yondashgan. Masalan, "Quyosh qoraymas"da batalyon komandiri Nikulin roman uchun to'plangan







materiallarda Nagibin deb qayd etilgan, dastlabki variantlarda, shu jumladan, qo'lyozmada ham Nikolay deb o'zgartirilgan va so'nggi variantda Nikulin deb berilgan.

Bu kabi holni Oybekning ko'p asarlarida uchratish mumkin, masalan, "Hamza" dostoni qo'lyozmalarida ham O'roq ismli qahramonning nomi so'nggi variantda Boshqoq deb qayta nomlangan. Yoki "O'ch" poemasi Xolxo'janing sevgilisi qo'lyozmada Lolaxon deb berilgan, Po'pixon deb berish ham yozuvchi mo'ljali bo'lgan va oxirgi qismlarda La'lixon deb o'zgartirish kiritilgan.

Oybek qahramonlarining ismlariga o'ta e'tibor bilan qarashidan maqsad ularga ma'lum ma'no yuklash bo'lgan. Lekin ba'zida tasodiflar ham bo'lib turgan ekan, bu haqida bizga yozuvchining ayoli Zarifa Saidnosirova quyidagi bir voqeani so'zlab bergan

---

*Qo'lyozmalarni o'rganish adib ijodida uning uchun ikkinchi darajali masalaning bo'lmaganini ko'rsatadi. U hatto qahramonlarining nomiga ham o'ta e'tibor bilan yondashgan.*

---

edi. "Oybek yangi, hali hech kim tomonidan qo'yilmagan ism topishga ishqiboz edi. Elnur, Oynur, Gulyoz, Gulrang, Baxtigul, Sog'indiq kabi ismlarni topganligi ham bunga misol. Ba'zan tasodiflar ham bo'lib turgan. Esimda, "Qutlug' qon" romanini yozayotganida

Yo'lchining singlisiga hech ism topolmadi, menga ism topib bersang-chi, dedi. Shunda men "Unsin" dedim. Bu ism unga ham yoqdi va Yo'lchining singlisiga Unsin deb ism qo'ydi.

Bu ism bilan bog'liq voqea tarixi esa bunday bo'lgan. Meni buvam Iqonda turishardi va men ularnikiga yoshligimda juda ko'p borardim. Bobomlarning qo'shnisi Unsin xola bo'lgan. Men u ayolni juda yoqtirardim, chunki u juda mehribon, yumshoq ayol edi.

Kunlardan biri kuni Unsin xola vafot etadi. Butun qishloq ahlini ayolning o'limi qayg'uiga soldi. Uni endi ko'mish taraddudini ko'rishayotganda tirilib o'rniidan turadi. Shu-shu biz bolalar "Unsin xola, qanday qilib o'lib-tirilganingizni gapirib bering", deb uni holi joniga qo'ymas edik. Unsin xola har gal shoshilmasdan, bir boshdan gapirib berardilar. Unsin xolaning o'zini yaxshi ko'rganim uchun, uning ismi ham yoqardi menga. Shu sabab men Oybekka Yo'lchining singlisini Unsin deb qo'yishni maslahat bergan edim".

Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin, lekin mana shu ikki misol ham Oybek romanning har bir satri ustida olib borgan izlanishidan bizni voqif etadi, so'zga nechog'lik e'tiborli bo'lgani, uning ma'no qirralarini ko'paytirishga harakat qilgani, asarda sodir bo'layotgan voqealarni kitobxon qalbiga ko'chirishga erishganiga yetarli isbot bo'la oladi.

**Ra'no IBROHIMOVA,**  
*filologiya fanlari doktori*



ABDUQAYUM

YO'LDOSH EV:

ADABIYOT DUNYONI  
O'ZGARTIRA OLADI

*Asl Adabiyot zamon  
evrilishlariga monand  
turlanib-tuslanavermaydi.  
Zero, Adabiyotning  
zimmasida zamin kelajagini  
hal etishdek ulkan mas'uliyat,  
Inson qalbini asrashdek  
benihoya zalvarli yuk bor.*



“

Bolaligimning yorug',  
hayajonli, quvonch va hayratlarga  
boy damlari ham ko'p bo'ldi.  
Bunday mo'jizali, ilohiy lahzalarni  
menga kitoblar hadya etdi...

Asarlarni “izm”larga bo'la  
boshlashlari menga butun  
tanani alohida uzvlarga ajratib  
o'rgatadigan anatomiya  
darsini eslatadi...



“

Yaxshi  
kitoblarni o'qing  
va uqing, ana  
shunda dunyo  
chindan ham  
o'zgaradi.  
Yaxshi tomonga,  
albatta.





*Adabiyotda – barcha sohalarda bo‘lgani kabi – natija muhim. Aslida, yaxshi asar dunyoga kelishining o‘zi bir mo‘jiza. Ammo... qani endi, ong-shuuringizni, qalbingizni alg‘ov-dalg‘ov qilib tashlaydigan, kulib turib yig‘latadigan, yig‘lab turib kuldiradigan, sahifalarini titrab-qaqshab, o‘zingizdan qizg‘anib o‘qiydigan, kechalari uxlatmaydigan asar qo‘lingizga tushib qolsa...*

*Asl adabiyot hamisha ezgulik, yaxshilik, yorug‘likning yonida turib “jang” qiladi va bu kurash abadul-abad davom etajak. Bu tunning kun bilan almashishiday tabiiy hol.*

---

Har bir oshiq qalb muhabbatni yangilaydi, deyishadi. Har bir ijodkor Adabiyot atalmish fusunkor, sirli, sehrli, o‘xshashi va cheki yo‘q olamga o‘z qalbi bilan kirib keladi, uni o‘zicha yangilaydi.



(Boshi 8–23-betlarda)

## IKKINCHI QISM. TRANSMILLIY YARATIQLAR

### Qora qo'l

Bolalar sandal tevaragida tizilib, har xil voqealarni so'zlashib o'tirishardi.

– “Qirq qiz”ni aytib beraymi?

– Yo‘q-yo‘q! “Qo‘l”ni ayting, qora qo‘lni!

– Qish kelibdi, ekin-tikinlar yig‘ishtirib olinibdi, – deb hikoyasini boshladi yoshi kattaroq qizgina. – Bo‘shab qolgan dalalarda shamol o‘yin quribdi. G‘ozapoyalar to‘p-to‘p yig‘ishtirilib kelinibdi, dala chetlaridagi makkalar o‘rilib, bostirmaga bosilibdi. Xullas, dala-tuzda qilar ish qolmabdi.

Babat degan bola bor ekan. Shu bola akasi bilan bitmagan imorat ichida o‘tirgan ekan. Ota ikki o‘g‘liga etakdagi hali tugal bitmagan imoratning bir xonasini tuzatib, yotoq qilib bergan ekan. Unday imoratlar paxsadan yo guvalakdan tiklanadi, shiftiga terak yog‘ochi bosiladi. Oralaridan qamishlari osilib turadi.

Babat ochqasak yeymiz, deb bitta non olvolgan ekan. Aka-uka u nonning yarmini yeyishibdi, yarmi esa dasturxon ustida shundoq qolaveribdi.

Tun, oy havolab ketgan, deraza tavaqasining biri ochiq, tashqaridan tungi saslar, ariq suvining shovuri eshitilar, xonaning bir chetiga oy shu‘lasi tushib turarmish.

Aka-uka yerga joy solishib, endi uxlaymiz deb yotishsa, deraza tomondan sharpa kelibdi.

Bolalarning nafasi ichiga tushib ketibdi.

Aka turib, derazani yopishga majoli kelmay dag‘-dag‘ titrab o‘tirarmish. “Jon aka, derazani yop, qo‘rqib ketyapman”, debdi ukasi. Aka, nihoyat, o‘zini qo‘lga olib o‘rnidan turgan ekan, shu mahal derazada qop-qora bir qo‘l ko‘rinibdi. Tavba, qo‘lning o‘zi, naryog‘ida hech nima yo‘q, bo‘m-bo‘sh emish!

Aka-uka jonholatda o‘zlarini burchakka olib qochishsa, qo‘l timirskilana-timirskilana sandal ustidagi dasturxonga yetib, bir nima izlar emish. Boyagi nondan yarimtasi qolgan edi-ku, o‘shani olib, yana kirgan joyidan chiqib g‘oyib bo‘libdi.

Ayni shu mahalda ayvonda qadam tovushi eshutilib, birov yo‘talibdi. U bolalarning otasi

ekan, xavotirlanib, bolalarimdan xabar olay deb kelgan ekan. Qarasa, o‘g‘illari burchakda dag‘-dag‘ titrab turishibdi. Sal o‘tib o‘zlariga kelishib, bo‘lib o‘tgan voqeani so‘zlab berishibdi.

Ota buni eshitib, o‘ylanib turib:

– Ha, la’nati, yana keptimi? – debdi avzoyi buzilib.

Keyin suvga dam solib, hammayoqqa sepib chiqib, “Ana, endi kelolmaydi” debdi.

– Ota, qo‘l kelib nima qiladi?

– Non izlaydi, bolam.

– Nonni nima qiladi?

Shunda ota qora qo‘lning tarixini aytib beribdi.

Bir chol bo‘lgan ekan. Bolalari, kampiri o‘lib, o‘zi yolg‘iz qolibdi. Uning holiga achingan qishloq novvoyi odamlarga aytibdiki:

– Har biringiz olib kelgan undan bir siqim olib xamir qorib, non yopib, o‘sha cholga chiqaraveraman. Rozimisiz?

– Mingdan-ming rozimiz, – deyishibdi odamlar.

Novvoy shunday qilibdi, ko‘pning unidan bir siqimdan ola-ola, har kuni non yopib, cholga berib yuboraveribdi.

Shu qishloqda bir o‘g‘ri ham bor ekan. Tunda nimadir toparman, deb o‘g‘irlikka chiqibdi. Qay hovliga yaqinlashsa, it hurarmish, kiraverishdagi uylarda kishilar sergak yotishar, sal sharpaga tomoq qirib, tashqari chiqisharmish. O‘g‘ri sanqib-sanqib, o‘sha cholning uyiga borib qolibdi.

Qarasa, chol qiblaga qarab ibodatini qilmoqda, ko‘zlaridan sariq yoshi oqib Parvardigorga yalinayotgan ekan. Chol Xudodan rizq so‘rayotgan, qarovsiz qolib ketganidan o‘kinayotgan, meni shuncha odamga zor qilib qo‘yding, ularning haqini qanday o‘tayman, deb yolvorar ekan-da.

Sandal ustida esa bus-butun non turganmish. Chol namozimni o‘qib, keyin yarmini yeyman, qolgan yarmini esa erta tongda nonushtaga yeyman deb olib qo‘ygan ekan.

O‘g‘ri ham och ekan, “Harna” deb, derazadan qo‘lini cho‘zib o‘sha nonni olibdi-yu, iziga





qaytibdi. Keta-ketguncha nonning yarmini yebdi, qolganini qo'yniga solibdi.

Chol bir mahal qarasa, sandal ustidagi non yo'q bo'lib qolganmish.

O'sha kecha kimdir o'g'ringing chol uyiga kirib ketayotganini ko'rgan ekan. Uni tutib, aybini bo'yniga qo'yib, cholning rizqini o'g'irlagan bu kimsaning qo'lini chopib tashlashibdi.

"Umring bo'yi birovlarining rizqini o'g'irlading, iloyo, o'zing ham bir burda nonga zor bo'lgin", deyishibdi.

O'g'ri chopilgan qo'lini qo'ltiqlab, qishloqdan chiqib ketibdi. Shu bo'yi uni biron ko'rmabdi. Dala-dashtga yetib olgach, qo'lini bir yantoq ostiga ko'mibdi, o'zi esa yanada olislarga bosh olib ketibdi

Ko'pning qarg'ishi urganmi, urmaganmi... Hali-hanuz o'sha qo'l odamlar uyiga yashiriqcha kirib kelib, non izlaydi. Butun nonga tegmaydi, chunki sindira olmaydi-da. Yarimta nonni ko'rsa, o'shani olib ketadi. Egasi taqdiriga bitilgan, yeb qo'yilgan o'sha yarimtaga qo'shilib, bitta butun nonga aylansa-yu, shu taqdirimdan qutulsam, deb o'ylaydi...

Tavba, tanasiz u maxluqni kim o'ylab topdi? Sho'rlik qo'l xayolotining ortida el boshiga kelgan qiyinchiliklar ko'rinish berayotgani kishi yuragini zardobga to'ldirib yuboradi. Nonga shunchalar zormidi u qo'l, bolalar dasturxonidagi so'nggi burdani ham olib ketibdi?

Afsonalar el ko'rgan kunlardan darak beradi. Haqiqatan, juda qattiq zamonlar bo'lganmikin? Odamlar nonga zormidi? Kishilar o'zga bir qo'l rizqimizni olib ketmasin deya, nonqutilaringizni, nonsavatlaringizni mahkamlab yuring deya, shularni o'ylab topishganmikin?

– Yo'q, – deydi qo'l. – Men bor-yo'g'i qo'ldan iboratman. Meni yuboradigan yana kimdir bor.

Bu obraz Yevropa xalqlarida, yunonlarda, bulg'orlarda, skandinaviya mamlakatlarida yashab keladi. Biroq islom qizg'inliklari aro, islomni qabul qilgan o'lkalarda uchramaydi, shu sababli Markaziy Osiyo bolalari folklorida paydo bo'lib qolgani bilan diqqatni tortadi. Vashington Irving Grenada hikoyalari bilan islom rivoyatlarining Yevropaga kirib borish jarayonini tasvirlagan bo'lsa, ushbu rivoyat masihiy rivoyatlarining Markaziy Osiyoga kirib borish jarayonini ko'rsatishi bilan e'tiborga molik.

Shu tariqa, Iso alayhissalom tavalludidan so'ng paydo bo'lgan hamda "Meni yuboradigan yana kimdir bor" deb shikoyat qiladigan qora qo'l, aslida, Yevropa-yu Osiyo o'lkalari kishilarini tilanchilikka, yupunlikka, bir burda non uchun har ishga o'zini urishga majburlagan davrlardan bahs etib, yer yuzining deyarli yarmidagi kishilarning din-u e'tiqoddan tashqaridagi xayollaridan hikoya qiladi. Uni yuborgan kim edi? Shu ko'rgilikka duchor qilgan qirollik, graflik, o'zaro urushlar, din-u imon tafovutlari aro to'kilgan qonlar hamda ular natijasida tirikchilik uchun tilanadigan yuz minglab kishilarning qiyofalari oxir-oqibat xalqlar tilida rivoyatga aylanib, shu shamoyilni olgan bo'lishi haqiqatga yaqinroq. Yanada haqqoniysi shuki, mazkur qiyofa hanuz Markaziy Osiyo qishloqlari tegrasida non tilanib, dastuxonlardan yemish o'g'irlab yuribdi. Hamda, balki bir necha yuz yillargacha mavjudlikda davom etsa ehtimol.

U bilan birga yana bir sharpa kirib kelgan, uning nomi “tuyoqli kishi”dir.

U – g‘arb mifologiyasida iblisning malaylari bo‘lmish sefirlar, ya‘ni odam boshli, echki tuyoqli qiyofalar haqidagi rivoyat.

### *Tuyoqli kishi*

Ota-ona to‘yga ketishgan, opa-singil uyda qolishgan edi.

O‘sha kuni shamol keldi. Aksiga olib, chiroq o‘chdi. Shamol tashqarida rosa quturib o‘kirdi, tom tunukalarini taraqlatdi, daraxt shoxlarini egib-egib esaverdi. Hovlida qolib ketgan paqirni daranglatib, ho‘v chetga oborib tashladi. Yoyib qo‘yilgan kirlarni anjir shoxlariga ilib qo‘ydi. Singan deraza oynasi o‘rniga yopishtirib qo‘yilgan suvqog‘ozni yulqiy-yulqiy, axiyri uchirib ketdi, deraza o‘rni qop-qora bo‘lib qoldi.

Opa-singil sandalda o‘tirishardi. Singilning ismi Nozi edi, ikki beti qip-qirmizi, o‘ynab sira charchamasdi. Sochiga paxtadan pilik o‘rib olardi, opasi o‘sma qo‘ysa, u ham qalin qilib, betlariga oqizib-oqizib qo‘yib olardi.

Qizgina shamol saslaridan qo‘rqa-pisa opasining pinjiga kirib titrab o‘tirar ekan, bir mahal tashqarida tuyoq sasi eshitildi.

– Opa, – dedi singil dag‘-dag‘ titrab. – Tuyoqli kishi keldimi?

– Taq, taq...

– Bilmasam... – opaning ham rangi bo‘zarib ketgan edi. Yugurib borib eshik zulfini tushirib keldi-yu, singlisining qo‘lidan mahkam tutib, cho‘k tushib o‘tirib oldi. Tashqarida esa o‘sha g‘alati sas tinmasdi. Birov ayvonning taxta polidan goh u yoqqa, goh bu yoqqa o‘tardi.

– Taq, taq, taq!

– U qanaqa o‘zi? – deb so‘radi singil shivirlab.

– Maymunga o‘xshagan yungli, bukchayib yuradi. O‘zi

odam, ammo shoxi, tuyog‘i bor, – dedi opa ham shivirlab.

Opa singil shu tarz dag‘-dag‘ titrab o‘tirishar, tuyoqli kishi esa ichkariga kirish yo‘lini izlab u yoqdan, bu yoqqa yurardi.

Taq.. tuq...taq...

– Opajon, qo‘rqib ketyapman...

– Qo‘rqma... Eshikni mahkamlaganman, kirolmaydi.

– Otajon... – deb shivirlardi qizgina, hozir ota kelib qolsa-yu, bu g‘alati maxluqni haydab yuborsa deb. Negadir xayolida ota juda bahaybatlashib ketganday tuyulardi. Ha, ota benihoya qudratli, kuchli. U kelsa, tuyoqli sharpa qo‘rqqanidan kuchukboladay angillab qochadi. Ota esa baland ovozda “He, seni o‘sha!..” deb baqirib, ortidan ketmonni otib yuboradi. Sharpa shu



Rasmlarni Asliddin Kalonov chizgan

ketganicha sira kelmaydi, chunki uyda Ota bor, undan juda qo'rqadi.

Darhaqiqat, shu mahal tashqarida birov tomoq qirib yo'talgani, keyin zalvarli qadam tovushlari eshitildi. Katta qiz chopib borib zulfinni tushirgan edi, ota kirib keldi.

– Meni oy qizlarim nima qilishyapti?

Oy qizlar chopib borib, ota bo'yniga osilib olishdi. Ayniqsa, kichkina dag'-dag' titrardi. Ikki o'rim sochi selkillab, yalang oyoqlarining tovonni qorayib otasiga yopishib, bo'ynidan mahkam quchoqlab olgan edi.

– Nima bo'ldi? Nimadan buncha qo'rqib ketdingiz, jon qizlarim?

– Ota... Otajon!..

Ota ikki qizini quchog'idan qo'ymasdan to'shakka o'tirdi. Qizlarining qo'rqib ketganidan xavotirlanib, nima bo'lganini so'ragan edi, katta qiz voqeani titray-titray aytib berdi.

Ota qizlarining boshini silab, so'radi:

– Oy qizim, ertalab hovlini toza supurmaganmiding?

Katta qiz ro'y-rost tan oldi:

– Ha, otajon, erinib burchaklarni tozalamanim edim.

– U shaytonning xizmatkori, notoza yerlarni izlab yuradi, – dedi ota. – O'shanday joylarni topsa, shaytonga xabar beradi. Keyin o'shanaqa iflos narsalar kelishib, ziyofat qilib o'tirishadi. Biroq toza joylarga sira kelishmaydi. Bundan so'ng hovlini "Bismillo" deb, top-toza qilib supur, xo'pmi, qizim?

Bor-yo'q voqea shundan iborat.

U ota hozir dunyodan o'tib ketgan.

Qizaloqlar kap-katta xotinlarga aylanishgan. Biroq uylariga borib qolsangiz, har yerning sarishta-yu saranjom qilib supurilganini, orasta ekanini ko'rasiz...

### *Dev*

Ko'hna hind va fors tarixlarida bahaybat, egnida lungisidan boshqa kiyimi yo'q befarosat maxluq o'laroq ta'riflanadi.

Qadimgi hindlarning "rakshas" deyilgan odamxo'r yaratig'idan tarqab Eronga o'tgan hamda taraqqiyot oqimi bilan qo'shilib Markaziy Osiyoga

kelib qolgan bu yaratiq ertak-afsonalardan o'rin olgan-u qishloq cho'pchaklaridan o'rin ololmagan. Biroq umummilliy ertak-afsonalar bag'riga kelib joylashgan.

Dev tog' o'ngirlarida, g'orlarda, ovloq-puchmoq joylarda yashaydi, qush-hayvon ovlab kun ko'radi hamda kimningdir buyrug'iga ko'ra, o'sha yerda maxfiy xazinani qo'riqlaydi.

Hindistondan chiqquniga qadar u zolim, rahm-shafqatsiz, hind chakalakzorlarining yovvoyi arslonlari yoki timsohlari kabi insonlar yashaydigan makonlarga hujum qiladigan, odamlarni yeb qo'yadigan mavjudot edi. Shu xislatlari bilan Eronga ham ko'chib o'tadi. Zulm-u yovuzligi bilan o'sha mahallarning qashshoq qishloqlarini beshbattar talaydigan ba'zi hind hukmdorlariga o'xshab ketadi, odamlar uning zug'umlaridan qutulish uchun har kuni bittadan bolakay yoki voyaga yetmagan qizni tortiq qilib turishadi.

Markaziy Osiyo ushbu rivoyatning odam tortiq qilish qismini olib tashlaydi. Otlari yelday yeladigan, o'zlari uchqur, erkinlikni sevadigan u xalqlar uchun kimdir kelib bolalarini olib ketishi misli ko'rilmagan mubolag'a bo'lib tuyuladi. Shu jihatiyoq turkiylar o'z bolalarini birovga bermasligini, dev yo boshqa biror yaratiq kelib qolguday bo'lsa, butun ulus birlashib kulini ko'kka sovurib yuboradigan jangovar shuurini namoyon qiladi.

Dovyurak turkiylar nafaqat devni, balki hindlarning dono maymuni yoki so'zamol to'tisini ham "sig'dirmaydi", ularni og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib yurishga arzimaydigan hayvonlar deb hukm chiqaradi, shu sababli bir qancha kitoblar qatida kelgan mazkur yaratig'lar faqat faylasuf olimlar diqqatini tortadi. Olimlar esa ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirishadi hamda o'z e'tiqodlariga moslab olishadi. O'zga xalqlar og'zaki ijodidan muhim o'rin olgan u yaratig'lar Markaziy Osiyoda yashay olmagani sababli ularga to'xtalib o'tirishmaydi.

Hindlar diyoridan Osiyogacha uzundan-uzoq yo'l bosib kelgan bu mavjudot "ot minuvchilar" uchun qo'rqinchli bo'lmay qoladi. Ot minuvchilar

uni tog'-u toshlarda xazinalarni qo'riqlab yotuvchi g'ayritabiiy mavjudotga aylantirib qo'yishadi va o'z yo'llarida davom etishadi.

### *Qilich ko'targan kishilar*

Bular Rum asotirlarida va Yevropada "Qora elchi" qiyofasida uchraydi. Dunyodan o'tgan jangchilarning ruhi hanuz o'zini askar xayol qilib, o'z jonajon tuproqlarini qo'riqlayotganday tasavvur uyg'otadi.

Bunaqa rivoyatlarni islom qat'iy qoralaydi. Inson dunyodan o'tgach, zudlik bilan tuproqqa beriladi hamda abadiy hayotga qadam qo'yadi. Uning yorug' olam bilan aloqasi mutlaqo kesiladi, deb ta'lim beradi so'ng zamonlarning haqqoniy e'tiqodi.

Biroq ayrim kishilar bu qonuniyatni qabul qilishsa-da, dunyodan o'tsa ham, el-yurtini qo'riqlab yuradigan afsonaviy botirlar qiyofasini yaratib olishadi.

O'sha kuni juda qattiq momaqaldiroq gumburlab, chaqmoq chaqqan edi. Qora bulutlar bag'rini yorib goh samoning yarmigacha lang'illab ketar, goh yorqin tomirlari yerga urilardi.

Shahar-u qishloqlar aholisi yovga qarshi oyoqlandi. Elning uch yovqur o'g'loni ham yov bosib kelayotganini eshitdi. U kim ekan? G'ayridin emish. Bosib olgan yerlaridagi kishilarni majburlab o'z diniga kiritarmish. Kirmaganlarni to'rt bo'laklab, daraxtga osib ketarmish.

– O'lsak o'lamiz, biroq imonimizni bermaymiz, – deyishardi kishilar.

Yigitlar yov tog' yo'lidan, dasht tomondan kelarmish, degan gapni eshitishgan edi. Jala ostida tig'-yarog'larini olib, o'sha yoqqa jo'nashdi.

Uchchinor degan joyga yetishganida to'xtashdi. Bu yerda bir-biridan uzoq uch tup chinor o'sgan ekan. Yer bilch-bilch loy, chaqmoq har chaqnaganida yiltirab ko'rinar, o't-o'lan jiqqa ho'l, yursa oyoq toyardi.

– Qilich-yarog'ingizni olib, to'ningizni yopinib chinor ustiga chiqib oling, – deyildi.

Yigitlar yoyilishib, birin-ketin chinor ustiga chiqib olishdi.

Tog'dan kelaverishda qishloqlar tig'iz, yov ular orasidan o'tmay, tog' oralab kelishi aniq edi.

Yigitlar shu tariqa ko'zlarini o'sha yoqdan uzmay kutaverishdi.

Bir mahal juda qattiq chaqmoq chaqnadi. Yer-u ko'k yorishib ketdi, yorug'ida olislar ko'rindi. O'sha yoqqacha yaslanib ketgan hududlar bo'm-bo'sh, jon asari ko'rinmasdi.

Shu jala ostida tong otdi. Tong otganida yog'in ham tinaqoldi.

– Nima qilamiz, qaytamizmi? – deb so'radi ularning eng yoshi, o'n oltiga endigina to'lgan yigitcha.

– Yo'q, shu yerda turing deyildi, turamiz, – dedi yigitboshi. – G'aflatda qolib, yov kelsa-yu, ko'rmay qolsak, o'zimizni malomatimizga o'zimiz chidamaymiz...

– Osh-ovqat-chi? – deb so'radi uchinchisi.

– Biringiz ho'v ko'rinib turgan qishloqqa borib, yegulik ola keling!

Yosh yigitcha rozi bo'lib, o'sha qishloqqa yo'l oldi. Qolgan ikkovlon hushyorlikni boy bermaslik uchun yana chinor ustiga chiqib olishdi.

Oradan bir osh pishgunchalik fursat o'tib, boya ketgan yigitcha chopasola kelayotganini ko'rishdi.

– Nima bo'ldi? Muncha hovliqasan? Nimadan qo'rqding?

– Astag'firulloh! – der edi u. – E Xudo, o'zing kechir.

– Nima bo'ldi?

– Qishloq yo'q!

– Yo'q? Qanaqasiga yo'q?

– Bor-u, ammo yo'q! Tamomila boshqa odamlar, boshqa uylar. G'alati ulovlar yuribdi.

– Ko'zingga shunaqa ko'ringandir?

– Xudo haqqi! Ishonmasangiz, o'zingiz borib ko'ring!

Shundan so'ng ular ikkilana-ikkilana, qishloqqa yaqinlashib borishdi.

Qarashsa, rostdan ham ular bilgan qishloq yo'q. Kishilar temir aravalarga minib yurishibdi-yu, oti yo'q. Uylar ham o'zgacha, to'rtburchak, rang-u tusi oppoq, tomiga temir yopilgan. Avval qaralganida birinchi bo'lib ko'zga tashlanadigani – machit minorasi bo'lar edi, hozir kishilar qurgan uylar orasida birorta minora ko'rinmaydi.



– Nima qilaylik? Kirib boraylikmi? – deb so‘radi ikkinchi yigit.

Shom qo‘na boshlagan edi.

– Nimadir o‘zgarib qolibdi, – dedi yigitboshi. – Biz bilmaydigan nimadir ro‘y beribdi. Sezmadingizmi? Boya bu yoqqa kelayotganimizda sira charchamaganingizni bilmadingizmi? Qolaversa, ochlik ham yo‘qolib bitdi-ya? Yo, bir nima yeingiz kelyaptimi?

– Yo‘q, – deyishdi sheriklari. – Qaytanga, na taom yegimiz kelyapti, na suv ichkimiz.

– Qishloqqayam nimadir bo‘libdi, – dedi yigitboshi. – Lekin bek bizlarni poyloqqa qo‘ydi. Shu ishimizni ado etamiz. Yov ko‘rinsa, o‘t yoqib xabarini beramiz. Vazifamizdan chalg‘imaylik.

Shunday deb, ular izlariga qaytishdi.

Oysiz kecha edi, saldan keyin shom yana-da quyushlab, tun ularni yutib yubordi...

Shundan so‘ng zamonlar osha, dashtdan kelaverishdagi tog‘ yonboshida ahyon-ahyon ko‘rinadigan uch yigit haqida hayratangiz gap-so‘zlar paydo bo‘la boshladi.

Uchovi ham baland bo‘yli, keng yelkali, ko‘rkam yigitlar ekan. Faqat, bittasi hali o‘n oltiga to‘lib-to‘lmagan, juda yosh emish. Goh-gohida qir uchiga chiqib, qo‘llarini ko‘ziga soyabon qilib uzoq-uzoqlarga termilisharmish.

Uchovining ham belida keskir qilichi, yelkasida yoyi bormish.

Qilich ko‘targan kishilar haqidagi rivoyat shunday.

Bu rivoyatni mulohaza qilib ko‘rsangiz, yuragingizda benihoya mehr uyg‘onganini his qilibgina qolmay, shu betakror xalq boshidan o‘tkazgan turli-tuman kunlarni ham payqay boshlaysiz.

Uning asli – bir necha ming yil avval zolimlar ta‘qibidan qochib, tog‘dagi kichik bir g‘orga berkingan yigitlar haqidagi, “As‘hobul-Kahf” deb nomlangan juda qadimiy bir rivoyat. Ular haqida muqaddas kalamda ham xabar berilgan, demakki, haqqoniydir.

U hikoyatning haqiqatiga shoyon ishongan oddiy xalq o‘ziga moslab, yov bostirib kelayotganida abadiyatga qovushgan yigitlar haqida o‘zga bir rivoyat to‘qib olganini, uning

qatida esa kishilarning tiyiqsiz erk-hurriyat istaklari yashirinib yotganini ko‘ramiz, albatta.

Aytadilarki, o‘sha hududda yashaydigan bir avliyo dunyodan o‘tganida, u yigitlar janozaga kelishibdi. Uchoviyam boshqalardan bir bosh baland emish. To‘n kiyib, belbog‘ o‘ragan qishloq kishilariga qo‘shilmasdan, bir chetda turishganmish.

– Kelinglar, kelinglar, – deb ularni chorlabdi imom.

El qatori fотиha o‘qib, marhum haqqiga duo qilishibdi.

Janozadan so‘ng, mayitni olib chiqar chog‘i eshon ulardan kimligini so‘rasa:

– Falonchi bekning lashkaridanmiz, – deyishibdi. – Eldan uzilib qolmaylik, deb janozaga kelaverdik...

## Ajdar

Transmilliy yaratilqlar orasida bu maxluqning qiyofalari shunchalar turli-tumankil! Xitoyshunos olim Abdulahad Xo‘jayevga ko‘ra, u asli qadimgi turkiy qabilalardan chin eliga o‘tgan mavjudotdir. Agar hozirgi Chin tuproqlarida dovyurak turkiylarning xun qabilalari yashaganini va shaharlar qurganini nazarda tutsak, u mavjudotning yanada ibtidoiyroq bir qiyofasi turkiylarga borib taqalishini taxmin qilish qiyin emas. Chunonchi, chin shaharlarining bundan ikki-uch ming yil avval turkiycha nomlangani ham shundan dalolat berib turibdi. Shuningdek, Oltoy asotirlarida uchraydigan va doimo urushadigan ikki mavjudotning biri – Bukra o‘z shamoyiliga ko‘ra ajdarga juda yaqin. Rivoyatga ko‘ra, u har ming yilda bir marta yer yuziga tushib, dunyoning vaziyatiga nazar soladi. Qanotlari bo‘lmagani bois ucholmaydigan kaltakesakka o‘xshaydi. Uzun bo‘yni, kuchli panjalari hamda dunyoning hamma joyiga eshitiladigan tovushi bormish. Yomon fe‘lli Sangal bilan to‘qqiz yil urushib, uni yengani haqida aytiladi.

Bukra, Sangal kabi eng ko‘hna afsonalardan Qayirxon, Erikxon, Oq ona, Qazag‘anxon, Merganxon, Oyazid, Ko‘kxon, Tog‘xonlardan o‘tilsa, yer ezining eng qadimgi dostoni –



“Gilgamish”ga yetib borasiz. Yer ostiga tushib, manguilik gulini olib chiqqan bu qahramon hikoyasida ham ajdarhoning olis qarindoshini uchratasiz. Gilgamish yer ostidan chiqqach, cho‘milib olish uchun suvga tushganida bir bahaybat ilon kelib, abadiyat chechagini yeb qo‘yadi. Olim Jabbor Eshonqulga ko‘ra, ajdarning va “Gilgamish”ning yaratilish tarixi turkiy qavmlar tafakkurining hosilasidir.

Nima bo‘lganida ham, Mesopotamiyadan to Tangritog‘ cho‘qqilarigacha uchib yuruvchi u maxluq goh qahrli, goh shafqatli jonzot o‘laroq, vaziyatga qarab o‘zgarib namoyon bo‘laveradi. Ko‘pchilik hollarda zulmga qarshi chiqib, zolim hukmdorni urug‘-aymog‘i bilan ko‘kka sovurib yuboradi. Turkiy xalqlarning keyingi avlodlari undan yov yasab olishadi, bu esa dovyurak xunlarning chinlar bilan bo‘lib o‘tgan uzoq yillik urushlaridan darak beradi. Chin elining dono yaratig‘i turkiy yer-suvlariga hujum qilgani on, qishloqlarda yashayotgan son-sanoqsiz botirlardan biri (ko‘pincha Kenja botir) uchqur otini yeldirib, uning uchala boshini ham tanasidan judo qiladi hamda kesilgan joyni u bosh qaytadan o‘tib chiqmasligi uchun olov bilan kuydiradi.

Turkiylar ajdarga shu sifatningina berishadi. Turish-turmushi-yu g‘aroyibli, insonlardan ustun aqli-yu donoligi ularning tushunchalariga mos kelmaydi, biroq tog‘ o‘ngirlarida yashirinib yotib, ochqaganida qishloqlar ustiga uchib keladigan hamda og‘zidan olov purkaydigan yov shamoyilida folklor qatiga joylanadi.

Turkiy eposlarning asosiy qonuni – qahramonlik bo‘lgani uchun, transmilliy yaratmaqlarning bari turkiy xalqlar rivoyatlarining eng ustun jihati – qahramonlik va jasurlik qoshida bosh egishib, halok bo‘lib ketishadi.

### Ajina

Markaziy Osiyo kishilarining xayol dunyosiga islom bilan birga “ajina” yaratig‘i kirib keladi. Aslida, u arabchadagi “jin” so‘zining ko‘pligidir. Arab asotirlarida uning uch turi borligi iddao qilinadi: erkagi, urg‘ochisi hamda ifrit, ya‘ni kuch-qudrati ko‘p, jinssiz

mavjudot. Sulaymon ibn Dovud qissasida xabar berilganiday, ular Tangri taolo hukmiga binoan payg‘ambarga so‘zsiz bo‘ysunishadi.

Ajina Markaziy Osiyoga kirib kelgach, turkiylar uni ham o‘zgartirishadi. Uning faqatgina ayol qiyofasini qabul qilishadi hamda ovloq, qarovsiz yerlardan joy berishadi. O‘zga qiyofalar esa o‘lkaga kelgan istilochilar bilan birga yo‘qlikka ravona bo‘lishadi.

Bu jonzotning namoyon bo‘lish shakllari shunchalar turli-tumanki, aql shoshadi. Boshqa mavjudotlar ahyon-ahyonda, qaysidir qishloq hududida uchrasa, u uchramaydigan hududning o‘zi yo‘q.

Juda ko‘p hududlarda u changalzor butalari ostida chiroq yoqib, yorug‘ida kitob o‘qib o‘tirgan holatda ko‘ringan. Yana aytishadiki, qarovsiz jingilzorlar, qari behilar tagida keksa ajina yashaydi. Bolalardan tortib yosh yalang-u kap-katta kishilargacha undan xabardor.

Kishilar yaratib olgan yoki o‘zgartirib olgan turli-tuman xayoliy maxluqot orasida birgina shu jonzotning kitobi bor. Unga duch kelinsa nima qilish kerakligini barcha biladi. Ko‘ziga qaramay turib Tangri taoloning ismini ayta-ayta, kitobini olib qo‘yish kerak. Shunda bir qarichlik o‘sha pakana sariq qizcha toabad xizmatkorga aylanadi.

Ming yildan ziyod vaqt mobaynida turkiylar orasida yashab kelayotgan bu jonzot yangi davrlarga kelib yana-da o‘zgaradi. Farg‘onaning Zohidon degan qishlog‘ida bir kishi qarib-chiriyozgan ajinani ko‘ribdi. Yo‘ldan ozdirish yoki qanaqadir sirli-sehrli manzaralarni paydo qilish u yoqda tursin, butalar orasidan zo‘rg‘a surgalib bormoqda ekan. Siyrak sochlari oppoq, qo‘lida behi shoxidan hassa tutib olgan emish.

U kishi ajinaning holini ko‘rib qo‘rqmabdi, qaytanga, achinibdi. Undan bir nimalarni so‘ragan, ajina ham javob bergan deydilar.

Qirqlar qishlog‘idagi shiyponga ketaverishda katta qari behi bor edi. Kishilar o‘sha behi ostida ajina kampir bor deyishardi. Yillar o‘tib u behi kesilib ketdi. O‘tinini ikki-uch xonadon qish bo‘yi yoqib chiqdi. Shunaqa katta behi edi-da. Ajinaga esa birov qiziqmadi. Axir, istiqomat joyi o‘sha edi, kishilar kelib behini kesishgach, qayga ketdi?

Ajina olov toifasidan bo'lib, juda uzoq yashaydi, lekin baribir o'ladi. O'lganida yonib o'ladi. Shu bois unga duch kelgan ilmi kishilar "Duo o'qib kuydirib yuboraman" deb qo'rqitishadi.

Aslida, g'oyat beozor u maxluq faqat his-tuyg'ularni daf qilishi bilan g'aroyib. Insonlarning tuyg'ulari ular uchun ozuqa bo'lishi mumkin. Qarovsiz yerlarda, suyaklardan oziqlanishi haqida aytimlar bor.

Turkiy xalqlar paydo bo'lganidan beri jamoa ongi yaratgan g'ayrioddiy maxluqlarning bari tun xayolotlaridirlar. Har holda, kunduzda ularni halok qiladigan nimadir borki, kun botganidan so'ng ochiqqa chiqishadi. Tunda har narsaga jon kiradi, hatto do'nglar-u tepaliklar ham nafas olayotganday tuyula boshlaydi. Mana shu ulkan jonlanish aro inson bolasi yolg'izlanib qoladi, tabiat haybati ongini bosib keladi, hayiqtiradi. Hatto yoyilib oqayotgan irmoq ham cho'chitadi. Suvda kimdir bormi? Tun qorong'usi bilan birga noma'lum, bilinmas nimalardir tushib kelganday, o'sha noma'lumlik vahm uyg'otganday bo'ladi.

Bir kishi tunda dala yoqasidan o'tib borayotlsa, dalada qoldirib ketilgan traktor shudgor qilayotgan ekan. "Iya, Razzoqvoy boya uyiga ketuvdi, qaytib kelibdimi?" deb yaqin borsa, traktor rulida hech kim yo'q emish.

Ajina traktorni boshqarib shudgor qilishi aqlga sig'adimi?

Oltiqush qishlog'ida bir yigit ajinaga oshiq bo'lib, bosh olib ketgan deyдилar. U qizni bir ko'ribdi-yu aqli boshidan uchibdi. Shunaqa suluv emish-da. Qayga ketgani-yu nima bo'lgani noma'lum. Biroq mundayroq suluvlarga oshiq bo'lib aqli boshidan uchganlar ham yetarli. "Umr yo'limda ajinaday paydo bo'lding-u esimni olding"... Suyganiga "Shukrki, yo'limdan ozdim, yo'qsa, bu saodatni qaydan topardim" deb maxfiy dil izhori qiladiganlar qancha?

Biroq bular – kishilar hissiyotlarining ko'rinishlaridir. Haqqoniy ajina hanuz daraxtlar ostida, butazorlarda, hech nimaga ishonmaydigan, benihoya kuch-qudratga to'lgan, tezlashtirilgan elektron, proton yoki annigilyatsion qurollari bilan ajina tugul, istalgan maxluqni ko'zga ko'rinmas zarralarga

aylantirib yo'q qilib yuboradigan bugunning kuch-qudrati qarshisida ne deyarini bilmay, javdirab turibdi.

Insoniyat yaralganidan buyon yaratilgan kashfiyotlar qarshisida u zaif quroli – aqldan ozdirish-u sharpa paydo qilish kabi xususiyati bilan chor-nochor, borgani yeri, qochgani joyi yo'q.

Sirasini aytganda esa, aqldan ozish – ma'lum bir to'p kishilar amal qiladigan tartib-u qoidalar, tushuncha usullari chegaralaridan chetga chiqish deganidir. Go'yo aql – bir yo'l, u yo'ldan chetga chiqish esa, mantiq va tafakkurning o'zga so'qmoqlaridan ilgarilash emasmi?

Ajab, minglab yillar mobaynida aqldan ozish bilan tahdid qilinib kelingan kishilardan birontasi mabodo aqldan ozsa... unga qay mantiq ro'para kelar ekan? U mantiqni kim izohlay olar ekan?

\* \* \*

Ozar, o'g'uz va turkman rivoyatlarida bir mahallar g'orda yashagan bir ko'zli devsimon maxluq – Tepako'zdan hikoya qilinadi. U g'ordagi xazinani qo'riqlaydi va qush, hayvon hamda odamlar bilan oziqlanadi.

Shasha – ozariy inonchiga ko'ra g'ayb olamlaridan kelgan bir qush. Faqat tunda uchadigan bu qush o'g'il bolalarning tomog'ini cho'qiydi. Shu sababli go'daklar olti oygacha doim ota-onasining ko'z oldida turishi kerak. U qushni tutib olgan kishi o'sha zahoti o'ldirishi shart. O'ldirgan kishi Shasha cho'qigan bolaning tomog'ini silasa, u bola omon qoladi.

Qo'zi qushi – Turkiya o'rmonlarida yashaydigan qush. Bir kuni bir odam cho'ponga qo'y-qo'zilarini boqib kelishni buyuradi. Cho'pon mudrab qolib, suruvni yo'qotib qo'yadi. Suruv egasidan qo'rqqani uchun "Ey Xudo, meni qushga aylantir, bu yerdan uchib ketay" deganida tilagi ro'yobga chiqadi. Tig'iz archali o'rmonlarda hanuzgacha u qushning "Qo'zi-qo'zi" degan sayrashi eshitilib turarmish.

Markaziy Osiyo ellarida yosh juvonlarga "Bolangni ko'zdan qochirma, ko'z-quloq bo'lib tur. Malla tulki kelib qitiqlab o'ldirib qo'ymasin", deb ogohlantirishadi. Yengil yellar esmoqda.

Quyosh tobora kuydirmoqda. Go'dak oyoq-qo'llarini o'ynatib, o'zicha chug'urlab yotibdi. Shu kez o'tlar-u butalar orasidan malla tulki chiqib keladi. Aslida, u malla tulki emas, chuvashlarda Archura yoxud Archuray deyilgan maxluqdir. Oqsoqol kishi, ko'rkam yigit, ilonbaliq, qush, echki yoki tulki qiyofasiga kira olarmish hamda go'daklarni qitiqlab, kuldirib o'ldirarmish.

Eh-he, yana nimalarni aytsa bo'ladi? Har bir elning o'z xayollari bor, biz esa to'linoyga-yu shu elimizning tasavvurlariga ko'z tikkanmiz. Axir, olamdagi turli-tuman xalqlar o'z mavjudligi mobaynida mingdan ortiq xayoliy yaratilgan paydo qildi. Yigirmanchi asrda Yevropada yaratilgan "Mifologik mavjudotlar kitobi" bir yuz-u yigirma yettita xayoliy mavjudotdan bahs etsa-da, Markaziy Osiyo xalqlari yaratgan mavjudotlardan bebahra qoladi. Qomus yaratuvchisi sanab o'tgan yuzlab maxluqlar orasida kishilarga tashlanadigan, hayvonday parchalab-g'ajiydigan, esdan og'diradigan turli-tuman yirtqichlari anchagina. Deyarli barchasi vahshiy, ibtidoiy, shunchaki o'ldirish bilan tahdid qiladigan hamda qo'rquv uyg'otadigan maxluqlar o'laroq tasvirlanadi.

Tabiiyki, jamoa ongi yaratgan yana o'nlab tur so'zlovchi, o'ylovchi, kelajakni yoki sirlarni biluvchi maxluqotlar ham bor. Ular qishloq kishilari og'zida emas, umummilliy ertak-u masallarda, hikmat-u matallarda yashab kelishadi, shu sababli umri yana-da uzunroq, qilar ishlari ham foydaliroq. Kenja botir tushida ko'rgan suluvni izlab borayotgan mahali unga duch kelgan ilonni, qanotli chumolini yoki toshbaqa bolasini eslang. Bu uchovlon ham o'z qavmi podshohining farzandi bo'lib chiqadi. Bir onning o'zida qirq yerda hozir-u nozir, bir-birining o'yini bilib turadigan qirq kishi rivoyati-chi? Shular qatorida yana boshqa rivoyatlar ham borki, ular ham noma'lumlikni bilishga ishora qiladigan, Tangri taoloning maxfiy sirlarining eshiklari ochilgan kishilar haqidadir. Bir nima deyishga cho'chiysiz: ular tamomila o'zga vazifa ila umr deb atalmish daryo bag'rida nur sari intilgan yoki o'zlari ham nurga aylangan

inson bolalaridirlar. Unday kishilarining xayoliy yaratilarga duch kelishini tasavvur qilib ko'ring-chi? Shunda el yaratgan u maxluqlarning barchasining hurriyati yo'q ekanini ko'rasiz.

Ya'ni har ish Parvardigordandir deydigan, inson bolasi erishishi mumkin bo'lgan yuksakliklarga erishganlar ham bor. Biz tilga olgan bebaxt yaratilgan ana shunday kishilarga duch kelsa-chi?

– Ey baxtsiz, haqir-u sho'rlik mavjudotlar! Sizlarni kim yaratdi?

– Kishilarning o'zlari!

– Odam bolasi hatto bir kurmak o'tini yarata olmaydi. Siz moddiylashgan xayoldan iboratsiz. Shu holingizda nimalarni ifoda qilmoqdasiz?

G'oyat zalvorli, cho'ng bu so'zlarning oddiy tilga tarjimasini shuki, sizni Olim-u Mutlaq yaratmadi. Sizlarni johillik, ilmsizlik, zulm va bedodlikning qora kunlarida yashagan kishilarning o'y-xayoli paydo qildi.

– Modomiki shunday ekan, barchangiz Olamlar Murabbiyiga imon keltiring hamda yaratilish makonlaringizga qayting!

\* \* \*

Yuqorida nomlari va xususiyatlari sanab o'tilgan bir nechta qiyofa bilan transmilliy yaratilarning Markaziy Osiyoga yurishi nihoyasiga yetadi.

Yevropa u mavjudotlar payqalgan yerlarda imon-e'tiqod susayganidan bahs etsa, turkiylar ularni osongina tarbiya vositasiga aylantirib qo'yishadi. Shu tariqa ular ushbu o'lka xalqlarining dastyoriga aylanib ketishadi.

Asrlar o'tsa-da, dengiz va ummonlar orti hududlarining boshqa mavjudotlari bu o'lkaga kirib kelmaydi. El o'zga xalqlarning supurgi minib uchadigan yalmog'izlarini, og'zidan qora tuproq sohadigan hamda ko'zlarini ocholmaydigan tuproqxo'r mavjudotlarini qabul qilmaydi. O'z xayoliy yaratilganlari esa asrlar osha olib o'taveradi.

Ha, dunyo uzra oyday balqqan turkiylar o'zlarining bir qancha xayoliy yaratilganlari shu tariqa asrab-avaylab kelishmoqda. U mavjudotlarning asrlar mobaynida qilib

kelgan ishlarini tartiblab chiqsangiz, quyidagi manzaraga duch kelasiz.

– Tunda qishloqdan chiqqan yolg‘iz bolalarni olib ketadi, kattaroq kishilarga duch kelsa, aqldan ozdiradi.

– Yolg‘iz yurganlarga ko‘rinadi

– Tunda ko‘rinadi.

Shu, xolos. U yumushlarning mohiyatiningina qoldirsak, mana bunday ko‘rinishga keladi:

– Qishloqdan chiqsa...

– Yolg‘iz yursa...

Tunda yursa...

Ya‘ni to‘pdan ayrilib, tunda yolg‘iz yurgan kishi aqldan ozadi. Sababi, qishloqda yashayotgan kishilar o‘zlari bilib-bilmagan holda jamoa ongi hosil qilishadi. U umumiy, barchani bir xilda o‘z chegarasida tutib turadi. Tanholikka va daydushga mahkum u yaratilgan aynan shu jamoadan ayrilib chiqqan kishini aqldan ozdirishadi.

– El-ulus bolalariga jipslikdan, birlikdan dars beradi (“Qishloqdan tashqariga chiqma, tunda ovloqqa borma”).

– Homilador xotinlarni asrab-avaylashga chorlaydi (“Oldiga begona kirmasin”).

– Elning umum shuuridan ayrilma, yo‘lingdan ozma (“Yo‘qsa, aqldan ozasin”).

– Zulm qilma, kishini yerga urma, haqini yema (“Oldingdan mesh chiqib keladi yoki soya kelib so‘roq qiladi”).

Ya‘ni ular ham qo‘rquv hosil qilishadi. Lekin u – ibtidoiy, vahshiy qo‘rquv emas, balki yo‘lga soluvchi, tarbiyalovchi, yaratuvchi qo‘rquvdir.

### *Xotima*

– Axir, Oy bizniki emasmidi? – deb so‘raymiz ko‘pni ko‘rgan kishilarimizdan.

– Albatta, bizniki-da, – ishonch bilan javob qilishadi ular. – Shuncha asrdan beri bizniki bo‘lib kelgan, endi o‘zgarib qolarmidi?

“Qanday ajoyib, xayolchan elsan” degingiz keladi. Axir, birgina oyga shuncha ko‘p sifat berasanmi? To‘lin oy desam, uni qizil oy deb ham ataysan. Oyning qizili qanaqa ekan desam, yashil oyni kashf etibsan. Yashili ne deb o‘ylab tursam, moviy oyni ham o‘ylab topibsan. Uyam mayli, biroq marmar oying nimasi? Qizlaringga

Durkunoy, To‘lg‘anoy, Oybachin kabi ismlarni qo‘ygan ham sensan, yangi oyni, yarim oyni sevib-suyib ardoqlagan ham o‘zingsan...

Minglab yillardan buyon mangu yashab kelayotgan ko‘rkli el, yana nimalarni yaratgansan?

Shunday ajoyib tuyg‘ular aro, uning shonli bag‘rida yurgan mavjudotlarga qarata ikki og‘iz so‘z aytsak arziydi.

– Ey musaffo bolaligimizning beozor yaratilari, sodda kishilarning xayol mahsullari! So‘zlovchi, qo‘rqituvchi, xabar tashuvchi, musibatning oldini oluvchi, baraka keltiruvchi, savob hosil qiluvchi, hayoti dunyoning jon baxsh etilgan unsurlari! Barchangiz xush qoling! – deymiz yoshlik onlarimizda qalbimizni qo‘rquv ila to‘ldirgan, soyalar, ko‘lankalar, kimsasiz makonlar, daraxtlar, dasht-u cho‘l oralab hanuz yashab kelayotgan turli-tuman, ammo qo‘rqinchiligi yo‘qolib, beozor bo‘lib qolgan u mitti yaratilarga qarata.

Endilikda ular shunchalar sodda, shunchalar ishonuvchanki, tasavvurdagi akslariga qarab ham zavqingiz, ham kulgingiz keladi. Ular esa bizlarga tushunmovchilik ila angrayib termilishadi.

– Ey yaratuvchilarimiz! Hukmingizga bo‘ysunib, bizga buyurgan yumushlaringizni ado etib kelmoqdamiz. O‘tmishga aylanayotgan shu kunda bizlarni qoldirib, o‘zingiz qayon ketmoqdasiz?

Javobimiz esa aniq:

– Kunbotarga...

– Kunbotarda ne bor ekan?

– Tushunmadingizmi? Buni sizga majoz bilan aytdik. Qiyomat qoyim bo‘ladigan mahshar kuniga! Qilmishlarimiz, gunoh-u savoblarimiz, tutumlarimiz, his-tuyg‘ularimiz bilan o‘sha yoqqa ketmoqdamiz.

– Xabarimiz yo‘q ekan. Nima u, qiyomat?

– Bilishingizning hojati yo‘q. Chunki u sizlar uchun emas, bizlar uchundir.

– Bu so‘zlaringizga aqlimiz yetmadi. Sizlarga bir nima deyishga ojizmiz.

– U holda, xush qoling! Abadiyan alvido!

2019-yil, fevral – 2020-yil, yanvar



Bugun badiiy asar qiziqarli voqealar tasviridan emas, balki inson ko'nglining mikrotahlilidan iboratdir. Har bir inson olam va odamiyatni o'zini anglar darajadagina anglay oladi. Qator hikoya va qissalari bilan o'quvchilar e'tiborini qozongan yozuvchi Luqmon Bo'rixonning **“Jaziramadagi odamlar”** romani ana shu yo'nalishda bitilgan asardir.

Uning kulib-kulib o'qiladigan, osongina yozilganday tasavvur qoldiradigan romani (asarlari) milliy adabiyotshunoslikda ilgari shakllangan fikriy qoliplarni sindirishi jihatidan tengsiz bir estetik hodisadir.

**Qozoqboy YO'LDOSHEV,**  
professori

# Luqmon

## BO'RIXON

1965-yilning 15-iyulida Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanining Yangiobod qishlog'ida tug'ildi. 1986–1991-yillarda O'zbekiston Milliy universiteti (ilgarigi ToshDU)ning jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Shundan so'ng “Turkiston”, “Ma'rifat” gazetalarida adabiy xodim, bo'lim mudiri, “Yoshlik” jurnali bosh muharriri o'rinbosari vazifalarida xizmat qildi.

“Begimqul katta” hikoyasi “Yoshlik” jurnalida chop etilib, ustozlar nazariga tushdi. Birinchi hikoyalar to'plami “Yalangoyoq” 1991-yili “Cho'lpon” nashriyotida chop etilgan. “Jaziramadagi odamlar” romani ikki marotaba 2005 va 2012-yillarda nashr etilgan. 2006-yili “Sirli muallim” nomli qissasi o'qituvchilar hayotidan olib yozilgan asar sifatida Xalq ta'limi vazirligi tanlovida g'olib deb topilgan. Navbatdagi 2007-yili “Xizr ko'rgan yigit”, 2009-yili

“Temiryo'l” romanlari ham muxlislar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi. Sermahsul ijodkorning 2002-yili “Tun qa'ridagi shu'la” nomli qissa va hikoyalar to'plami, 2012-yili “Buyuk ipak yo'li” badiiy-publitsistik maqolalar to'plami, “Quyosh hali botmagan” qissalar to'plami shuningdek, 2018-yili “Olov tutgan odam” romani nashr etilgan

2009-yili badiiy-publitsistik maqolalari uchun xalqaro “Oltin qalam” tanlovi g'olibi bo'lgan. Luqmon Bo'rixonning adabiyot sohasidagi xizmatlari munosib baholangan: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. 2007-yilda “Shuhrat” medali va 2012-yilda “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan taqdirlangan.



# ADABIYOT TIRIKCHILIK EMAS, TIRIKLIK MANBAI

– Sizda adabiyotga havas qachon uygʻongani, matbuotdagi ilk chiqishingiz, soʻngra birinchi kitobingiz oʻquvchilar qoʻliga yetib borgan damlarni bir eslab oʻtsangiz.

– Menimcha, har qanday qalamkashda ham ijodga havas bolalikdan boshlansa kerak. Havas esa hayratdan boshlanadi. Boshqacha taʼriflaganda, taʼsirchanlik, ziyraklik, hayrat va havas isteʼdodni namoyon etadi. Albatta, bola buni bilmaydi. Hammasi tabiiy bir tarzda kechadi. Atrofida kechayotgan voqealarga befarq qaramaydi, nelardandir quvonadi, nelardandir iztirob chekadi. Natijada, uning ongida, koʻnglida turli savollar, jumboqlar paydo boʻladi. Xuddi shu oʻzini qiynagan sir-u sinoatlarga javob topish uchun kitoblarga talpinadi. Kitoblar, eng avvalo, ertak-u dostonlar bola koʻz oldida yangidan yangi dunyolarni ocha boshlaydi. Jajji oʻquvchi koʻnglida kezingan oʻsha savol-u soʻroqlarning ayrimlariga qandaydir javob topganday boʻladi va yana mutolaada davom etadi. Kitobdan kitobga, ertaklardan hikoyalarga, hikoyalardan qissalarga oʻtadi. Nihoyat, asta-sekin u jumboqlarga javob izlovchi emas, dunyo, jamiyat oldiga savol, soʻroq qoʻyuvchiga aylana boshlaydi. Tevaragida kechayotgan jarayonlarga munosabat bildirishni istaydi. Voqelikka oʻz nuqtayi nazarini aytishga intiladi. Oqibatda, qoʻliga qalam tutadi. Ilk gʻoʻr, joʻn satrlar qogʻozga toʻkila boshlaydi. Mening ham adabiyot boʻsagʻasida paydo boʻlishimning ilk pallasi xuddi shunday kechgan, desam boʻladi. Eng muhimi, meni badiiy ijod sari yetaklagan oʻsha hayrat, oʻsha quvonch-u iztiroblar hanuz qoʻlimdan tutib turibdi deb oʻylayman.

Sheʼrga oʻxshash ilk ijodiy mashqlarim avval maktab devoriy gazetasida, soʻngra tuman gazetasi sahifalarida paydo boʻldi. Keyinchalik, oʻrta maktabni bitirgach, oliy oʻquv yurtlari tuprogʻini yalash uchun poytaxtni koʻzlab joʻnadik. Imtihonlardan yiqildik. Harbiy xizmatga ketdik. Qaytgach, yana talabalikka urinib koʻrdik. Nihoyat, bu gal amal-taqal ilashdik. Xullas, 1986-yili

Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakulteti talabasi boʻldim. Hayajonimizning, quvonchimizning cheki yoʻq. Oʻsha kezlari ijodiy muhit kuchli edi, adabiy jarayon qizgʻin kechardi. Hamsabogʻimiz Toʻxtamurod Rustamov bizdan ancha yosh boʻlishiga qaramay adabiyot olamida tuzukkina tanilib qolgan yozuvchi edi. Ilk hikoyalarimni unga koʻrsata boshladim. Toʻxtamurod bitiklarimni erinmay koʻrib chiqar, kerakli maslahatlar berar, ezib ishlatar edi. Bilmadim, hamsabogʻim yaxshi ustozmidi, yoki oʻzim uquvliroq shogird chiqib qoldimmi, xullas, adabiy qarashlarim, ijodga munosabatim ancha oʻzgarganday boʻldi. Oz-moz pishib qolganimdan koʻngli toʻlgach, galdagi mashqlarimdan bir nechasini tanlab olib, Toʻxtamurod Rustamov ajoyib kunlarning birida meni “Yoshlik” jurnali tahririyatiga boshlab bordi. U yerdagi jamoa bilan tanishtirib qoʻydi. 1987-yili “Begimqul katta” deb nomlangan ilk hikoyam “Yoshlik” jurnalida chop etilib adabiy jamoatchilikda iliq taassurot uygʻotdi.

– Qaysi ustozlarning taʼlimini olgansiz? Ular turmush tarzingizga, ijodiy faoliyatingizga taʼsir etganmi?

– Modomiki, soʻz ustozlar haqida borarkan, yuqorida aytganimdek, Toʻxtamurod Rustamni birinchilar qatorida tilga olib oʻtishim mumkin. Albatta, oʻquvchilik davrimda Eshbolta aka Xoʻjayev degan (iloyo, goʻri nurga toʻlsin!) boshlangʻich sinf muallimidan koʻp narsa oʻrganganman. Badiiy ijod borasidagi ilk ustozim sifatida oʻsha insonni mamnuniyat bilan taʼkidlayman. Keyinchalik kekkayib ketdimmi, yo tortinchoq feʼlim sabab boʻldimi, ishqilib, biror adibning etagidan tutolmadim. Kitoblar men uchun beminnat ustozga aylandi. Qoʻldan kelganicha, fahmim yetganicha oʻqib-oʻrgangan boʻldim. Adabiy uchrashuvlar payti yoxud suhbatlar davomida biror saboq olishga harakat qilardim. Masalan, taniqli yozuvchi Xurshid Doʻstmuhammad bilan gurgunlashish men

uchun juda maroqli edi. Xurshid akaning fikrga, mulohazalarga boy gap-so'zlari, qarashlari chuqur taassurot qoldirgan. U kishidan juda ko'p narsalar o'rganganman.

– *Ayting-chi, kitobga munosabat, kitobxonlik madaniyati targ'iboti masalasida fikringiz qanday?*

– 1991-yili “Yalangoyoq” degan kichkina hikoyalar to'plamim “Cho'lpon” nashriyoti tomonidan nashriyotning o'sha paytdagi rahbari, atoqli adib Nurali Qobulning alohida e'tibori ostida chop etildi. Shundan so'ng kitoblarim, turli hajmdagi to'plamlarim yorug'lik ko'ra boshladi. Shu kungacha o'ndan ortiq kitobim turli nashriyotlar tomonidan chop etildi. Hammasi ham o'z davri nuqtayi nazari bilan qaraganda katta adadlarda nashr etildi. Biroq biror do'kon yoxud sotuv rastasida turib qolganini ko'rganim yo'q. Biz kitobingizni chiqaraylik, aka, deb turadigan noshir do'stlarimiz ham ko'p. Barchalariga, fursatdan foydalanib, tashakkur bildiraman. Umumiy tarzda ifodalaganda, bir qalamkash sifatida shu paytgacha kitob chiqarish bo'yicha biror muammoga uchramadim. Ammo muammo boshqa tomonda. Poytaxtda chiqqan kitoblar, menimcha, poytaxt hududida qolib ketyapti. Joylarga yetib bormayapti. Bir gal viloyatlarning biriga xizmat safari bilan bordik. Maqsad kitobning ahamiyatini, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish, yoshlarni mutolaaga chorlash. Minbarni hech kimga bergimiz kelmaydi. Donolarcha nasihatgo'ylik qilamiz. Shunda some'lardan biri o'rnidan turib savol berdi: “Hamma gaplaringizga qo'shilamiz. Lekin sizlar aytayotgan o'sha kitoblar qani? Qayerdan topib o'qisak bo'ladi? Masalan, bizning tumanda birorta ham kitob do'koni yo'q. Daftar-paftar sotadiganlar uch-to'rt dona risolani yoyib qo'yibdi. Uni ham o'sha qalam-palamga qo'shib bergan, esam, opkemasdi”. Albatta, bu haqli savolga jo'yali javob berolmadik. Porloq kelajak haqida va'dalar berib qaytdik. Aslida, bu borada holat shunday, achinarli. Joylarda kitob do'konlari kam, borlari ham g'aribgina, ichi deyarli bo'm-bo'sh, go'yo bu magazinlar siyosiy-ijtimoiy talablarga binoan, kimningdir zug'umi bilan, nomigagina

ochilganday. Bu masalani jiddiy o'ylab ko'rish kerak. Kitob savdosi tizimini yaratish dolzarb masala! Nashr masalalarida imtiyozlar, zaruriy yordamlar qo'llanishi lozim. Aks holda, hamma ishlarimiz otga qamchi bosib, uning jilovidan tortib turganday gap.

– *Sizning qalamingizga mansub “Jaziramadagi odamlar” romani adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingandi, o'z o'quvchilarini topgani ham bor gap. Shu asarning yozilish tarixidan o'quvchilarni xabardor qilsangiz. Sabablari, turkulari, deganday...*

– G'iyosiddin, buning hammasiga yangangiz sababchi! Yangangizning aybi shuki, holi jonimga qo'ymay bozordan sopol idishlar, unga ekish uchun gul urug'i, har xil o'g'itlar sotib olishidan boshlandi. Uyga keldik. U o'sha gultuvaklarni qatorlashtirib ixlos-u ilhom bilan o'g'itlardan aralashtirib toza tuproq soldi, nihollarni qadadi. Xiyla chiqimdor qilgan bu jarayonni men iltirob bilan kuzatib turdim. Shu kuzatish asnosida sun'iy gullar, sun'iy go'zallik haqida o'ylab qoldim. Ochiqrog'i, yasama hayot, yasama an'analar to'g'risida... Xayol olis-olislarga uchdi. O'zlashtirma cho'l hududlarida yashovchi el-u xalq ko'z oldimda jonlandi. Mamlakatimizda bunday joylar ko'p. Masalan, Qashqadaryo viloyatidagi qator tumanlar o'zlashtirilgan qo'riqlar hisobidan tashkil etilgan. Aholisi tirikchilik tashvishida tog'-u toshlardan, turli shahar-u qishloqlardan ko'chib kelgan. Ular menga ildizidan qo'porilib ketgan dov-daraxtlarni eslatadi. Tosh-betondan qurilgan uylar, lotok ariqlar, tag'in allaqanday imoratlar, ochig'i, menda noxush hislar uyg'otadi. Qandaydir hamma-hammasi sun'iy, yasama. Odamlar bu yerlarda xuddi vaqtincha yashab yurganday, erta-indin yana allaqayerlarga ko'chib ketadiganday tuyuladi. Xullas, tuzum, davr zo'rma-zo'raki singdirgan an'analarga, udumlarga qorishib, tabiiy intilishlariga xilof bir tarzda hayot kechirayotgan cho'llik yurtdoshlarning turmush tarzini tasvirlash, ular orqali o'zlikdan judo bo'lish fojialarini ko'rsatish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Oqibatda, o'sha siz aytgan

“Jaziramdagi odamlar” degan romanim dunyoga keldi.

– *Adabiyotning jamiyatda tutgan o‘rnini qanday tasavvur etasiz?*

– Suvning, havoning inson tirikligida nechog‘lik zarurati bo‘lsa, adabiyotning ham jamiyat hayotida shunchalik ahamiyati bor. Shu kecha-kunduz qay bir davlatda qandaydir virus paydo bo‘libdi. Eshitganlar, vahimaga tushganlar og‘iz-burniga bir parcha niqob taqib oldi. Badaniga qandaydir em, dori-darmon yuborayotganlarning ham soni ming. Go‘yoki shu yo‘llar bilan o‘zlarini o‘sha balodan himoya qilmoqchi. Jon shirin-da: hamma bilganicha, aqli yetganicha qattol kasallik oldini olish ilinjida chopadi. Xo‘sh, odamzodning ma‘naviyatiga, qalbiga o‘shanday ofatlar xuruj qilsa-chi?! Uni qanday niqob bilan qo‘riqlay olamiz? Odamning ong-shuuriga, tafakkuriga darigan o‘latning biror emi, muolaja usuli bormi? Ha, bor. Buni oqil-u donalarimiz ming yillardan beri takrorlab keladi. Ilm, nazm, fasohat, latofat dunyoni, odamni qutqaradi, deyishadi. Bu xaloskor omillarning barchasi badiiy adabiyotda mujassam! Ha, adabiyot shunday buyuk najot, ammo ko‘p hollarda uning o‘zi yordamga, madadga, e‘zoz-ehtiromga muhtoj. Avvalo, adabiyotning o‘zini qutqarishimiz zarur! Shovqin-surondan, johillikdan, yolg‘ondan, ta‘madan, yalang‘ochlikdan asrashimiz lozim. Uni bozorga solmasligimiz kerak! Savdo-sotiqning dag‘al va sovuq muomala-munosabatlari unga to‘g‘ri kelmaydi. Axir, adabiyot tirikchilik emas, tiriklik manbai! U hayotning ham, jamiyatning ham mavjudligini ta‘minlaydi. Shuning uchun bozor ham, gulzor ham adabiyot xizmatida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

– *Umumta‘lim maktablarida Adabiyot fanini o‘qitish masalalari yuzasidan fikringiz qanday? Bu borada qanday maslahatlar, tavsiyalar berishingiz mumkin?*

– Maktab, darsliklar, adabiyot saboqlari... bular og‘ir va og‘riqli muammolar. U haqda ko‘pdan beri gapirib kelinyapti, lekin natijasi kamroqqa o‘xshaydi. Avvalo, ta‘kidlash o‘rinliki,

barcha darsliklar kabi adabiyotga oid darsliklar, qo‘llanmalar ham o‘ta islohtalab. Bolalar o‘rganishi kerak bo‘lgan bilimlar ularda aks etmagan. Mazmunan sayoz, chalkashliklar ko‘p. Xo‘p, bunisiga ko‘ndik. Adabiyot muallimlarining saviyasi qanday? Bu ham jiddiy muammo. Aksariyat o‘qituvchilar bu sohani tasodifan yoxud majburan tanlagandek taassurot uyg‘otadi. Ularning katta qismi bugungi adabiy jarayondan mutloq xabarsiz. Oxirgi paytda qanday badiiy kitob o‘qidingiz deb so‘ralsa, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanini o‘qidim, deya javob beradi. Aslida, shuni ham o‘qimagan, kinosini ko‘rgan. Menimcha, zamonaviy adabiyot o‘qituvchisi zamonaviy adabiy jarayondan xabardor bo‘lishi shart. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Adabiy jarayon nafasi anqib turgan “Sharq yulduzi”, “Yoshlik”, “Jahon adabiyoti” kabi jurnallar, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, “Kitob dunyosi” singari gazetalar har bir maktabga, hech qursa, bir donadan yetib borishini ta‘minlash zarur. Majburiy obuna mumkin emas, degan gapni bayroq qilib, ko‘pgina joylar avvallari bir dona-ikki dona olib turadigan nashrlariga ham yozilmay qo‘yishdi. Menimcha, majburiy ta‘lim bor ekan, majburiy obuna ham bo‘lishi kerak. Aks holda, majburiy ta‘limdan ko‘zda tutilgan murod-maqsadga to‘laqonli yetisha olmaymiz. Shuningdek, barcha oliy o‘quv yurtlarida, test sinovlaridan avval talabgorlar insho yozish imtihonidan o‘tishsa, ayni muddao bo‘lard. Chunki insho yoshlarning nafaqat bilim saviyasini, balki o‘z fikrini yozma tarzda ifodalay olishini ham ko‘rsatadi. Menimcha, bo‘lajak oliy ma‘lumotli mutaxassisga bu jihat o‘ta muhim.

– *Yosh ijodkorlarga tilaklaringiz.*

– Yoshlarga, eng avvalo, jo‘rovoqlik emas, hur ovoqlik tilayman. Ulkan-ulkan dardlar, og‘riqlar tilayman. Aytmay turib, ayta olish, ko‘rmay turib, ko‘rsata olish san‘atini tilayman. Yosh ijodkorlarimiz doimo ilhomdan entikib, iztirobdan lazzatlanib yursinlar. Oq qog‘ozga hamisha oppoq qalb bilan yuzlansinlar. Sog‘lik, omonlik ularni aslo tark etmasin!

**Suhbatdosh: G‘iyosiddin O‘NAROV**



**Dilrabo MINGBOYEVA**

1980-yili tugʻilgan.  
Oʻzbekiston Milliy  
universitetining jurnalistika  
fakultetida tahsil olgan.  
“Sogʻinch”, “Yomgʻirzor” nomli  
sheʼriy toʻplamlari chop  
etilgan.

\* \* \*

Kamalak rangidan jilo,  
kapalakdan nafislik olib,  
suvlardan soʻrab shaffoflik,  
soflikdan koʻchirib nusxa,  
gul bargidan gʻisht terib,  
quyosh yogʻdusi-la yopib tom,  
asl saroy qurdim, doʻstlarim,  
shoh – qalbm,  
fuqaro – tuygʻular uchun.

Yuragimga vatan yaratib,  
asramoqqa etildim mahkum:  
– Artib kiring oyogʻingizni...  
Qoʻlingizda gul bilan keling.  
Tartiblang kiyim, sochingiz...  
Toʻxtang!  
Yuvib oling xayolingizni!

# Yuvib oling xayolingizni!

## Musofir

Bu shaharda  
qimtinmasdan kulish mumkinmikin?!  
Tanib qolmasmikin iztirob  
yuzimdagi oʻz imzosi –  
ajinlardan.  
Surish mumkinmikin  
yorugʻ xayollar?!  
Sirim sotmasmikin  
sochim –  
qora gʻamning ayyoqchilari.  
Bu shaharda  
atigi bir lahza  
ayro tushish mumkinmikin  
ayriliqdan...

\* \* \*

Peshonangdagi yozuqni oʻqirkan qismat,  
Ilgʻamay oʻtkazib yubordi meni –  
Xatoni.

\* \* \*

Sen baxtlisan, Sizif, toshing pastga yumalar.  
Men-chi, bir lahzada turib qolganman.  
Gʻamning choʻqqisiga chiqsam-da, yumalamas –  
TOSH QOTGAN KOʻZ YOSH.





\* \* \*

Yillarni ilib qo'ydim,  
Uchirib ketsa ketar shamollar.  
Yillardan ham battar shoshyapman.  
Shamoldan ham battar shoshyapman.  
Bir nafasni ikki shukrga ko'paytiraman.  
Hijronni bo'laman ikkiga.  
Ikki barobar ko'p tikilaman  
Onamning yuzlariga.  
Tiriklik madhiyasi –  
ajinlarin yodlab olaman.

Hayotni yengaman  
Sevib ikki barobar...

\* \* \*

Hayotsevar bahor  
va  
qaynoq muhabbatli yoz  
edik ikkimiz.  
Parishon sochlari to'zib  
keldi kuz –  
ma'yus qiz.

Yomg'irman. Tomaman chak-chak:  
– Ketsin kuz!  
Shamolman. Uvlayman:  
– Ketsin kuz!  
Daraxtman. Sochlarim yulaman:  
– Ketsin kuz!

Kechir, kuz.  
Men ketolmayman.  
Bahorman.  
G'amni ko'tarolmayman.

## SABR

O'g'lim Nadimbekka

1  
Bo'ronga chidadim.  
Ko'nglimni yoritgan  
shamni o'chirdi.

Onam meni kutardi.  
Sog'indim. Keyin  
uni unutdim.

Sabr – vaqt.  
O'tib ketadi.  
Jumladan, men ham.

2  
Nadimim – najotim,  
Sabr qilma.  
Ulg'ay! Gulla!  
Sev!  
Iztirobni  
aylantir gulga!

Sabr – kuz.  
Ortidan faqat  
qish kelar.

Nadimim – taskinim,  
sabr qilma g'amga,  
tinimsiz,  
muttasil,  
har laha  
men uchun  
baxtli bo'!

## BITTA-BITTA SO‘ZDAN YARALAR DOSTON

Jahon adabiyoti durdona asarlarini o‘qib hayratga tushganimda, ularni yurtdoshlarim ham o‘qishini va hayratlanishini juda-juda istayman. Dunyo kitobxonlari sevib o‘qiyotgan shunday asarlar tarjimasiga kirishganda, avvalo, ona tilimizda ularning asliyatday bo‘lishi kerakligi haqida o‘ylayman. Tarjima qilmoqchi bo‘lganim asarni qayta-qayta o‘qir ekanman, uni o‘girish hayotiy ehtiyojimga aylanadi, asar ona tilimizda oddiy va samimiy bo‘lishi uchun harakat qilaman.



Dog‘iston xalq shoiri Rasul Hamzatovning “Onalarni asrang” dostonini 1979-yilda ilk bor o‘qigan kezlarim asarning teran mazmuni va badiiyligi meni hayratga solgandi. Shu dostonni, albatta, tarjima qilishim kerak degan ezgu niyatni dilimga tugdim. Lekin o‘sha vaqtda bunday ulug‘vor ishni amalga oshirish uchun menda na bilim, na malaka bor edi. Muhimi, Dog‘iston haqida hali to‘la tasavvurga ega emasdim. Bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun Dog‘iston, avar onalari, yana-da aniqroq aytsam, shoirning onasi Xandulay momo hayoti haqidagi ma‘lumotlarni o‘rgana boshladim. Tabiiyki, bu boradagi bilimimni oshirishga shoirning mashhur “Mening Dog‘istonim” asari eng yaqin ko‘makdosh bo‘ldi.

“Mening Dog‘istonim” asarini qayta-qayta o‘qir ekanman, Xandulay momoga, umuman, onalarga bag‘ishlangan lavhalarga alohida e‘tibor qaratdim va shoirning dostonni yozishdan maqsadi tobora ayonlasha boshladi: “Men o‘z onam haqida emas, jahondagi mehribonlik timsoli bo‘lgan barcha onalar haqida fikr yuritmoqchiman, har biri va hammasi to‘g‘risida, toki hech kim onasi tirikligida befarq yoki e‘tiborsiz bo‘lib, keyin vijdon azobida qiynalib, onasining qabriga mung‘ayib boqmasin”. Darhaqiqat, ko‘z oldimda Xandulay momo qiyofasida ertadan-kechgacha tinim bilmaydigan o‘zbek onalari ham gavdalandi. Demak, doston tarjimasini onalarimizga, kitobxonlarimizga manzur bo‘lishi uchun allalarimizday sodda va ravon bo‘lishi kerak.

O‘qigandan ko‘ra yozganda ko‘proq yodda qoladi. Shuning uchun “Mening Dog‘istonim” tarjimasini boshlab yubordim. Bildimki, Dog‘istonning mashhur shoiri Hamzat Sadasaga umr yo‘ldosh bo‘lgan, o‘ziday mehnatkash qizni va to‘rtta zabardast o‘g‘ilni voyaga yetkazgan Xandulay momo shoirning quyidagi tavsifiga mos ona ekan: “Onam oddiy ayol edi, o‘sha g‘alati

zamonda va insonlar taqdiri g'alati hal qilingan tuzumda tog'liklarga xos fe'l-atvorini, ayollik sha'nini saqlab qoldi va onalar zimmasiga tushgan vazifani sadoqat bilan bajardi". Lekin unutmazligimiz kerak, har qanday ona bizni dunyoga keltirgani, oyoqqa turg'izgani va el qatoriga qo'shgani uchun hurmat-izzatga sazovor.

Keyinroq Rasul og'aning dostoni haqidagi "Buyuk tuyg'u" maqolasini o'qidim. Unda dostonini o'zining tarjimonlari emas, qalmoq shoiri David Qug'ultinov asarlari tarjimoni sifatida tanilgan Yuliya Neyman rus tiliga o'g'irgani to'g'risida ham yozilgandi. Bu meni Neyman tarjimalarini o'qib chiqishga undadi va 70 yoshlar atrofidagi mohir tarjimon o'zining boy tajribasiga onalik mehrini qo'shib dostonni rus tiliga o'g'irganiga amin bo'ldim. Olamga mashhur dostonni ona tilimizga shunday yuksak saviyada tarjima qilish naqadar mas'uliyatli ijod ekanini yanada teranroq tushundim. Axir, doston 1600 misradan ortiq bo'lib, muqaddima, har biri besh bo'limdan bo'lgan uchta qism va onalar haqidagi 13 ta qo'shiqdan iborat edi.

Deydilar ki, tarjimaga qancha yaxshi tayyorgarlik ko'rilsa, shuncha oson bo'ladi. Mana, "Mening Dog'istonim" tarjimasini ham tugadi, tajribam ham oshdi, go'yo doston tarjimasiga tayyorman. "Onalarni asrang" dostonini takror-takror o'qiyapman, qani tarjimini boshlay olsam. Balki, bu tabiiy holdir. Rasul og'aning o'zi ham dostonni uzoq va qiyinchilik bilan yozgan: "Doston olam yuzini ko'rish uchun oson yo'lni bosib o'tmadi. O'zim ham dostonni osongina yozgan emasman". Chunki shoir ta'kidlaganday, o'zingni dunyoga keltirgan onangni mavzu deb atash yaxshi emas. Ona – mehr-muhabbat ko'rsatish kerak bo'lgan ulug' zot!

Doston 1951-yilda shoirming otasi vafot etgan og'ir lahzalarni tasvirlashdan boshlanadi. Onasi vafot etgan 1965-yil tafsilotlarini qalamga olganda dod-faryod chekadi. Agar dostonning avar tilidagi qo'lyozmasiga 1976-yilda nuqta qo'yilganini inobatga olsak, Rasul Hamzatovday beqiyos iste'dod sohibi dostonni chorak asrdan ko'proq vaqtda yozgan.

Shunday ekan, menday oddiy qalamkash "Onalarni asrang" dostonini ko'k choy ichib, sharillatib tarjima qilib tashlay olmasdi. Umuman olganda, tarjima qilish rohatlanadigan jarayon emas. Tarjima ham boshqa ijod turlari kabi mashaqqat chekishni talab qiladi. Rohatlanish esa tarjima ko'ngildagiday chiqqandan keyin bo'ladi.

She'r-dostonlarni birinchi yil tarjima qilayotganim yo'q, Rasul Hamzatovning "Bitta-bitta ipdan to'qilar gilam, bitta-bitta so'zdan yaralar doston", degan hikmati to'g'riligini ijodiy tajribamdan juda yaxshi bilaman. Gilam aniq ketma-ketlikda to'qiladi, she'rda, ayniqsa, doston tarjimasida ketma-ketlikka rioya qilib bo'lmaydi. Shuuringizga quyilib kelgan tarjima misralarni ular dostonning qaysi qismida bo'lishidan qat'i nazar yozib qo'ygan ma'qul. Chunki daryodan bir marta oqib o'tgan suv qayta oqib o'tmaganday o'sha misralar xayolingizga qayta kelmasligi mumkin.

Tarjimini boshlay olmay qiynalib yurgan kezlarimda, hamkasb rus ayolining o'ttiz yillar ilgari aytgan hikoyasi esimga tushdi. Uni tug'uruqxonaga olib borishadi. Tug'uruq qiyin kechayotgani uchun doya unga uqtiradi: "Dod-voy sol, baqir, oson bo'ladi". U uyalganidanmi, bardoshli bo'lgani uchunmi miq etmay farzandini dunyoga keltiradi. "Tabriklayman, qiz ko'rdingiz", – deydi doya. Bu xabarni eshitgach, u tug'uruqxonani boshiga ko'tarib dod-voy soladi. "Tug'masdan oldin shunday baqirishing kerak edi, endi nega yig'layapsan?" – deb so'raydi doya. "Qachondir qizim ham shu joyga keladi, shuni o'ylab azob chekayapman", – degan ekan u. Qarang, yosh ona endigina dunyoga kelgan qizining kelajagini o'ylab qanday azob chekyapti?! Darhol, doston oxiridagi onalar haqida qo'shiqlar qismini ochib, birinchi qo'shiqning to'rtinchi to'rtligini o'qidim va tarjima qildim.

*Qizim tug'ilgan kun yodimda hamon,  
Qanchalar quvongan edingiz, ona.  
Bugun qizim qizli bo'ldi, onajon,  
Nabirangiz ko'rmay ketdingiz, ona.*

Gapni boshladingmi, oxirigacha ayt! Endi tarjima qanday davom etgani to'g'risida yozay.

Muqaddimaning birinchi to'rtligini tarjima qildim, ikki kundan keyin beshinchi to'rtligini, so'ng yettinchi to'rtlikni. Besh kun deganda o'ttiz olti misradan iborat muqaddima tarjimasini tugatdim. Bu menga ijodiy quvvat bag'ishladi. Doston oxiridagi onalar haqida qo'shiqlarga o'tdim. Bunda ham qo'shiqlar tartib raqamiga qaramadim. Oldin beshinchi, keyin o'n ikkinchi, so'ng oxirgi – o'n uchinchi qo'shiqni tarjima qildim. Va birinchi qo'shiq tarjimasini nihoyasiga yetkazdim. Qolgan qo'shiqlarning tarjimalari ham birin-ketin qog'ozga tushdi.

Birinchi qismni o'qib, oxirrog'idan bitta to'rtlikni tarjima qildim.

*Akam olgan kuni birinchi maosh  
Sovg'a qilgan edi onamga ro'mol.  
Onam ko'zlarida ko'rdim sevinch yosh,  
Axir, bitta o'g'li topgandi kamol.*

Bu qismdan bir necha to'rtlikni tarjima qilgach, uchinchi qism tarjimasiga kirishdim. Baribir tartibga rioya qila olmadim. Tarjmani ikkinchi bo'limidan boshladim. To'rtinchi, uchinchi va beshinchi bo'limlar tarjimasini tugatgandan keyingina birinchi bo'limga qaytdim.

Birinchi qism tarjimasini birinchi bo'lim yettinchi to'rtligini tarjima qilishdan boshladim. Keyin o'ninchi va o'n birinchi to'rtliklarni. So'ngra ketma-ketlikka qaramasdan boshqalarini. Oxirida beshinchi to'rtlikni. Muhimi, bu bo'limni bir kunda tarjima qildim. Boshqacha aytganda, bugungi ishni ertaga qoldirib bo'lmasdi. Quyidagi to'rtliklarni o'qib, bunga o'zingiz ham amin bo'lishingiz mumkin.

*– Senmi, o'g'lim? – uning ko'zlarida nur,  
Yalt etib chaqnadi va yana so'ldi.  
Bu tun xotiramdan o'chmas bir umr.  
– Mana, vidolashuv vaqti ham keldi.  
O'lim soati ham keldi birpasda,  
Mening paymonam ham to'ldi birpasda.  
O'g'lim, uyning fayzi – onangni asra...  
O'g'lim, uyning fayzi – onangni asra.  
Jimlik cho'kdi. Nahot ko'z yumdi otam...  
Nahotki vasiyat edi bu misra?!  
Shu payt birdaniga chor atrof, olam  
Shu so'zni takrorlar:  
– Onangni asra!*

*Men bilan qo'shilib yig'ladi osmon,  
Yomg'irdan namiqdi tog', daraxt, maysa...  
Tomdan oqayotgan tomchilar nolon,  
Shu so'zni takrorlar:*

*– Onangni asra!*

Ertasi kuni ijodiy kayfiyatda birinchi qismning beshinchi – “Men onamni asray olmadim” bo'limining tarjimasini boshladim. Avvalroq bu bo'limning bitta to'rtligini tarjima qilganim uchun ruhiga kirishim oson bo'ldi va o'n ikki soat ichida o'n sakkizta to'rtlikni tarjima qildim. Aslida, bu bo'limni shiddat bilan tarjima qilmaslikning o'zi mumkin emasdi.

*Ona ketsa, qalbdan bitmas jarohat,  
Ona ketsa, qalbni ezadi kadar.  
Onalarni asrang – bu mangu da'vat!  
Onangni asragin farzandsan magar!..  
Odamlar! Qalbingiz qoplamasin zang,  
Qadrlang g'animat har bir pallani.  
Munis onalarni asrang-avaylang,  
Eslab turing, ular aytgan allani.*

Ikkinchi bo'lim tarjimasini nisbatan oson kechdi. Uchinchi bo'lim qirq sakkizta to'rtlikdan iborat bo'lgani uchun biroz qiynab qo'yganligi rost. To'rtinchi bo'lim tarjimasini chinakamiga qiynadi. Qancha urinmayin birinchi to'rtligini oxirida tarjima qildim. Unda urush tugagani to'g'risidagi xushxabar ajoyib misralarga ko'chgandi.

*Yoqimli xabardan uyg'ondi dunyo,  
Odamlar ko'z ochdi misoli ohu.  
Yana Quyosh tog'lar, cho'qqilar aro,  
Kamalak ranglarda taratdi yog'du.*

Har bir asarning qalbi bo'ladi. “Onalarni asrang” dostonining ikkinchi qismi – “Onajonlar aytgan allalar” uning qalbi, urib turgan yuragidir. Rasul Hamzatov ta'biri bilan aytganda: “Onalar allasi – insoniyat yaratgan qo'shiqlarning ibtidosi”. Shoir allaning hayotimizdagi, o'z hayotidagi o'rni haqida shunday yozgandi: “Onam beshigimni tebratib aytgan alla qulog'im tagida jaranglamagan biror kun, biror daqiqa bo'lmagan, desam mubolag'a emas. Bu alla mening barcha qo'shiqlarimni allalab ulg'aytirdi”.

Ikkinchi qismning birinchi bo'limini ketma-ketlik bo'yicha tarjima qildim va bundan o'zim



ham hayron qoldim. Ikkinchi bo'limga o'tishim bilan qiyinchilikka duch keldim. Bosh qismini tarjima qilib bo'ldim, ammo harchand urinmayin "Onam gilam to'qiyotganda shunday qo'shiq aytardi" she'riga tishim o'tmadi. Xuddi shunday uchinchi bo'limning bosh qismlarini tashlab o'tdim va oxirgi she'rini tarjima qildim. Bu tarjima ga yana-da jiddiyroq yondoshishimni talab etardi. To'rtinchi va beshinchi bo'limlar tarjimasini aniq ketma-ketlikda yakunladim. Katta qiyinchilik bilan ikkinchi bo'limda tashlab ketgan she'r tarjimasini nihoyasiga yetkazdim.

Nafas rostdash uchun ikkinchi qismda tarjima qilgan she'rlarimni oqqa ko'chirdim. Dam oldim, tongda turib uchinchi bo'lim o'rtasidagi "Onam munchoq toshlar terganda shunday qo'shiq aytgandi" she'ri tarjimasiga kirishdim. Aniq ketma-ketlikda tarjima qilishga muvaffaq bo'ldim. Ayniqsa, oxirgi ikkita to'rtlikni tarjima qilganda yayrab ketdim.

*Onam ko'kka qarab qildi iltijo:  
Baland bo'lsin burgut o'g'lim parvozi.  
Hamisha taratsin ajoyib navo,  
Aziz Vatanining kuylagan sozi.  
Yolvorib so'rayman boshimni egib:  
Xudoyim, o'g'limga bo'lg'in mehrison.  
O'g'lim she'rlarini o'qisin sevib,  
Butun Dog'iston va keng olam-jahon.*

Shu o'rinda Rasul Hamzatovning quyidagi hikmatli so'zlari esga tushadi: "Ona – biz uchun Yer yuzidagi Xudoning vakolatli insoni. Dindor kishilar bejiz ta'kidlamaydi: faqat onalarning iltijosi Yaratganga to'la-to'kis yetib boradi". Biz bu naqlning ayni haqiqat ekanligini ko'rib-bilib turibmiz. Xandulay momoning iltijosi Yaratganga to'la-to'kis yetib bordi, o'g'li Rasul Hamzatov buyuk shoirlar qatoridan o'rin oldi. Endilikda uning asarlarini Dog'istongina emas, butun jahon sevib o'qimoqda va bundan keyin ham sevib o'qiyveradi.

Doston tarjimasiga qaytsam, hali quvonishimga erta edi. Chunki uchinchi bo'limning boshidagi she'r tarjima qilishimni kutib turardi. Mana endi chinakamiga g'ayrat ko'rsatadigan payt kelgandi. She'rni aniq ketma-ketlikda tarjima qila boshladim. Oxirgi misrasining

ko'ngilday chiqishi qiyin kechdi. U dostonidagi 1600 dan ortiq misraning oxirgisi bo'lgani uchun, albatta, yaxshi chiqishi kerak edi. Xandulay momoning onasi qiziga tilaklari nihoyasida nima deyishi mumkin, umuman, ona-buvilarimiz farzand-nevaralariga nima deyishadi? Bu savolga javobim aniq bo'ldi: "Ular uzundan-uzoq duo qilishadi". Ha, onalar farzandlariga tilaklarini uzundan-uzoq duo bilan nihoyasiga yetkazishadi. Buni hassos shoir Rasul Hamzatov ham, tarjimoni Yuliya Neyman ham mendan yaxshiroq bilishardi. Lekin o'sha zamonda duo qiladi, deb yozib bo'lmasdi. Men tarjimani nihoyasiga yetkazdim.

*Toshlardan so'rayman baxtingni, bolam,  
Yurar yo'ling bo'lsin ravon va porloq.  
Shunday der edilar menga ham onam  
Va duo qilardi uzundan-uzoq.*

Tarjima tugagan bo'lsa ham bu hali xomaki qo'lyozma edi. Endi oqqa ko'chirish, kompyuterda yozdirishlar, nashrga tayyorlashlar boshlandi. Bu jarayonlarning har birida to'ldirishlar bo'ldi, ayrim misralarni qaytadan yozdim. Qo'lyozmani kitob holiga keltirish uchun yana ishlashimga to'g'ri keldi. Nihoyat, 2012-yil 10-may kuni "Yangi nashr" nashriyotidan "Onalarni asrang" kitobining nishona nusxalarini oldim. Bu o'ttiz uch yillik ijodiy izlanishlarim samarasi edi. Albatta, quvondim. Rasul og'a ta'kidlaganday: "Har qanday kitob avvalo kitobxon uchun yoziladi". Men ham bu dostonni avvalo o'zbek onalari, o'zbek kitobxonlari uchun tarjima qildim. Meni tarjima jarayonida Rasul Hamzatovning quyidagi qanotli so'zlari ilhomlantirib turdi: "Tarjimon do'stim, qo'lingni tashla, yaxshisiga ham, yomoniga ham birga javob beramiz". O'zingiz ayting, ustozning shunday ishonchi va ruhiy qo'llab-quvvatlashlaridan keyin men dostonni tarjima qilmasligim mumkinmidi?!

**Asror MO'MIN,**  
shoir va tarjimon,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi*



**Mashhura  
ABDURAYIMOVA**

*Abdulla Oripov nomidagi  
davlat ixtisoslashtirilgan  
maktab-internati o'quvchisi*

## Vatan

*Ona, siz Vatanmi? Yo Vatan sizmi?  
Arosatda qolar o'ylarim nechun.  
Siz boshim silaysiz parvona bo'lib,  
U esa o'padi tovonim uchun.*

*Vatan, sen onammi? Yo onam senmi?  
Bir tuyg'um mujassam ikki bo'lakda.  
Bir-birin rad etmay ikkisi mudom  
Jonimdek yashaydi sohir yurakda.*

*Mag'rur tog'laringga qilgayman ta'zim  
Poyida, asrlar, bog'lar ham chaman.  
Men seni sevishtni, sodiq bo'lishni  
Ulug' tog'laringda o'rgandim, Vatan.*

*Qalamimga qo'nib, ilhom parisi  
Sarafroz hislarim olsalar xabar,  
Men baxtli sezardim musavvirlardek  
Ona vatan rasmin chizolsam agar.*



**Muxlisa  
ABDULLAJONOVA**

*Erkin Vohidov nomidagi  
davlat ixtisoslashtirilgan  
maktab-internati o'quvchisi*

## Osmondan ilohiy bir yog'du tushdi

*Osmondan ilohiy bir yog'du tushdi,  
Zulmatlar tirqirab qochdi dilimdan.  
Nurafshon orzular meni-da quchdi,  
Oldinga boshladi tutib qo'limdan.*

*Osmondan ilohiy bir yog'du tushdi,  
Qalbim ummonida limilladi nur.  
Ruhim qush misoli balandlab uchdi,  
Jon-u jahonimga to'ldirib huzur.*

*Osmondan ilohiy bir yog'du tushdi,  
Bildimki, bu menga Xudodan ehson.  
Bir ezgu duoga tilim qovushdi:  
"Shu yog'dudan qo'yma meni, Xudojon..."*





**Mashhura  
BOTIROVA**

Muhammad  
Yusuf nomidagi davlat  
ixtisoslashtirilgan  
maktab-internati o'quvchisi

## Seva olsam

Qaldirg'ochlar janubga ketib,  
Bo'm-bo'sh qoldi shiftda loy uycha.  
Sovuq kunda qolsa-da qotib,  
Kirmas edi uyga musicha.

Buni ko'rib bo'lgandim hayron  
Onam aytib berdi bir matal:  
"O'zga yurtida saqlagandan jon,  
O'z uyida o'lmoqlik afzal".

Chaqib ko'rib matal mag'zini,  
Mehrim oshdi bu qushga chunon.  
Shu qushchalik sevensam seni,  
Baxtlidirman, jon O'zbekiston.



**Nargiza  
MATQURBONOVA**

Muhammad Rizo Ogahiy  
nomidagi davlat ixtisoslashgan  
maktab-intenati o'quvchisi

## Xorazima bir galing

Biram ajib shevasi,  
Boldan shirin mevasi,  
Galar inson hovosi  
Xorazm diyorina.

Mashhur tuxumbaragi,  
Uzun gujum-daraki,  
Jahona eng garagi  
Xorazm diyorida.

Minori biram uzun,  
Go'rsang qamashar go'zing,  
Tugamas ta'rif-so'zing,  
Xorazm diyorina.

Qani, galing, go'ring bir,  
Hayratdan haz atasiz.  
Shayx Najmiddin bovodan  
Duo alip getasiz.



Pokiza poetik  
yuksaklikda shoirlar  
ikkiga: bevosita va bavoita  
shoirlarga ajraladilar.  
Muhammadjon Rahmonov  
– bevosita shoir. Bu  
degani, uning yuragi shoir  
demak. Uning ko'pgina  
va hal qiluvchi she'rlari  
bevosita she'rlar bo'lib, ular  
she'riyatining ona tilida  
yozilgan.

**Bahodir SODIQOV,**  
adabiyotshunos

# Muhammad

## RAHMON

1949-yilning 18-noyabrida Qashqadaryo viloyatining Kitob tumaniga qarashli Palandara qishlog'ining Ovlath mahallasida tug'ilgan. Ota-onadan o'n yoshida yetim qolgan Muhammad mehribonlik uyida tarbiyalanadi.

Keyinchalik bu yerdan bir guruh bolalar Kitobdan Termizga ko'chirilib, Surxondaryoda ta'lim-tarbiya olishadi. Bolalar uyidagi o'smir iste'dodini erta payqagan shoir Tesha Saydali Muhammadni o'z tarbiyasiga oldi. Yuqori sinfga ko'chgan Muhammad Rahmon Tesha Saydalievning tavsiyasi bilan "Surxondaryo haqiqati" viloyat gazetasida adabiy xodim bo'lib ish boshladi. Maqola, she'r, lavhalari yosh ijodkorni elga tanitdi.

Muhammad Rahmonning "Bolalik" deb nomlangan ilk she'ri 12 yoshida "Gulxan" jurnalida bosilib chiqdi. U 1967–1972-yillarda O'zbekiston Milliy universiteti (ilgarigi ToshDU)ning jurnalistika

fakultetida tahsil oladi. Shoir 1972–1980-yillari "Cho'lpon" nashriyatida muharrir, bo'lim mudiri bo'lib ishladi. 1980-yildan umrining oxirigacha turli idoralarda mas'ul vazifalarda xizmat qildi. Muhammad Rahmonning "Muvozanat", "Yashil daryo", "Yuragimning dastxati", "Ijobat", "Asraganim, avaylaganim" kabi she'riy to'plamlari, bolalar uchun "Momoqaymoq", "Yerga tushgan kamalak", "Qanotli tushlar" nomli majmualari chop etilgan. Shoirning 2010-yili chop etilgan "Yo'l ko'rayotgan odam" saylanmasiga turli yillarda yozilgan she'rlari va "Adabiy nido" dramatik dostoni kiritilgan.

U tarjimon sifatida K.Chukovskiy, A.Bertoning she'rlarini, avstriyalik adiba Velskof-Genrixning "Tokay Ito" romanini ona tilimizga mahorat bilan o'giran.

Muhammad Rahmon 2000-yili Toshkent shahrida vafot etdi.



## Pantomimo uchun syujet

Ishonmassan bu gapga, do'stim,  
Gunlarda ham zabon bo'ladi.  
Tilim mening – shu ikki qo'lim,  
Ular yig'lar, ular kuladi.

O'xshamaysan yomon odamga,  
Yaqinroq kel, tishlab olmayman.  
Sig'mayapman butun olamga,  
Bilasanmi, sevib qolganman!  
Mana, bunday uning yuzlari...  
Mana, bunday uning ko'zlari...  
Mana, bunday uning lablari...

Ergashaman soyasi bo'lib,  
Afsus, menga qiz qiyo boqmas.  
Jerkir, ketar ustimdan kulib,  
Balki, unga gunligim yoqmas.

Davrasiga olgani zamon  
Madxiyalar o'qir xushtorlar,  
Barmoqlarim dodlaydi:  
– Yolg'on!  
Aldar seni shakarguftorlar.

Olamda bor shunday bir tuyg'u,  
Til bilan ham bo'lmaydi aytib.

Koshki shuni tushunsaydi u,  
Yonginamga kelsaydi qaytib.

Qalbim bilan allalar edim,  
Erkalardi ko'zlarim sekin.  
Ne ham derdim, nima ham derdim,  
Zorim bor-u zo'rim yo'q lekin.

Yuraversin u, mayli, mag'rur,  
Men tomonga tushmay yo'llari.  
Balki, endi vasfin bir umr  
Kuylab o'tar sho'rlik qo'llarim.

Balki, siylar meni ham taqdir,  
Bir kun nomin ayturman dadil.  
Jon chiqarda qaytarmish, axir,  
So'qirga ko'z, soqovlarga til!

Shu tasodif bo'lmasa, u kun  
O'z "tilim"dan qilmagil judo –  
So'nggi imo-ishoram uchun  
Qo'llarimga kuch bergil, Xudo:  
Mana, bunday uning yuzlari,  
Mana, bunday uning ko'zlari,  
Mana, bunday uning lablari...

\* \* \*

Sen ham eslaysanmi goh qolib xoli?  
Qo'msaysanmi ko'ngil ko'chalarini...  
Munavvar ayladi oydin xayoling  
Savdoli bu umrim kechalarini!

Sen ham eslaysanmi yoshligingni – sha'n,  
Rangi, iforini – nechuk edi ul?  
Meni mast qiladi qirq yil naridan  
Kitobing qatiga qistirilgan gul...

Ob-u otashidan dunyoni o'tding,  
Bekaram, bir kam deb qarg'arsan yomon...

Sevgi-chi, ilk sevgi... nahot, unutding,  
Men esa sog'inib yashayman hamon.

Nomalar bitardim senga bir talay,  
Qog'ozga ishonib sirlarning sirin.  
Xatjildni yopardim shirachin yalab –  
Xatjildlar o'zingdek, so'zingdek shirin!

Tonmayman bo'g'zimga botsa ham tishi,  
Eslab xo'rsingulik yozim, qishim bor.  
Yo'qdir dunyosining men bilan ishi,  
Mening bu dunyoda yo'qlar kishim bor!  
Sen ham eslaysanmi...



# Qutlibeka

## RAHIMBOYEVA

1952-yilning 9-fevralida Turkmaniston Respublikasining Toshovuz shahrida tug‘ilgan. Farg‘ona davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan. Keyinchalik umumta‘lim maktabida, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda ishladi. Ayni paytda “Saodat” jurnalida xizmat qiladi.

1976-yili Zulfiyaxonim Qutlibekaning ilk she‘riy turkumiga “Saodat” jurnalida “Oq yo‘l” tilab, mashqlarida jamiyatni, inson va ijtimoiy voqelik ruhiyatini anglashga, uni tahlil etishga intilish ustuvor ekanligini qayd qilgan edi. Qutlibekaning 1981-yili “Yuragimda ko‘rganlarim”, 1984-yili “Uzun kunduzlar”, 1989-yili “Uyg‘onish fasli” kabi she‘riy to‘plamlaridagi, “Chiroylisan, muhabbat” hikoyalar kitobidagi qahramonlar o‘zbekning dard-u quvonchlari bilan kuyunib-suyunib yashayotgan armonli, g‘ururli, oriyatli shaxs, qullik, qaramlikka murosasiz, erk uchun

Qutlibeka hayotda ham, ijodda ham betaraflikni, o‘rtamiyonalikni yomon ko‘radi. Bu illatlarga qarshi shoiraning “yuragida uyg‘onar isyon” va “Zich yopgan tishlarini” ochib, har doim haqiqatni ro‘y-rost aytishga shaylanadi. Uning ta‘kidlashicha: “Men uchun u taraf, bu taraflar yo‘q, Vatan bir butundir, butundir millat”. Ushbu ahdiga sodiq qolgan shoira qirq yildirki, ham ijtimoiy, ham ijodiy faoliyatida ana shu butunlik yo‘lida xizmat qilib kelayotir.

**Yo‘ldosh SOLIJONOV,**  
professor

kurashchi, o‘z millatiga sadoqati cheksiz, kechirimli insonlardir.

Keyingi yillarda respublika gazeta-jurnallarida shoiraning “Hamma biladigan sir”, “Sulton suyagini xor etmas”, “Til uchidagi so‘z” kabi bugungi kun voqeligiga munosabat bildiruvchi, munozaraga chorlovchi turkum publitsistik maqolalari e‘lon qilindi. Uning “Qishning oxirlari” dostonida “o‘zbeklar ishi” fojialari umumlashtirilgan; “Tavba” dostonida umr bo‘yi ikki xil hayot kechirgan, ikki xil qiyofada yashab, jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘zini qurbon qilgan majruh bir inson, uning ruhiy azoblari-yu fojiali taqdiri haqida bahs boradi. Shoira “Tohirning Zuhrosi” nomli dramatik asar muallifi. U tarjimon sifatida Lesya Ukrainka, Marina Svetayeva kabi shoiralarning asarlarini ona tilimizga o‘g‘irgan.

Qutlibeka Rahimboyeva 1993-yili “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni, 1999-yili “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

## Quvonch

Tog'lar yelkasiga sig'magan irmoq  
Sasidan sukunat eshigi sindi.  
Rangin chechaklarga aylandi tuproq,  
Zaminning chiroyi endi bilindi.

Quyoshniki bo'ldi bepoyon samo,  
Nurlarning yo'llari uzaydi.  
Orzuli-havasli kunlar beorom  
Novdalarni gullar bilan bezaydi.

Ildizidan boshlab uchiga qadar  
Gulga to'lib ketdi og'ochlar jismi.  
Bog'larda adashib qoldi shabada,  
Rangidan mastmi yo bo'yidan mastmi?

Oftobning anhorga chizgan naqshini  
Majnuntol kun bo'yi ko'rib to'ymaydi.  
Yuksakda kuylamoq shuncha yaxshimi,  
Odamlardan ko'proq qushlar kuylaydi.

Yana o'z ranglari qaytgan bag'ringda,  
Yurtim, ko'nglim to'lib yurib quvondim.  
Yana kuz zahmati, qishning zahridan  
Omon chiqqaningni ko'rib quvondim.

## Yupanch

Eshikni yopasiz, habibim,  
Yo'q, olam aftini yopasiz.  
Siz mening – ishongan tabibim,  
Uzuk tomirlarim topasiz.

Qizarib, qiziyman lahzada,  
Umid kurtaklarim bo'rtadi.  
Faqat biz tushunar lahjada  
Quvonchlar shivirlar o'rtada.

O'zimdand balandlab ketaman,  
Ko'nglim – yo'l ko'rsatkich devona.  
Dunyoga qayg'urib netaman,  
Dunyoki – g'alati, begona.

Yig'ilib, labimga kelar jon,  
Tovushi adashar so'zimning.  
O'zgacha holatga hech qachon  
Men bergim kelmaydi o'zimni.

Eshikni yopasiz, habibim,  
Yo'q, olam aftini yopasiz.  
Siz borsiz, ketmasman, tabibim,  
Ketsam, sevib-sevib topasiz.

## U shunday ayol...

Sog'inchning o'tli tili  
Yalaydi yuragimni.  
Bashorat – topqir bilik,  
Topib ber keragimni.

U shunday ayol – sochi  
Bir erkakning titrog'i.  
Yo'q, shunday ayol – sochi  
Millatining bir bayrog'i.

U shunday ayol – ko'zi  
Bir erkakning chirog'i.  
Yo'q, shunday ayol – ko'zi  
Millatning qo'sh mayog'i.

U shunday ayol – yuzi  
Bir erkakning mohtobi.  
Yo'q, shunday ayol – yuzi  
Millatning bir mehrobi.

Yo'q, shunday ayol – o'zi  
Bir erkakning o'ng ilki.  
Yo'q, shunday ayol – o'zi  
Millatning butun mulki.

Shu ayolni istayman  
Tanigandan tuzumni.  
Asli o'zim izlayman  
Orzumdagi o'zimni.



Abduvali soʻzni chin bozinger kabi oʻynatadi. Soʻz sheʻrning tasvir predmetiga aylanadi. Soʻz badiiy tasvirning chinakam manbai. Soʻz – obraz. Bu imajinizm-ku deyishingiz mumkin. Ha, taʻbir koʻtarsa, imajinizm. Lekin hammasi shoir shaxsining badiiy intuitsiyasi bilan bogʻlangan va sheʻriy til taraqqiyotida impressionizm qadar koʻtarilib boradi. Ijodkor soʻz va ohang goʻzalligini, sheʻriy satrning noyobligini goʻzallik shaydosi darajasida anglaydi va his qiladi.

**Ibrohim GʻAFUROV,**  
Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan  
sanʼat arbobi

# Abduvali

## QUTBIDDIN

1960-yilning 20-iyunida Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tugʻilgan. Shoirning ota-onasi asli toshkentlik boʻlib, Shayxontohur mahallasidan, Xoʻja Ahror Valiy avlodiga mansub kishilar edi.

U 1978–1983-yillari Oʻzbekiston Milliy universiteti (ilgarigi ToshDU)ning jurnalistika fakultetida tahsil oldi. 1983-yili mehnat faoliyatini Samarqand viloyatining “Zarafshon” gazetasida boshlagan Abduvali Qutbiddin keyinchalik Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyotda,

“Yozuvchi” nashriyotida, “Oʻzbekiston” Milliy teleradiokompaniyasida, “Xalq soʻzi” gazetasida turli lavozimlarda xizmat qildi.

Shoirning 1988-yili “Nayson”, 1989-yili “Humo”, 1991-yili “Baxtli yoʻl”, 2011-yili “Bor” saylanmasi va “Ozodlik” nomli dostoni chop etildi. Abduvali Qutbiddin sheʻrlari sodda, ravon ifodalar asosiga qurilganligi bilan ajralib turadi. Uning “Baxtli yoʻl” toʻplamiga kirgan “Yer qaʻriga”, “Ikki amakimga xat” kabi sheʻrlarida dunyo oʻtkinchi, hamma narsa oʻtadi-ketadi, ammo poklik, muhabbat, yaxshilik, mehr kabi buyuk tuygʻular qoladi, degan xulosa balqib turadi.

Abduvali Qutbiddin 2015-yili “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan jurnalist” unvoni bilan taqdirlangan.

U 2019-yili Toshkent shahrida vafot etdi.





\* \* \*

Ichikdim. Sog'indim seni, shekilli,  
Tongim rangi sariq, xasta kunduzim.  
Ihrab quyosh chiqar, o'ksib oy sho'rlik,  
Osima –  
Sen kimning qizi!

Ko'rpaga burkansam, ko'rpa ilvirar,  
Yostiqa yopishsam, ilvirar yostiqa.  
O'y menga sig'maydi, uy menga sig'mas,  
bosiriq – bosiriq...

Zirillar borligim yursam, yo'l ko'nmas,  
Qoyaga tirmashsam, puchmayar qoya.  
Qarg'asam, qarg'ishim duoga o'xshar,  
vooya...

Ichikdim. Sog'indim seni, shekilli,  
Xo'rligim keltirar g'alati gina.  
Nimaga odamlar shod, hurram, mamnun,  
Bizlar odammasmi,  
Osima?!



\* \* \*

Charx, o'tkir qilib qo'y boltangni,  
Chug'urchuq, yigirgin sim arqon,  
Yuzini o'girdi  
Axir yor –  
Chiqsang – chiq,  
Ketsang – ket, endi, jon.

Xazoning to'pla, ko'm meni, bog',  
Teringni kafan et, ey ilon,  
Yuzini o'girdi  
Axir yor –  
Chiqsang – chiq,  
Ketsang – ket, endi, jon.

Daryo, sen muruvvat qil bir bor,  
Yo'lingga qo'shib ol laxta qon.  
Yuzini o'girdi  
Axir yor –  
Chiqsang – chiq,  
Ketsang – ket, endi, jon.

Kecha, o'g'irlikka chiqqil, kel,  
Boshimni sindirgin, uz, armon.  
Yuzini o'girdi  
Axir yor –  
Chiqsang – chiq,  
Ketsang – ket, endi, jon.

Laxcha sep, tongginam, to'yayin.  
Yurakda qolmasin pushaymon.  
Yuzini o'girdi  
Axir yor –  
Chiqsang – chiq,  
Ketsang – ket, endi, jon.



**Asliddin  
ALMARDON**

# MANTIPAZ VA BIRODARLAR

(Hikoya)

“Yangiobod” bozoriga tushdim. Bir yaxshi “bukinist” bor. Onda-sonda noyob o‘qishli kitoblar kelib qolsa, xabarini yetkazadi. Ammo bu safar omadim kelmabdi, kimdir o‘sha kitobni mendan oldin xarid qilishga ulguribdi. Mayli, hamma zamonlar olg‘irniki bo‘lgan, bo‘ladi ham.

Mashinani bozorning g‘arb tomonidagi chiqish darvozasi – temiryo‘l izi tarafga qo‘ygandim. Yo‘l-yo‘lakay ko‘zim tushdi; bir mardum yerga, o‘rislar aytmoqchi, “otklyuchyonnyy” bo‘lib dumalagan. Zahar-zaqqumni me‘yordan ko‘p yutgan, ahvoli xarob, yonverida esa “mazmuni bitgan” ikki shisha yumalab yotardi. Ha, xamr shunday vositayi joh, Alpomishni ham Surhayl maston shu ko‘yga keltirib, keyin chohga itarib yuborgan.

– Nima deysiz, endi. Uch kun avval onasi o‘libdi. Alamidan ichibdi. Undan sal avval opasi va jiyani – ikkisi bir kunda qazo qilgan ekan. Tushunish kerak.

Bosh ko‘tarib, ovoz kelayotgan tarafga qaradim. Qo‘shhamyonli, kir-chir peshbandini qornidan oshirib

bog‘lagan mantipaz o‘tgan-ketganga vaziyatni shunday izohlar va bu izohda odamlarning rahmi kelib, yerparchin mastni uyiga olib borib qo‘yishar degan imdod zohir edi. Demak, tuproqqa qorishib yotmish o‘sha mantipazga dardini aytib ichgan, bu sulloh esa goh-goho “voy-voy-ye” deya gazagiga manti uzatib turgan. U ichavergan, buning bozori qiziyvergan. Oxiri yiqilgach, (endi kerakmas) rastasidan daf qilmoqchi. Yana abgorga qaradim. Ana, og‘zidan



so'lagi oqa boshladi. Judayam jirkanch manzara, lekin inson...

– Alloh asrasin, – shundoqqina biqinim tomondan shivirladi bittasi.

Unga-da boqdim. Mo'minnamo qiyofa chizib olibdi. "Alhazar" deya boshini sarak-sarak qilib uzoqlashdi.

Qancha serrayib turdim, bilmadim, shu payt bir ozg'in ayol paydo bo'ldi, engashib mast odamni o'rnidan qo'zg'atish uchun turtkilay boshladi. Qabatida undan-da ozg'in, o'n bir yoshlar chamasi qizaloq. Va, haybati toypaxtadek keladigan ikki sumka. "Xotini, qizimikan?"

– Tur, turaqolsang-chi, bo'lmasa ketib qolaman!

Kuchi yetmaydi, xirsdaiy erkak. Qizaloq yordamlashmoq payida bor ovozi bilan yopishadi.

– Tog'-a-aaaa!

Shugina chinqiriq quloqlarimda batabang aks berdi; o'ydin uyg'otdi. Lahzada mastning oldiga yetdim. Ikkovlashib o'rnidan turg'azmoq bo'ldik. Qani endi, oyoq-tirgak bossa. Yo'q, yelimshak matoh deysiz, butun tanasi mayishib ketyapti. "Yo yelkamga olsammikan?"

– Qayt qivoradi, – deydi boyaqish ayol.

Noiloj atrofga boqamiz. Yakkash, juft-juft, ola-g'ovur solib kelayotganlarning hech biri yordamga oshiqmaydi.

– O'z holiga qo'yinglar, biror ikki soatda hushiga keladi. Yo'rg'alab ketadi uyiga, – maslahat beradi soqoli paxmoq mo'ysafid. Keyin yengilgina kulib qo'shib qo'yadi: "Boshdan o'tgan-da."

"E, bor-e, o'lib qolmas!"

Majbur qayishidan tortqilab ko'tardim. Mastning qaddi egilib, dol ko'rinish oldi.

– Mana, mard bor ekan-ku! – davradagi bakovuldek ayqiradi mantipaz.

– Undan ko'ra yordam bersangiz-chi, tovoqlaringiz ham bo'shabdi. Hech kim tegmas, – deyman g'ijiniib.

– E-e ukam, bu alyumin tovoqlarning har biri qancha turishini bilsang edi, – kaftlarida havoni kesib, ming'irlyaydi sullohlarcha.

Nachora, "ulog'im"ning o'mganini chap qo'limda suyab ketaberdim. Ahyon-ahyon orqamga qarayman, sudralgan oyoqlar shag'al-qumoq yerda egri-bugri iz chizib kelyapti. Chiziq ba'zi joylarda uzilib qolgan. Bular tin olib, bot ko'targan joylarim.

"Kechmishingga – aftodayi holingga suvrat solib kelyapsan, og'ayni! Uzuq-yuluq joylari ko'p ichgan damlarning" chalg'ish uchun nash'a qilaman unga.

Baribir eshitmaydi-ku.

Biror ikki yuz metrcha yurilgach, haytovur, bir kishi o'ktam ovoz bilan ko'makka chog'lanadi. O'g'li esa ketimizdan pishshillab kelayotgan ayolning qo'llaridan zil-zambil sumkalarni oladi. Buyog'iga taxminan yana shuncha masofa qoldi.

Mashina orqa o'rindig'iga yotqizdik. Qizcha tog'asining yonidan suqildi. Mast bo'g'iq ovozda g'o'ldiradi. Anglolmadik. "Hayriyat", degan bo'lsa kerak, hoynahoy. Axir yarim chaqirim sudrab keldik, qiynaldi.

– Kasalxonaga eltaylik, o'ziga keltirishadi, – yuzlanaman old o'rindiqqa mingashgan ayolga. – Uyga oborsak, baribir dardisar bo'ladi.

– Yo'q-yo'q, ertaga ma'arakimiz bor.

Tayyorgarlik ko'rishimiz kerak. Uyga boraylik, pulini to'layman, – jovdiraydi juvon.

Buyog'iga jim ketdik.

Yo'l qayrildi. Juvon bozorda boshlangan va boyadan beri yig'ilib kelayotgan o'kirigini g'ilt etib yutdi, unsiz yig'lab yubordi. Shunda ko'rdim: kipriklari deyarli to'kilib ketgan, surp ro'mol ostidan xiyol chiqib qolgan bir tutam sochi esa poxolpoyaga o'xshardi.

– Ko'p ichadimi?

– Bir hafta bo'luvdi, ichmayotuvdi.

– Mantipaz azador, dedi?

– Ha, nobakor pochcham mastlik ustida opamni qizi bilan birga so'yib tashladi. Hozir qamoqda. Opam va jiyanim o'lmasdi agar... Ona-qiz ko'chada yarim soatcha qiynalib yotgan, hech

kim yordamga shoshmagan. Do‘xtir aytdi: ancha qon yo‘qotgan ekan, har ikkisi...

– Onangiz musibatni ko‘tarolmabdi-da...

– ...

– Boshqa aka-uka, opa-singillar bormi?

– Ha.

Manzilga yetdik. Rutubati shunday ayon hovli eshigida uzun-kalta bo‘lib, ikki kishi bizni kutib turgan ekan. Ko‘chada esa yakkam-dukkan odamlar ko‘rinib qoladi.

– Darvozani oching, ichkarida tushirganimiz ma‘qul, buyoqda.., – dedim boyagi ikkisiga – qosh ko‘tarib ko‘cha tarafga nuqirkanman.

– Ha-ya...

Eh-he, ko‘pchil ekan-ku bular. Katta oila.

Bu orada aka-uka hiringlashib, mastni orqa o‘rindiqdan tushirib oldi. Men tushunmaydigan, faqat shu oilagagina xos qochirim-qichiq gaplar,

piching yangradi. Ochig‘i, hayron qoldim. Negadir bu yerdagi hech kim azador tuyulmasdi. Qandaydir bir qorishiq kayfiyat hukmron edi. Faqatgina kipriksiz ayol burchakda qimtinib turar, nazarimda xayoli yo‘lkirada edi.

– Yotqizishdan avval bir cho‘miltirilsa tuzuk, – dedim hardamxayolimgimni bildirmaslik maqsadida.

– Ha, cho‘miltiramiz. Shunday cho‘miltirayki, qanday o‘ziga kelganini bilmay ham qoladi, – xandon otadi sariqroqdan kelgan yosh qiz.

“Singlisi bo‘lsa kerak”.

Mashinaga o‘tirdim. Kipriksiz ayol tovushsiz qadam bosib, yon oynadan mungli bir alpozda boqdi. Chap tomonimga burilib, aka-ukalarga qaradim. Ular parvoyipalak nimanidir suhbatlashib turishardi. Negadir xayolimda yana mantipaz gavdalandi. Tomoq qirdim.

– Shartmas. Arzimaydi...



## 2020-yilda “Yosh kitobxon” tanlovining 10-14 yosh toifasida foydalaniladigan KITOBLAR RO‘YXATI

T/r	Kitob nomi	Muallifi
<b>Xalq og‘zaki ijodi</b>		
1	“Alpomish” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
2	“Dalli” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
3	“Kuntug‘mush” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
4	“Rustamxon” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
5	“Alpomish Botir”(ertaklar)	Sibir xalq ertaklari
<b>Mumtoz adabiyot</b>		
6	“Qissasi Rabg‘uziy”	Nosriddin Rabg‘uziy
7	“Guliston”	Sa‘diy Sheroziy
8	“Hayrat ul-abror”	Alisher Navoiy
9	“Kalila va Dimna”	Hind xalq eposi
<b>O‘zbek nasriy adabiyoti</b>		
10	“Bir qultum buloq suvi” (qissa)	Farhod Musajonov
11	“Xo‘jand qal‘asi” (roman)	Mirmuhsin
12	“Jinlar bazmi”	Abdulla Qodiriy
13	“Oshiq bulut” (ertaklar)	Nozim Hikmat
14	“Quyovlar saltanati” (roman)	Xudoyberdi To‘xtaboyev
15	“O‘tmishdan ertaklar” (qissa)	Abdulla Qahhor
16	“Champo otli ilon” (qissa)	Erkin Malik
17	“O‘tror” (qissa)	Mirkarim Osim
18	“Sening bolalik osmoning” (qissalar va esse)	Nurali Qobul
19	“Eski maktab” (qissa)	Sadriddin Ayniy
20	“Olis yulduzlar ostida”(hikoya va ocherklar)	Shukur Xolmirzayev
21	“Bolaligim ertaklari” (qissa) 1-kitob	Erkin Malik
22	“Sehrli so‘z” (hikoyalar)	Mirkarim Osim
23	“Jasur bolalar” (hikoyalar va pesalar)	Latif Mahmudov
24	“Dunyoning ishlari”	O‘tkir Hoshimov
25	“Shum bola”	G‘afur G‘ulom
<b>She‘riyat</b>		
26	“Oqbuta to‘lqinlari”(she‘rlar, ertaklar, dostonlar, balladalar va tarjimalar)	Tursunboy Adashboyev
27	“Cho‘l to‘rg‘ayi” (she‘rlar va dostonlar)	Ibroyim Yusupov

28	“Qiziqvchan Matmusa”	Erkin Vohidov
29	“Holva yemagan bola”	Ilhom Zoir
30	“O‘g‘irlangan pahlavon”(she‘rlar, doston va ertaklar.birinchi kitob)	Anvar Obidjon
31	“Bolajon, bolajonim” (she‘rlar)	Po‘lat Mo‘min
32	“Oyguil bilan Baxtiyor” (doston)	Hamid Olimjon
33	“Yashasin quyoshli kun” (she‘rlar)	Rustam Nazar
34	“Masxaraboz bola” (she‘rlar)	Anvar Obidjon
<b>Jahon adabiyoti</b>		
35	“Oltin bola” (ertaklar va voqealar)	Hans Kristian Andersen
36	“Bilmasvoy quyosh shahrida” (roman)	Nikolay Nosov
37	“Uch baqaloq”	Yuriy Olesha
38	“Momoqaymoq” (qissa)	Rey Bredberi
39	“Robinzon Kruzoning sarguzashtlari”	Daniel Defo
40	“Yovvoyi yo‘rg‘a” (hikoyalar)	Ernest Seton-Tompson
41	“Baron Myunxauzenning boshidan kechirganlari”	Erix Rudolf Raspe
42	“Qaysar bolaning hayoti” (qissalar)	Mirzakalon Ismoiliy
43	“Bolaligim” (qissa)	Chingiz Aytmatov
44	“Xazinalar oroli” (roman)	Robert Stivenzon
45	“Kapitan Vrangelnig sarguzashtlari”	Andrey Nekrasov
46	“Kapitan Grant bolalari”	Jyul Vern
<b>Ilmiy-ommabop adabiyotlar</b>		
47	“Qiziqarli matematika”	Y.I.Perelman
48	“Qiziqarli geografiya”	Vahob Rafiqov
49	“Tabiat mo‘jizalari”	Yuriy Dmitriyev
<b>Nashrlar</b>		
50	“Yoshlik” jurnali (2019-2020-yil sonlari)	O‘zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jurnali



## 2020-yilda “Yosh kitobxon” tanlovining 15-19 yosh toifasida foydalaniladigan KITOBLAR RO‘YXATI

T/r	Kitob nomi	Muallifi
<b>Xalq og‘zaki ijodi</b>		
1	“Malika Ayyor” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
2	“Shirin va Shakar” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
3	“Ravshan” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
4	“Shahriyor” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
<b>Mumtoz adabiyot</b>		
5	“Mahbub ul-qulub”	Alisher Navoiy
6	“Boburnoma” (tabdil variant)	Zahiriddin Muhammad Bobur
7	“Hikmatlar”	Ahmad Yassaviy
8	“Berdaq she‘riyatidan” (she‘rlar)	Berdaq
9	“Bulbul nolasi”(saylanma)	Maxtumquli
<b>O‘zbek nasriy adabiyoti</b>		
10	“O‘zbeklar” (hikoyalar)	O‘tkir Hoshimov
11	“Ko‘hna dunyo” (roman)	Odil Yoqubov
12	“Yulduzli tunlar”	Pirimqul Qodirov
13	“Mehrobdan chayon”	Abdulla Qodiriy
14	“Turkiy guliston yohud ahloq”	Abdulla Avloniy
15	“Ildizlar” (qissa)	Asqad Muxtor
16	“Cho‘l burguti” (hikoyalar)	Said Ahmad
17	“Ko‘ngil ozodador” (qissa)	Xayriddin Sultonov
18	“Oltin zanglamas”	Shuhrat
19	“Falak” (qissa) Tanlangan asarlar 1-jild	Tohir Malik
20	“So‘nggi bekat” (roman)	Shukur Xolmirzayev
21	“Ona lochin vidosi”	Pirimqul Qodirov
22	“Dunyo bolalari”(hikoyalar)	Asqad Muxtor
23	“G‘aznaviylar”	Maqsud Qoriyev
24	“Mungli ko‘zlar”	Xudoyberdi To‘xtaboyev
25	“Avaz”	Sa‘dulla Siyoyev
26	“Yolg‘iz” (qissa va maqolalar)	Xurshid Do‘stmuhammad
27	“Bir yuz bir”	Anvar Irgashev, Yuliya Medvedovskaya
28	“Ot kishnagan oqshom”	Tog‘ay Murod
29	“Otoyining tug‘ilgan yili”	Erkin A‘zam
30	“Bibisora” (qissa)	Sobir O‘nar
31	“Ikki eshik orasi”	O‘tkir Hoshimov

32	“Genetik” (roman)	Isajon Sulton
33	“Otamdan qolgan dalalar”	Tog‘ay Murod
34	“Hind sayyohining qissasi”	Abdurauf Fitrat
<b>She‘riyat</b>		
35	“Shoir yuragi”	Abdulla Oripov
36	“Tortilgan kamon”	Chori Avaz
37	“Yashil qushlar”	Eshqobul Shukur
38	“Muqqaddas ayol”	Halima Xudoyberdiyeva
39	“Buloqlar quchog‘ida”	Cho‘lpon
<b>Jahon adabiyoti</b>		
40	“Bir vijdon uyg‘onur”	Ahmad Lutfiy Qozonchi
41	“Bir xonadon farzandlari” (she‘rlar)	Rasul Hamzatov
42	“Hojimurod”	Lev Tolstoy
43	“Oq ko‘rfaz”	Anor
44	“Futbol qiroli”	Aziz Nesin
45	“Cho‘qqida qolgan ovchining ohi-zori”	Chingiz Aytmatov, Muxtor Shoxonov
46	“Somon yo‘li” (qissa)	Chingiz Aytmatov
47	“Iturak” (qissa)	Mixail Bulgakov
48	“Mamanbiy afsonasi” (roman)	To‘lepbergen Qaipbergenov
49	“Oltinchi palata” (hikoya)	Antov Pavlovich Chexov
50	“Baskervillar iti”	Artur Konan Doyl
51	“O‘g‘ri va it” (qissa)	Najib Mahfuz
52	“O‘nta negr bolasi”	Agata Kristi
53	“Shaftoli va po‘rtaxol” (hikoyalar)	O‘Genri
54	“Marsga hujum”	Rey Bredberi
55	“Shimol hikoyalari”	Jek London
56	“Boshsiz chavondozi”	Tomas Mayn Rid
<b>Ilmiy-ommabop asarlar</b>		
57	Olam yog‘dusi yohud qiziqarli fizika	Qodir To‘rayev
58	Qiziqarli bilimlar olamida	Qodir To‘rayev, Sattor Burxonov, Muhayyo Zokirova
59	“Qiziqarli matematika”	Y.I.Perelman
<b>Nashrlar</b>		
60	“Yoshlik” jurnali (2019-2020-yil sonlari)	O‘zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jurnali

## 2020-yilda “Yosh kitobxon” tanlovining 20-30 yosh toifasida foydalaniladigan KITOBLAR RO‘YXATI

T/r	Kitob nomi	Muallifi
<b>Xalq og‘zaki ijodi</b>		
1	“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
2	“Yunus pari” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
3	“Zulfizar” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
4	“Masposhsho” dostoni	Xalq og‘zaki ijodi
<b>Mumtoz adabiyot</b>		
5	“Mahbub ul-qulub”	Alisher Navoiy
6	“Lison ut-tayr”	Alisher Navoiy
7	“Mantiqut-tayr”	Fariduddin Attor
8	“Hajviyot”	Muqimiy
9	“Makorim ul-ahloq”	Xondamir
<b>O‘zbek nasriy adabiyoti</b>		
10	“Chinor”	Asqad Muxtor
11	“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar”	Ahmad A‘zam
12	“Pahlavon Muhammad”	Asad Dilmurod
13	“Oila”	Abdurauf Fitrat
14	“O‘tkan kunlar”	Abdulla Qodiriy
15	“Puankare” (hikoya)	Abduqayum Yo‘ldoshev
16	“Bog‘dagul” (hikoyalar)	Bahodir Qobul
17	“Spitamen”	Maqsud Qoriyev
18	“Padarkush” drammasi	Mahmudxo‘ja Behbudiy
19	“Farg‘ona tong otguncha”	Mirzakalon Ismoiliy
20	“Go‘r o‘g‘li yoxud hayot suvi”	Nazar Eshonqul
21	“Qoraqayun”	Normurod Norqobilov
22	“Bonu”	Iqbol Mirzo
23	“Tushda kechgan umrlar”	O‘tkir Hoshimov
24	“Fotima va Zuhra” (roman)	O‘lmas Umarbekov
25	“Navoiy”	Oybek
26	“Kechikayotgan odam” (to‘plam)	Erkin A‘zam
27	“Ot kishnagan oqshom”	Tog‘ay Murod
28	“Bir yuz bir”	Anvar Irgashev, Yuliy Medvedovskaya
29	“Sahovil” (qissa)	Tohir Malik
30	“Ahmad Yassaviy”	Sa‘dulla Siyoyev
31	“Ufq”	Said Ahmad
32	“Javzo”	Risolat Haydarova
33	“Yolg‘izlik”	Ulug‘bek Hamdam
34	“Avlodlar davoni”	Pirimqul Qodirov
35	“Mahmud Torobiy”	Asad Dilmurod

36	“Kafansiz ko‘milganlar”	Shukurullo
37	“So‘g‘diyona”	Yavdat Ilyosov
38	“Boburiynoma”	Xayriddin Sultonov
39	“Bozor”	Xurshid Do‘stmuhammad
40	“Yolg‘iz” (qissa va maqolalar)	Xurshid Do‘stmuhammad
<b>She‘riyat</b>		
41	“Tabassum”	Erkin Vohidov
42	“Cho‘l to‘rgayi” (she‘r va doston)	Ibroyim Yusupov
43	“Yurak”	Usmon A‘zim
44	“Turkiston ruhi”	Rauf Parfi
45	“So‘z yo‘li” (she‘riy to‘plam 2 jildlik)	Sirojiddin Sayyid
46	“Abadiyat oralab”	Shavkat Rahmon
<b>Jahon adabiyoti</b>		
47	“Begona”	Alber Kamyu
48	“Graf Monte Kristo”	Aleksandr Dyuma
49	“Koinot oqimlari”	Azek Azimov
50	“Doktor Jivago”	Boris Pasternak
51	“Musavvirning yoshlikdagi shamoili”	Jeyms Joys
52	“Shimol hikoyalari”	Jek London
53	“Tirilish”	Lev Tolstoy
54	“Uch og‘ayni”	Erix Mariya Remark
55	“Shaftoli va po‘rtaxol”	O‘Genri
56	“Don Kixot”	Migel de Servantes
57	“Asrga tatigulik kun”	Chingiz Aytmatov
58	“Marsga hujum”	Rey Bredberi
59	“Mening Dog‘istonim”	Rasul Hamzatov
60	“Yashil kecha” (roman)	Rashod Nuri Guntekin
61	“O‘lik jonlar” (roman)	Gogol
62	“Amerika fojiasi” (roman)	Teodar Drayzer
63	“Qoraqalpoqnoma”	To‘lepbergen Qaipbergenov
64	“Boshsiz chavondo‘z”	Tomas Mayn Rid
65	“Alvido, qurol”	Ernest Xeminguey
66	“Cho‘l bo‘risi”	Herman Hesse
<b>Ilmiy-ommabop adabiyotlar</b>		
67	“Tib qonunlari”	Ibn Sino
68	“Qiziqarli kimyo”	T.Do‘stmurodov, A.Aloviddinov
69	“Qiziqarli matematika”	Y.I.Perelman
<b>Nashrlar</b>		
70	“Yoshlik” jurnali (2019-2020-yil sonlari)	O‘zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jurnali



## Bahlulning iqrori

Bir kishi qoziga Bahlul ustidan “Mening ko‘ylagimni o‘g‘irladi” deb shikoyat qildi.

Qozi Bahlulni chaqirib so‘roq qildi:

– Sen bu odamni avval ko‘rganmiding?

Bahlul indamadi. Shunda qozi asabiylashib, Bahlulga dedi:

– Ertagacha muhlat beraman, rostini so‘zlaysan.

Ertasiga da‘vogar va Bahlul qozi huzuriga kelganda, qozi undan takror so‘radi:

– Sen bu odamni avval ko‘rganmiding?

– Ha, – tezda javob berdi Bahlul.

Qozi suyunib ketdi, chunki u Bahlul aybiga iqror bo‘ldi deb o‘ylagandi-da. So‘ng so‘radi:

– Qayerda, qaysi paytda ko‘rgansan?

– Kecha, xuddi shu yerda, sizning huzuringizda.

### Aziz o‘quvchiga!

1. Siz “Yoshlik”ni doim o‘qib borasizmi?
2. Ta‘lim olayotgan maktabingiz kutubxonasida “Yoshlik” jurnali bormi?
3. Adabiyot darslarida ustozingiz qaysi adabiy nashr (gazeta yoki jurnal) lardan foydalanadi?
4. Jurnalda qanday asarlarni o‘qishni xohlaysiz?
5. Ota-onangiz, bobo-buvingizdan so‘rab ko‘ring-chi, ular yoshligida “Yoshlik”ni mutolaa qilishganmi?

### Eslatma!

Aziz kitobxon! 2020-yildan “Yosh kitobxon” tanlovida o‘qilishi zarur kitoblar qatoriga “Yoshlik” jurnalida 2019–2020-yillarda e‘lon qilingan asarlarni o‘qish tavsiya etildi. Agar jurnalga 2020-yil uchun obuna bo‘lsangiz, 2019-yilgi sonlarining elektron nusxasini (pdf shaklda) bepul qo‘lga kiritasiz.

Quyidagi to‘lov qog‘ozini to‘ldiring va obunaga shoshiling! Murojaat uchun telefon: +998945449833

Xazinchachi	<b>“Yoshlik” jurnali tahririyati</b>	
	(to‘lovni oluvchi muassasaning nomi)	
	Bank muassasasi: <b>“IPAK YO‘LI” banki Sag‘bon filiali</b>	
	To‘lov oluvchining	
	Hisob raqam <b>20212000300118214001</b>	
BMM raqami: <b>01036</b>		
_____		
(famiyasi, ismi va otasining ismi)		
_____		
yashash manzili		
To‘lov maqsadi	<b>Obuna</b>	Pul miqdori so‘m
	(2-12-sonlar)	225 000
To‘lovchi imzosi	<b>Jami:</b>	225 000



Muqovada:  
Ahmad TO‘RA  
olgan surat

Bosishga 18.02.2020-yilda ruxsat berildi.  
Qog‘oz formati: 84x108 1/16  
Nashriyot hisob tobog‘i: 8  
Obuna indeks – 822.  
ISSN 0207-9137.  
Jurnal 2007-yil 4-mayda O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0253 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.  
Jurnalidan ko‘chirib bosilganda “Yoshlik”dan olindi” deb izohlanishi shart.

“SILVER STAR PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma № 7.  
Adadi: 1000. Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-uy.